

A.Qosimov,
A.Hamroqulov,
S.Xo'jayev

**QIYOSIY
ADABIYOTSHUNOSLIK**

A.Qosimov, A.Hamroqulov, S.Xo‘jayev

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK

Toshkent
«Barkamol fayz media»
2019

UO'K:82.091

KBK: 83.3

Q-61

Q-61 Qosimov, A.

Qiyosiy adabiyotshunoslik [Matn] / A.Qosimov, A.Hamroqulov, S.Xo'jayev. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 160 b.

ISBN 978-9943-5650-8-1

UO'K:82.091

KBK: 83.3

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2019-yil 9-fevraldag'i 133-buyrug'i bilan 5111200 – O'zbek tili va adabiyoti ta'lif yo'nalishlari talabalari uchun o'quv q o'llfnma sifatida tavsiya etilgan.

Mazkur qo'llanma adabiyotshunoslikning dolzARB sohalaridan biri bo'lgan qiyosiy adabiyotshunoslik (komparativistika) masalalariga bag'ishlangan. Unda sohaning taraqqiyot bosqichlari, asosiy adabiy aloqa turlari hamda qiyosiy tahlil masalalari yoritilgan. Bundan tashqari, taniqli adabiyotshunoslarning sohaga oid adabiy-tanqidiy ishlardan namunalar berilgan.

Qo'llanma filologiya yo'nalishidagi bakalavriat talabalari, magistrantlar va tadqiqotchilarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

Hamdamov U., filologiya fanlari doktori,

Mirzayeva S., filologiya fanlari doktori, professor

Ushbu o'quv qo'llanma OT-A1-46 raqamli Davlat ilmiy-texnik loyihasi doirasida tayyorlandi.

ISBN 978-9943-5650-8-1

© A.Qosimov, A.Hamroqulov, S.Xo'jayev

«Qiyosiy adabiyotshunoslik»

© «Barkamol fayz media», 2019

© «Akademnashr», 2019

KIRISH

Adabiyotlarni qiyoslab o'rganish zamonaviy filologiyaning muhim yo'naliishlaridan sanaladi. «Qiyosiy adabiyotshunoslik» kursi bo'lajak filologlarda adabiy aloqa shakllari va qonuniyatlar haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, badiiy matnlarni qiyosiy va chog'ishtirma tahlil qilishning amaliy ko'nikmalarini egallash hamda umumgumanitar dunyoqarashning kengayishiga xizmat qiladi.

Narsa va hodisalarining mohiyati qiyoslash orqali oydinlashadi. Tabiat va jamiyatda asosan takrorlanuvchi, bir-biriga o'xhash yoki o'z tabiati, tuzilishi, mohiyati bilan bir-biriga zid bo'lgan narsa-hodisalar qiyoslash obyekti bo'lib xizmat qiladi. Bu hol adabiyotshunoslik fani, xususan, qiyosiy adabiyotshunoslik uchun ham badiiy-estetik metod bo'lib qolmoqda.

Zero, «u yoki bu, shaxsiy yoki begona bog'liqlikni aniqlash va qiyoslash madaniyatning asosiy va azaliy vazifalaridan birini tashkil etadi. Chunki juda keng ma'noda tushuniladigan qiyoslash (har qanday tarjima kabi tildan tilga, makondan makonga, zamondan zamonga, madaniyatdan madaniyatga) bevosita madaniyat makonidagiinsonning mavjudligi, madaniyatning vazifasi bilan bog'liq bo'lib, uning markazida o'xhashlik va farqlanish masalasi turadi».¹

Qiyoslash adabiy tahlilning samarali usullaridan biri bo'lib, qiyosiy adabiyotshunoslik fanining ildizlari uzoq o'tmishta borib taqaladi. Qiyosiy adabiyotshunoslikning

^¹ Топоров В.Н. Пространство культуры и встречи в нем // Восток и запад. Переводы. Публикации. – М., 1989. – С.7.

qo'llanish doirasi juda ham keng. Tilshunoslikda turli tillar qiyoslangani kabi, bir milliy adabiyotni boshqasi bilan yaxlit holda qiyoslash mumkin. U yoki bu yozuvchilar ijodini yoki ularning konkret asarlarini, badiiy asarlarning syujeti, kompozitsion qurilishi, uslubi, g'oyaviy mazmunini qiyosan o'rghanish imkoniyati mavjud. San'at turlaridan biri bo'lgan adabiyotni boshqa san'at turlari, masalan, musiqa, tasviriy san'at, opera va balet kabilalar bilan qiyoslash mumkin.

Qiyosiy-tipologik metod turli hodisalarni tadqiq qilish va tushuntirish usuli bo'lib, bunda hodisalarning shakli bo'yicha o'xshashligini aniqlash asosida ularning genetik yaqinligi, ya'ni umumiy kelib chiqishi haqida xulosa chiqariladi. Madaniy hodisalarni tadqiq qilishda qo'llaniladigan qiyosiy-tipologik metodning boshlang'ich nuqtasi bo'lib moddiy madaniyat va bilimlarning turli sohalari uchun umumiy bo'lgan eng qadimgi tarkibiy unsurlarni tiklash va qiyoslash xizmat qiladi.

G'arba qiyosiy adabiyotshunoslik tarixidagi ilk tajribalar XVIII asrda Germaniyada amalga oshirilgan. Turli millatlarning madaniy va adabiy an'analarini qiyoslagan nemis olimlari yagona Yevropa va jahon «madaniy makoni» mavjud degan xulosaga keldilar. I.G.Gerder Lessingning «Laokoon»i bilan munozara qilib, turli xalqlarning folkloriga katta qiziqish bilan qaraydi («Qo'shiqlarda xalqlarning ovozlari» to'plami, 1807-yil). U kishilik jamiyatining eng quyi bosqichidan yuqorisigacha bo'lgan rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashga intilish, turli jahon xalqlari, jumladan, Osiyo xalqlari va slavyanlar madaniyatini tadqiq etishga intiladi («Insoniyat tarixi falsafasiga doir g'oyalar»). Bunda tashqari, Gerder «madaniyat», «an'ana» tushunchalari ni izohlaydi; xalq madaniyatining iqlimga bog'liqligi, boshqaruv shakllari, din va boshqalar haqida gapiradi, insoniyat rivojlanishidagi tarixiylikni isbotlaydi.

Qadim zamonlardan buyon o'zbek adabiyoti turkiy, arab, fors tilida so'zlashuvchi mintaqalar adabiyoti, keyinchalik

rus va G'arbiy Yevropa adabiy an'analari bilan uzviy aloqada bo'lib kelgan va kelmoqda. Zotan, milliy doiralardan chetga chiqib, keng ko'lamda fikrlash, ijodiy aloqaga kirishish barcha davrlarda ham ilg'or estetik qarashning asosiy xususiyati bo'lgan. Shunga qaramay, biz milliy adabiy jarayon rivojlanishining asosini boshqa mamlakatlar va xalqlar adabiyoti ta'siri tashkil etadi degan fikrdan yiroqmiz.

Adabiyotlararo aloqalar, avvalo, tarixiy hodisa sanaladi. N.I.Konrad aloqalarning bir butun adabiy jarayondagi ko'lami, roli, shuningdek, ayrim xalqlarning adabiyotlari tarixidagi mohiyati turli davrlarda va har hil tarixiy sharoitlarda turlicha ekanligini ta'kidlaydi.² Aloqalarning adabiy jarayondagi turli shakl va ko'rinishlarini aniqlash milliy adabiyot tabiatini belgilash uchun zarur holatdir. Shuning uchun ham adabiy aloqalarni tadqiq etish adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan biri sanaladi. Shu bilan birga, komparativistika borasidagi tajribalarni o'rganish ushbu sohaning mamlakatimizdagi rivoji uchun muhimdir.

Jamiyatdagi globallashuv zamonaviy jahon adabiyoti va madaniyatidagi integratsiyalashuv jarayonlari qiyosiy adabiyotshunoslikni hozirda filologyaning yetakchi sohalariidan biriga aylantirdi.

A.N.Veselovskiy, F.I.Buslayev, V.M.Jirmunskiy, M.P.Aleksyev, N.I.Konrad, I.G.Neupokoyeva, P.van Tigem, P.Azar, F.Baldansperje, R.Uellek, E.Kursius, D.Dyurishin, A.Dima singari dunyo ilmiy jamoatchiligi tan olgan olimlar esa ushbu soha nazariy va amaliy asoslarining shakllanishiga munosib hissa qo'shdilar.

Ma'lumki, Sharqning G'arb yoki G'arbning Sharq madaniyati va adabiyotiga murojaat etishi o'zida Sharq-G'arb ma'naviy sintezini mujassam etgan madaniy jarayoning tarkib topishiga sabab bo'lgan. Bunday sintez dunyoning barcha xalqlari madaniyatiga xos xususiyat sanaladi.

² Конрад Н.И. Запад и Восток. – М.: Наука, 1972. – С.319.

Madaniy-adabiy aloqalardagi o'ziga xos an'analar, so'nggi yillarda O'zbekistonda kuzatilayotgan xalqaro aloqalardagi faollik qiyosiy adabiyotshunoslikka, xususan, o'zaro aloqlar hamda ta'sir nazariyasi, amaliyoti masalalariga jiddiy e'tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Turli shakldagi adabiy aloqalarni o'rganish tajribasi dunyo badiiy jarayonining birligi haqidagi konsepsiyani ishlab chiqish, «jahon adabiyoti» tushunchasiga aniqlik kiritish masalalari bilan uzviy bog'liqdir. Adabiyotshunoslikda yangi soha – qiyosiy adabiyotshunoslikning tarkib topganligini mana shu jarayonning mantiqiy yakuni deyish mumkin. Tarkib topgan davrdan boshlab ushbu sohaning vazifasi milliy adabiyotlar tarixiga oid manbalarni to'plash, ma'lum bir tizimga solish va faktik materiallarni umumlashtirish, adabiyotlarning bir-biriga o'zaro ta'siri muammolarini kun tartibiga qo'yishdan iborat bo'lib keldi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib adabiyotshunoslikning bir bo'limi sifatida to'la shakllangan adabiyotlarni qiyosiy o'rganish hozirgi zamон fanining ham obyektiv ehtiyojiga aylangan. Taniqli rus adabiyotshunosi akademik V.M.Jirmunskiy ta'biri bilan aytganda, «tarixiy holatlar o'rtasidagi o'xhash va farqli tomonlarni aniqlash va ularga tarixiy jihatdan baho berish har qanday tarixiy tadqiqotning shartli elementi hisoblanadi. Qiyoslash o'rganilayotgan holatning o'ziga xosligiga (individual, milliy, tarixiy) putur yetkazmaydi, aksincha, qiyoslash, ya'ni o'xhash va farqli jihatlarini aniqlash yordamida bu o'ziga xoslikni aniq belgilash mumkin bo'ladi».⁵ Lekin komparativistikaning tadqiqot yo'nalishi o'xhash va farqli jihatlarni aniqlovchi oddiy qiyoslash bilan birga ularni ilmiy va tarixiy jihatdan isbot qilishni ham o'z ichiga olishi kerak. Taniqli slovak komparativisti D.Dyrishin qiyosiy adabiyotshunoslikning tadqiqot obyekti yana ham keng qamrovli bo'lishi haqida

⁵Qaralsin: Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. Восток и Запад. Издр. труды. – М.: Наука, 1979. – С.77.

fikr bildiradi: «...o'xshashlik va farqli jihatlarni faqatgina adabiy yo'nalishlar, janr va janr ko'rinishlari doirasidagina emas, balki g'oyaviy-psixologik yo'nalish, personajlar tafsifi, kompozitsiya va syujet qurilishi, motivlar, obraz tizimi hamda badiiy asar asosini tashkil etuvchi komponentlarni nazarda tutgan holda ham tahlil etish kerak».⁴

Garchi filologyaning barcha sohasi o'z oldiga qo'ygan vazifalarni ado etish uchun qiyosiy tahlil vositalaridan unumli foydalansa-da, qiyosiy adabiyotshunoslikning boshqa sohalardan farqli tomoni shundaki, u tahlil usullari tizimini eng muhim, ahamiyatli deb hisoblaydi. Misol uchun, aynan qiyosiy adabiyotshunoslik fani «boqiy mavzular», «mangu obrazlar», «umuminsoniy», «sayyor syujetlar» kabi tushunchalarni to'laqonli atamalarga aylantirdi.

Mangu obrazlar insonga xos muhim ijobjiy yoki salbiy xislatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Jahon adabiyotida bunday obrazlarga Hotam Toyi, Nasriddin Afandi, Agasfer, Don Kixot, Hamlet misol bo'la oladi. Mangu obrazlar bir muallifdan boshqa muallifga o'tish xususiyatiga ega bo'lib, har safar yangidan yangi qirralari ochiladi.

«Sayyor syujetlar» xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan bo'lsa-da, bu hodisa yozma adabiyotda ham eng qadimgi zamonalardan buyon mavjud (masalan, ko'plab Yevropa xalqlari masallari Ezopga borib taqaladi yoki ota-bola o'rta-sidagi jang haqidagi syujetni Firdavsiyning «Shohnoma»sidagi Rustam va Suhrob, irland sagasidagi Kuxulin va Kon-lax, rus bilinasida Ilya Muromes va Sokolnichik jangi misolida uchratish mumkin).

Qiyosiy-tipologik adabiyotshunoslik sohasi ba'zi adabiyotlarda adabiyot tarixi tarkibiy qismiga mansub deb berilsa-da, lekin adabiyotni qiyoslab o'rganish nafaqat adabiyot tarixi sohasi, balki adabiyot nazariyasi, adabiy tan-

⁴Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литературы. – М.: Прогресс, 1979. – С.183.

qid, adabiyot metodologiyasi, bibliografiya, matnshunoslik, manbashunoslik, tarjimashunoslik va boshqa shu kabi sohalar uchun ham muhim ma'lumotlar beradi, ular bilan uzviy aloqador bo'ladi. Masalaga bu jihatdan yondashganda qiyosiy adabiyotshunoslikni adabiyotshunoslikning alohida bir yordamchi sohasi sifatida o'rganish maqsadga muvofiq. Adabiyotni qiyoslab o'rganish borasidagi dastlabki tadqiqotlar mifologik asarlar, folklor namunalari ustida bo'lganligi bois, balki, u adabiyot tarixiga mansub degan fikrlar yuzaga kelgan bo'lishi mumkin.

Adabiyotni qiyoslab o'rganish jarayonida 4 asosiy masala muhim muammo sifatida belgilanadi:

1. Ijodiy metod, adabiy oqim, yo'nalishlar, adabiy jarayonlar.
2. Adabiy tur va janrlar masalasi.
3. Ijodkorning uslubiy mahorat masalasi.
4. Badiiy asarning qiymati.

Demak, adabiyotni qiyosan o'rganish adabiyotshunoslik va uning deyarli barcha tarkibiy qismlariga (adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiyot metodologiyasi, bibliografiya, matnshunoslik, manbashunoslik, folklorshunoslik) oid bilim hamda ma'lumotlarga asoslanib ish ko'radi. Shu bois komparativist olim qiyosiy o'rganishga kirishishdan avval adabiyotshunoslik bo'yicha puxta bilimga ega bo'lmosq'i lozim.

Umuman olganda, milliy adabiyotlarning bir-biri bilan yaqin va mustahkam aloqada ekanligi hamda zamonaviy dunyoda madaniyatlarning globallashuvi sharoitida qiyosiy adabiyotshunoslik dolzarb sohaga aylandi.

Yuqoridaqlar asosida o'zbek tilida qiyosiy adabiyotshunoslik bo'yicha o'quv qo'llanmasiga bo'lgan talabdan kelib chiqib mazkur adabiyot yaratildi. Unda sohaning taraqqiyot bosqichlari, asosiy adabiy aloqa turlari, xususan, badiiy tarjimaning aloqa shakli sifatidagi vazifalari, qiyosiy tahlil masalalari yoritilgan.

Qo'llanmada O'zbekistonda komparativistika tarixi hamda Sharq va G'arb adabiyoti aloqalari tadqiqiga doir mavzularga ham keng o'rinn ajratilgan. Unga sohaning dunyoda tan olingan olimlari ilmiy-nazariy qarashlari asos qilib olindi. Mavzularni yoritishda asosan A.Dima, D.Dyrishin singari olimlarning ilmiy xulosalariga tayanildi.

Qo'llanma bakalavriat talabalari, magistrantlar uchun mo'ljallanganligini hisobga olib unda taniqli adabiyotshunoslarning sohaga oid adabiy-taqnidiy ishlardidan namunalar berish zarur deb hisobladik.

Qo'lingizdagи kitob qiyosiy adabiyotshunoslik bo'yicha o'zbek tilidagi dastlabki o'quv manbalaridan biri ekanligi bois uni takomillashtirish yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar uchun oldindan minnatdorchilik izhor etamiz.

KOMPARATIVISTIKANING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Ma'lumki, qiyosiy adabiyotshunoslikning rivojlanishi XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan bo'lib, fanning rivojlanishi va tarmoqlanishi natijasida hozirgi kungacha ham uzuksiz davom etmoqda.

U bosib o'tgan yo'lning umumlashtiruvchi qisqacha tavsifi nafaqat fan tarixi nuqtayi nazaridan zarur, balki asosiy yo'nalişlarining paydo bo'lishidan to hozirgi kungacha tadrijiy rivojlanishini kuzatish imkonini beradi.

Yevropa uyg'onish davrida qadimgi yunon va Rim silvatzsiyasiga bo'lgan katta qiziqish qiyosiy xususiyatga ega bir qator tadqiqotlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu davrda yunon va lotin yozuvchilarining asarlari qiyosiy o'r ganilgan tadqiqotlarda yunonlarning rimliklardan ustunligi, namuna bo'lganligiga alohida urg'u berildi. Ayniqsa, Vergiliy tomonidan Homerning epik san'atida qo'llanilgan qoidalar mutlaqlashtirilganiga e'tibor qaratildi. Ko'pgina ilmiy ishlarda Dante va Petrarkaning ijodi antik yozuvchilarining asarlari bilan qiyoslandi.

Klassitsizm davrida mumtoz an'analarga rioya qilgan holda o'ziga xos asarlar yaratishga, manbalarni esa o'rta asrlardan yoki bevosita o'ziga yaqin bo'lgan tarixdan olishga e'tibor qaratila boshlandi. Bunday yondashuv Pyer Kornelning «Sid» (1636) tragediyasi syujeti ispan manbalariga yaqin ekanligida namoyon bo'ladi. Ilk bor XII asrda paydo bo'lgan va ispan romanserolari hamda «Rodrigo haqida doston»da⁵ (XIV asr) yangilangan «Sid» mavzusiga XVII asr ispan teatrida (ayniqsa, Xuan de la Kueva va Lope de Vega asarlarida) qiziqish yana kuchaydi. Sid obrazining to'laqonli talqini Gilen de Castro pyesalarida aks ettirilgani uchun Kornel ularga murojaat qilgan. Dramaturg tanqidchilari, o'z

⁵ Ispan milliy qo'shiqlari turkumi.

xohish-istiklariga qarshi bo'lsa ham, ispan va fransuz dramaturgiyasini qiyoslashga majbur bo'lganlar.

XVIII asrda o'zga mamlakatlar adabiyoti va Yevropa adabiyoti tarixi bo'yicha umumlashtiruvchi asarlarga qiziqish ortdi. Chet el madaniyati yutuqlarini diqqat bilan kuza-tib borgan yozuvchilar orasidan, avvalo, «Falsafiy nomalar» (yoki «Ingliz nomalari») asarining muallifi Volterni eslab o'tish zarur. U o'zining Angliyaga surgun qilingani-ni ta'riflash barobarida fransuzlarni ingliz adabiyoti bilan tanishtiradi, aniqroq aytildigan bo'lsa, Britaniya orollari aholisining johillik nafasi kelib turuvchi odatlariga fransuz zeboligi, orastaligini qarama-qarshi qo'yib, fransuz tragediyalarining «dahshatli farslar muallifi» Shekspir asarlaridan afzalligini ta'kidlaydi. Italiyalik yozuvchi Lodoviko Antonio Muratori «Mukammal italyan poeziyasi haqida» (1706) asarida Yevropa she'riyatiga uyg'un birlikda baho beradi. Italiya adabiyotining ilk tarixchilaridan biri Franchesko Saverio Kvadrio 1752-yili «Poeziya tarixi va ongi» asarida provansal she'riyatning italyan adabiyotiga ta'siri ba'zi jihatlarini tahlil etadi. Nihoyat, Yevropa adabiyoti tarixi bo'yicha umumlashtiruvchi tadqiqot (1761) muallifi Deninni ham aytib o'tish mumkin.

Tafakkurni hissiy tajribadan ajratib qo'yadigan va aqlni bilishning birdan bir manbai deb hissoblaydigan ma'rifatparvarlik davrida oqim qiyyosiy-tarixiy tadqiqotlarning rivojlanishiga keng yo'l ochib bermas edi. Faqat XVIII asr poyoniga kelib adabiyotshunos Lagarp va tarixchi Mar-montelning sa'y-harakatlari bilan sekin-asta komparativistika bo'yicha tadqiqotlar uchun maqbul muhit shakllandi. Bu davrda madaniyatning tarixiy konsepsiyasini asoslashga qaratilgan, o'z navbatida, qiyyosiy tadqiqotlar uchun ham juda katta xizmat qilgan Gerderning (1844 – 1803) asarlari paydo bo'ldi.

XIX asrning birinchi yarmida 1789-yilgi Buyuk fransuz inqilobi va Napoleon urushlari ta'sirida siyosiy, ijtimoiy va

madaniy sohalar jadal rivojlandi. Bu, o'z navbatida, davrning moddiy va ma'naviy qadriyatlari bilan ayriboshlash uchun ijobjiy sharoit yaratdi. Buyuk nemis shoiri I.V.Gyote madaniyat tarixida yangi sahifani ochib berdi va «Weltliteratur» paydo bo'lishining ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tdi.

Tadqiqotlarda shu tarzda chet el adabiyotini o'rganishga qiziqish kuchayib bordi va ikki yo'nalishdagi ma'rifatparvarlik konsepsiysi ruhida milliy adabiyotlardagi umumiylikni hamda romantizm ta'sirida shakllangan adabiyotlar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlashga asoslangan nuqtayi nazarlar ustunlik qildi.

Bu paytda nemis adabiyotshunosligi asoschilari aka-uka Shlegellar antik davrdan yangi zamongacha qamrab olgan umumjahon adabiyoti tarixini yaratishga harakat qildilar. Fridrix Shlegel Vena universitetida o'qigan mashhur ma'ruzalarida (1812)⁶ umumjahon adabiyotining keng manzarasini ta'riflab bergen bo'lsa, uning akasi Avgust Vilgelm nemis kitobxonlari diqqatini Shekspirga, italyan, ispan, portugal she'riyatiga qaratdi va Fridrix bilan birgalikda romantizm maktabining nazariy asoslarini yaratdi.⁷ Antik madaniyatni chuqur his qilish, o'rta asrlar va uyg'onish davri yodgorliklarini o'rganish, klassitsizm va ma'rifatparvarlik adabiyotiga tanqidiy yondashish adabiyotga bo'lgan aniq talablarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi.

Romantik mакtabning tarafdori bo'lman Fridrix Boutervek⁸ italyan, ispan, fransuz, portugal poeziyasi va notiqlik san'atining XIII asrdan XIX asrgacha bo'lgan davrdagi manzarasini tasvirlab berdi. Bu o'rinda Jermina de Stal (1766 – 1817) Fransiya va butun G'arb dunyosini deyarli notanish bo'lgan «Bo'ron va tazyiq», klassitsizm va romantizm davri

⁶ Schlegel Fr. Geschichte der alten und neuen Literatur. – Viena, 1812.

⁷ Schlegel A.W. Blumensträusse italienischer, spanischer und portugesischer Poesie. – Viena, 1804.

⁸ Bouterwek Fr. Geschichte der Poesie und Beredsamkeit seit dem Ende des XIII-e Jahrhunderts, 1801 – 1819.

Germaniyasi bilan tanishtirganligi muhim o'rin tutadi. U mohiyatan romantik bo'lgan Shimol adabiyotini klassitsizmning markazi bo'lgan Janub adabiyoti bilan qiyoslab, nemis adabiyotining o'ziga xos jihatlari: individualizm, metafizika tamoyillariga asoslanish, mustaqillik ruhini aniqladi va o'quvchilarni davrning ko'zga ko'ringan vakillari – Viland, Vinkelman, Lessing, Gyote va Shiller bilan tanishtirdi. U har tomonlama romantizmni ulug'lab, Napoleon davri Fransiyasini Germaniyaga qarama-qarshi qo'yadi.

XIX asrning boshlaridayoq adabiy va madaniy hodisalarini tarixiy-qiyosiy nuqtayi nazardan anglashga intilish, har tomonlama bilimdonlik ruhi bilan yo'g'rilgan asarlarни yozish keyinchalik komparativistika fani paydo bo'lishi uchun qulay zaminni tayyorlab berdi.

Bu paytda, shuningdek, komparativistikaning tarixiy fan sifatida shakllanishi uchun ham qulay sharoitlar paydo bo'lди.

Bunda, birinchi navbatda, Fransua Gizo va Ogyusten Terri asos solgan tarix fanining o'zi nazarda tutiladi. Ularning XIX asrning 30 – 40-yillarda yaratilgan Fransiya va Yevropa tarixi bo'yicha keng ko'lamdagи ilmiy tadqiqotlarida tarixning ijtimoiy-siyosiy jihatlariga asosiy e'tibor qaratildi.

XIX asrning boshlari ijtimoiy tarix bilan bir vaqtida adabiyot tarixi va adabiy tanqid shaklidagi adabiyot haqidagi fanning shakllanishi davri ham bo'lди. Notiqlik san'atining mashhur nazariyotchisi, Sorbonna universiteti professori Abel Fransua Vilmen (1822) fransuz adabiyoti tarixi bo'yicha ma'ruzalari bilan nom qozondi (1828 – 1829), keyinroq (1846) u antik davr va chet el adabiyotidan amalga oshirilgan tadqiqotlarida qiyoslash metodidan keng foydalandi, ayniqsa, bu O'rta yer dengizi bo'ylarida yashovchi latin xalqlari adabiyoti tadqiqotida yaqqol namoyon bo'lди. U o'z tadqiqotlarini Italiya she'riyatiga, ayniqsa, Dante asarlariiga hamda ispan epik adabiyotiga bag'ishladi. Bunda u, albatta, asar yaratilgan davrga murojaat qildi. Shu bois

Vilmenni tarixiy adabiy tanqidning asoschisi deb hisoblash mumkin. Uning zamondoshi Jan-Jak Amper, keyin Filaret Shal va Edgar Kine ham qiyosiy-tarixiy tadqiqotlar o'tkazdilar. Shu o'rinda Sent-Byov ham yozuvchilar haqidagi tadqiqotlarida ularga ta'sir ko'rsatgan omillarga e'tibor qaratdi. Aytish joizki, «qiyosiy adabiyotshunoslik» atamasi ham birinchi marta ularning tadqiqotlarida qo'llanilgan. Misol uchun, Filaret Shal o'z izlanishlarining samarasi bo'lgan yigirma jildlik «Qiyosiy adabiyotshunoslik bo'yicha tadqiqotlar»ini (1847 – 1864) chop ettirdi. Demak, yuqorida ko'rsatib o'tilgan tadqiqotchilarni birinchi komparativistlar deb hisoblashimiz uchun barcha asoslarimiz bor, garchi u paytlarda fanning aniq metodologiyasi bo'lmasa ham, chunki u asr oxirida paydo bo'ldi. Garchi bo'lajak fan haqidagi umumiy tasavvurga ega bo'lsalar-da, ular muboshir-tashabbuskorlar bo'lib qoldilar va asosan turli adabiyotlar sohasidagi tarqoq bilimlarni jamlash bilan shug'ullandilar.

Yevropada qiyosiy-tarixiy metodning shakllanishida germaniyalik aka-uka Grimmlar – Vilgelm va Yakobning alohida o'rni bor. Ularning «Nemis mifologiyasi» kitobida mifologik maktabning nazariy qarashlari bayon etilgan. Tadqiqotlarida hind-yevropa xalqlari folklorini qiyosiy tahlil etib, ular o'rtasidagi o'xshashlik yagona ildizga borib taqaladi deb xulosa qilganlar. Aka-uka Grimmlar fikricha, qadimgi oriy qabilalarining o'tmishidagi mifologik tasavvurlari keyinchalik mazkur qabilalarning dunyo bo'ylab tarqalishi natijasida o'zining dastlabkisi ma'nolarini yo'qotib, ertak-afsonaga aylanadi. Madaniy hodisalarning, hududlarning uzoq va yaqinligiga qaramay, bir xilda takrorlanishi mifologik maktab vakillarini ularning kelib chiqishi (genezisi) yagonadir degan yanglish xulosalarga olib keldi. Keyinchalik ular ilgari surgan fikrlar rad etilgan bo'lsa ham, to'plangan yirik faktik material, uning ta'siri, eng asosiysi, undan kelib chiqadigan nazariy umumlashmalar keyingi davr adabiyotshunosligining rivojiga samarali ta'sir

etdi.⁹ 1859-yili nemis olimi Frans Noel Benfey hind eposi «Panchatantra»ning nemis tiliga qilgan tarjimasiga yozgan kirish so'zi orqali sohaning nazariy masalalariga e'tibor qarattdi. Unda Benfey asarlarining bir-biriga yaqinligi, syujet yo'nalishlaridagi o'xshashliklarning sababi faqatgina yagona mif yoki mifologik manba bo'lmay, «sayyor syujet» hodisasi bilan ham bog'liq degan g'oyani ilgari suradi. Ya'ni badiiy asarlar bir xalqdan boshqasiga o'tishi mumkin. Benfeyning bu fikrlari tarixiylik nuqtayi nazaridan cheklanganiga qaramay, adabiyotshunoslikda «syujetlar ko'chishi» deb atalgan yo'nalishning shakllanishiga asos bo'ldi.

XIX asrning birinchi choragidayoq Shveystsariyada qiyosiy tadqiqot tarafdarlarini qo'llab-quvvatlaydiganlar bor edi. Janubiy Yevropa adabiyotlari bo'yicha asar muallifi Sismondining ortidan qiyosiy huquqshunoslik bo'yicha yirik mutaxassis Yozef Gornung Lozannaga qiyosiy adabiyotshunoslikdan ma'ruzalar o'qishga taklif qilindi (1850). Jeneva universitetida XIX asrning ikkinchi yarmida Rishar, Mone va Rod singari taniqli komparativistlar faoliyat ko'rsatdilar. Italiyalik olimlar ham asr boshlarida ushbu fanni rivojlantirishga hissalarini qo'shdilar.

Ular orasidan birinchi bo'lib birmuncha muddat Pavian universitetining nutq san'ati professori bo'lib faoliyat yuritgan Nikkolo Ugo Foskoloni aytib o'tish kerak, u «Adabiyotning kelib chiqishi va uning funksiyalari» (1809) mavzuyida kirish ma'rzasini o'qidi, unda qiyosiy adabiyotshunoslikning bir qator muammolariga to'xtalib o'tdi. Keyinroq, 1829-yili, u bo'lajak Yevropa adabiyoti masalasiga murojaat qildi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik bu paytga kelib qiyosiy tahviliga murojaat qila boshlagan boshqa fanlardan ham ijodiy turkti oldi. Bu hattoki tabiiy fanlarda ham sodir bo'ldi: Jorj Kyuve¹⁰ qiyosiy anatomiya bo'yicha ma'ruzalar o'qidi (1800

⁹ Эшонбоев А. Қиёсий-тарихий метод ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008. №4. – Б.38.

¹⁰ Fransuz tabiatshunos olimi, qiyosiy anatomiya va paleontologiya asoschisi.

– 1805). «Qiyosiy adabiyotshunoslik» atamasi ham, aslida, J.Kyuvenering «Qiyosiy anatomiya» terminiga hamohang ravishda paydo bo'lgan.

XIX asrning 30-yillarida qiyosiy adabiyotshunoslik bilan bir vaqtida qiyosiy fiziologiya, qiyosiy embriologiya, ijtimoiy fanlardan esa qiyosiy mifologiya, keyinroq qiyosiy lingvistika (Forel, aka-uka Grimmlar, Dits va Boppning asarlari) sezilarli darajada rivojlandi.

Qiyosiy adabiyotshunoslikning shakllanishiga tarixiy sharoitning o'zi, ya'ni XIX asrgacha rivojlanib borgan xalqaro adabiy aloqalarning rivoji hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi. Bu aloqalarning tadrijiy rivojlanishida, A.Dimaning fikriga ko'ra, uchta katta bosqich ko'zga tashlanadi: birinchisi o'rta asrlar adabiyoti bo'lib, adabiy umumiylilik ma'lum darajada diniy birlik, umumiylar folklor va madaniyatga asoslanadi. Ikkinci bosqich Yevropa uchun umumiylilik bo'lgan antik meros va davrning umumgumanistik g'oyalari asosiga qurilgan. Nihoyat, uchinchi bosqich fransuz tili va madaniyati asosida shakllangan ma'rifatparvarlik davridir.

XIX asrning ikkinchi yarmida, aniqroq aytadigan bo'lsak, 70 – 90-yillarda qiyosiy adabiyotshunoslikning jadal rivojlanishi ko'zga yaqqol tashlandi. Fransiyada o'zaro ta'sir masalalariga bag'ishlangan bir qator asarlar paydo bo'ldi. Olimlar birinchi o'rinda roman-german adabiy aloqalariiga, xususan, Dante va Shekspir asarlarining Germaniyada tarqalishi, Angliya, Germaniya, Italiya va Fransiya o'rtasidagi o'zaro adabiy aloqalarga e'tibor qaratdilar. Shu bilan birga, an'analarning bir avlod ijodkorlaridan keyingilariga o'tish masalalariga bag'ishlangan, ayniqsa, Gyote, Bayron, Mitskevich ijodi bilan bog'liq tadqiqotlar paydo bo'ldi. Bir vaqtning o'zida Georg Brandesning birinchi umumlashtiruvchi tadqiqoti – «XIX asr Yevropa adabiyotining asosiy oqimlari» chop etildi. Uning 1872 – 1890-yillar oralig'iда chiqqan olti jildlik asari oldin daniyaliklar tilida, keyin nemis va boshqa Yevropa tillarida nashr qilindi.

1880-yillarga kelib nazariy umumlashma shaklidagi birinchi so'zboshilar va maqolalarning paydo bo'lishi qiyosiy adabiyotshunoslik fan sifatida mavjudligining nishonasi edi. 1886-yili ingliz olimi Xetchison Poznettning jahon adabiyoti ma'lumotlariga asoslangan «Qiyosiy adabiyotshunoslik» kitobi chop etildi. Muallif o'xhash ijtimoiy sharoitlarda shakllangan adabiy janrlarning paydo bo'lishi qonuniyatini ishlab chiqishga harakat qiladi. X.Poznett yunon-lotin tamadduniga yuksak ehtirom bilan qarasa ham, hodisalarni qiyoslashni yanada kengaytirish maqsadida Yevropadan tashqarida joylashgan Meksika, Xitoy, Hindistonni ham tadqiqot doirasiga tortadi. Shu davrlardan Jenevada adabiyotning qiyosiy tarixi bo'yicha ilk ma'ruzalar o'qila boshladi, 1886-yili Germaniyada Maks Kox tomonidan «Zeitschrift für vergleichende Literaturgeschichte» («Adabiyotning qiyosiy tarixi jurnali») chop etildi va 1910-yilgacha muntazam chiqib turdi. Noshirning ilmiy konsepsiysi ishlab chiqarilishi ta'minlangan maqolalar jurnalni komparativistik tadqiqotlarni o'zaro muvofiqlashtiruvchi markazga aylantirdi. Aynan shu yillarda Angliyada ispan va italyan adabiyotining ta'siriga, Italiya va Germaniyada fransuz ta'siriga bag'ishlangan bir qator maqolalar paydo bo'ldi.

Shu o'rinda turli mamlakatlarda komparativistikaning o'ziga xos dalil va unsurlari paydo bo'lganligi kuzatilar ekan, Fransiya – ushbu fanning vatani degan qat'iy fikr bildirishdan yiroqmiz. Lekin aynan Fransiyada ushbu fan mustaqil hodisa sifatida shakllangani va o'zining asosiy shakl-shamoyili, maqsad, vazifa va prinsiplariga ega bo'lganligini ta'kidlash lozim. Taniqli komparativistlarning asarlari ham mana shu zaminda paydo bo'ldi. Hatto ushbu fanning nomlanishi ham fransuz tilidagi «literature comparée» atamasidan (o'zbek tilida «qiyoslanayotgan adabiyot») olinganligi bejiz emas. Ko'rinish turibdiki, «adabiy komparativistika» atamasining etimologiyasi fransuz

originaliga yaqin. Ushbu atama ilk bor 1817-yili F.Noel tomonidan muomalaga kiritilgan. Mutaxassislarning fikri-cha, ushbu sohaning paydo bo'lishida J-J.Amper, A.Vilman va F.Shalning xizmatlari katta bo'lgan. Adabiy ta'sir g'oya-si va qiyosiy adabiyotshunoslik konsepsiyasini targ'ib qiliш va ommalashtirishda taniqli fransuz munaqqidi Sent-Byovning (1804 – 1869) hissasi beqiyos.

XIX asr oxirlari – 1890 – 1891-yillarda Ferdinand Bryu-neter qiyosiy adabiyotshunoslik kursini oliv o'quv yurti dasturiga kiritishi natijasida XX asr boshlarida Lion, Parij, Strasburgda, keyinchalik Fransiyaning bir qator yirik sha-harlarida qiyosiy adabiyotshunoslik kafedralari ochildi. Jozef Tekst Fransiyada (Lion) qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasining birinchi professori bo'lди.

1921-yili Fernan Baldensperje «Adabiy komparativisti-ka va predmet» nomli tadqiqotini chop ettirish bilan birga Pol Azar bilan hamkorlikda «Revue de littérature comparée» jurnaliga asos soldi. Shuni ta'kidlash kerakki, Birinchi ja-hon urushidan keyin bir guruh komparativist olimlar yangi fanga xos bo'lgan insonparvarlik va baynalmilalchilikni targ'ib qildilar. Ushbu xatti-harakatlar Yevropada tinchli-kni o'rnatish davri uchun dolzarb bo'lib, qiyosiy adabiyot-shunoslikning nufuzini oshirishga xizmat qildi.

1931-yili Pol van Tigemning Parijda «Qiyosiy adabiyot-shunoslik» asari nashrdan chiqdi va u ko'p yillar komparativistlarning asosiy qo'llanmasiga aylandi. Unda «ta'sir» tushunchasi qiyosiy adabiy tadqiqotlarning asosini tashkil etishi alohida ta'kidlanadi.

Ikkinchi jahon urushi yillari davri gumanitar fanlar uchun turg'unlik yillari bo'lgan bo'lsa, keyinchalik madani-yat va adabiyot sohasida xalqaro aloqalarni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortdi. Moris Gyuyarning 1951-yili chop etilgan «Qiyosiy adabiyotshunoslik» darsligida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 1930 – 1950-yillar oraliq'ida birgina Sorbonna universitetida adabiy komparativistika bo'yicha

200 dan ortiq dissertatsiya himoya qilingan. 1954-yili qiyosiy adabiyotshunoslikning fransuz milliy jamiyatiga asos solinganligi va uning tarkibida fransuz qiyosiy adabiyotshunosligi maktabi nufuzini oshirishga katta hissa qo'shgan Moris-Fransua Gyuyar, Rene Etembl, Jan-Mari Karre kabi taniqli olimlarning borligi muhim ilmiy voqeа hisoblanadi.

Shu o'rinda bu davrda jahon maydonida Amerika komparativistika maktabi paydo bo'lib, o'z pozitsiyalarini mustahkamlay boshlaganligini ta'kidlash lozim. Amerika komparativizmining ko'zga ko'ringan vakili Rene Uellek Yevropa olimlarini adabiy ta'sirlarni tadqiq etishda komparativistikani adabiyot tarixiga sun'iy ravishda bog'lashda, faktoografiyaga ortiqcha urg'u berishda, nihoyat, pozitivizmga berilib ketishda aybladi. Amerikalik mutaxassislarning ana shu singari jiddiy va asosli dalillari fransuz olimlarini o'z qarashlarini o'zgartirishga majbur qildi.

Rene Etembl «Qiyoslash dalil emas» (1963) kitobida komparativistikada mavjud bo'lган ba'zi salbiy holatlarni, xususan, ushbu fan G'arbiy Yevropa adabiyoti qobig'iga o'ralib qolib, boshqa qit'alar adabiyotlarining taraqqiyotini hisobga olmaganligini ko'rsatib o'tadi. Shu bilan birga, muallif tarihiy-adabiy yondashishning tor doirasi komparativizm rivojiga to'sqinlik qilayotgani xususida ham mulohaza yuritadi. Shuning uchun «Qiyoslash dalil emas»dan keyin G'arb matbuotida vaqtiga-vaqtiga bilan komparativistikaning inqirozi haqidagi tadqiqotlar e'lon qilinib turganligi ham bejiz emas edi.

Ma'lumki, Rene Etembl komparativistikaning turli muammolarini adabiyot tarixi va adabiyot nazariyasi bilan bog'lar ekan, «adabiyot nazariyasi» atamasini «qiyosiy poetika» tushunchasi bilan almashtirishni taklif etgan va turli sivilizatsiyalar tajribasiga asoslangan qiyosiy tadqiqotlar dasturini e'lon qilgan.

Rene Etemblning ushbu dasturi ko'plab bahs-munozaralar va talqinlarga sabab bo'ldi. Adabiy shakllar va

janrlar tarixini qiyosiy o'rganish prinsiplarini qo'llab-quvvatlab kelgan germaniyalik nazariyotchi X.R.Yauss (1921 – 1997) poetika, ritorika va qiyosiy estetika konsepsiyasini asoslab beradi. Keyinchalik «retseptiv estetika» g'oyalari Germaniya, Chexoslavakiya, AQSh komparativistlari tomonidan ham qo'llab-quvvatlandi va tan olindi.

Konstansa universiteti professorlari Robert Yauss va Wolfgang Izer tomonidan ilgari surilgan retseptiv estetika yo'naliishi XX asrning 70-yillarida katta qiziqish bilan kutib olindi. Retseptiv estetika o'quvchi (kitobxon) va badiiy matn munosabati asosiga qurilgan. V.Izer badiiy asarni o'quvchi va muallifning tasavvurlari to'qnashadigan maydonga qiyoslaydi. Badiiy matnning kuchi va imkoniyati har qanday individual talqinlardan ustun turadi. Shu bois matn qayta o'qilganda avvalgisiga nisbatan o'zgacha taassurot uyg'otadi. Ko'p hollarda buning sababini V.Izer o'quvchi shart-sharoiti, holatining o'zgarishi bilan izohlaydi. R.Yauss fikricha, matn har bir o'quvchining hayot tajribasidan kelib chiqib turli fikr va emotsiyalarni paydo qiladi. O'quvchi tasavvura paydo bo'lgan obraz va tushunchalar muallif tomonidan nazarda tutilmagan bo'lishi mumkin. Asarning yagona talqini mavjud emas. Tarixning turli davrlarida matn mazmuni yangi talqinlarga ega bo'lib boraveradi. Natijada yozuvchi doimo har bir o'quvchini tasavvurlar o'yiniga taklif etadi. Kitobxon nazarining asar mohiyatini ochib berishdagi ahamiyati haqidagi g'oya avvalroq A.Potebnya tomonidan ilgari surilgan edi. Retseptiv nazariya elementlari Arasttu, Lessing, Shiller estetikasida ham uchraydi. Retseptiv estetika italiyalik Umberto Ekoning semiotika nazariyasiga ham yaqin bo'lib, olimning fikricha, badiiy asar o'quvchi va adabiy tanqidchi uchun yangi va yangi ma'no ochishning imkoniyati hisoblanadi.

Umuman, amerikalik mutaxassislar bilan bo'lgan bahsmunozaralar fransuz komparativistlariga o'zining samarali ta'sirini ko'rsatganligi bois ular nazariy masalalarga

ko'proq e'tibor qarata boshladilar. 1967-yili Klod Pishua va Andre-Mishel Russoning «qiyosiy adabiyotshunoslik» kitobi komparativistika yangi, yuqori darajaga ko'tarilganligini tasdiqlaydi: «Ushbu tadqiqotning ulkan ilmiy ahamiyatini ta'riflash qiyin. Kitobning ko'plab tillarga tarjima qilinganligi uning bu sohada faqat Fransiyadagi bo'shliqni to'ldirishga xizmat qilmaganligidan dalolat beradi». Shuning uchun «Qiyosiy adabiyotshunoslik» asarini komparativizmning mohiyatini batafsil olib beruvchi manba sifatida qabul qilish mumkin. M.Russoning yozishicha, «Qiyosiy adabiyotshunoslik metodologik san'at bo'lib, u analogiya, qarindoshlik va ta'sirlar o'rtasidagi aloqalarni izlaydi. U adabiyotni bilim va ifodalashning boshqa yo'naliishlari bilan yaqinlashtirishga urinadi yoxud zamon va makon nuqtayi nazaridan bir-biriga yaqin yoki uzoq bo'lgan adabiy hodisalar va matnlarni qiyoslash bilan shug'ullanadi. Bunda muqoyasa qilinayotgan tomonlar yaxshiroq bayon qilish, tushunish va o'zlashtirish uchun turli tillar yoki madaniyatlarga taalluqli bo'lishi, imkoniyat darajasida bir xil a'analarga ega bo'lishi kerak».¹¹ Ushbu ixcham, lekin mazmundor ta'rifa komparativ uslubiyatning asosiy mohiyati aks etgan va uning adabiyotdan tashqari kino, tasviriy san'at, musiqa, foto, video, kompyuter singari ifoda va bilim sohalari bilan aloqalari tadqiqot obyekti qilib ko'rsatilgan. Zamonaviy tadqiqotchi Iv Shevrel esa fan mohiyati haqida «qiyosiy adabiyotshunoslik matnlar yig'indisi emas, balki adabiyotni o'rganish istiqboldir»¹² degan xulosaga keladi.

Qisqa sharhdan ma'lum bo'lishicha, qiyosiy adabiyotshunoslikning Fransiyadagi rivoji progressiv ahamiyatga ega bo'lib, uning faoliyati adabiy aloqalarni o'rganishning optimal usul va shakllarini tatbiq etishga yo'naltirilganligi bilan e'tiborga hamda o'rganishga loyiqidir.

¹¹ Pichois C., Rousseau A.-M. La literature comparée. – Paris: Colin, 1967. – P.174.

¹² Chevrel Y. La literature comparée. – Paris: PUF, 1995. – P.7.

Ferdinand Bryuneterning Oliy pedagogika maktabida (Ecole Normale Supérieure) o'qigan ma'ruzalari va «Revue de deux mondes» jurnalida chop etilgan maqolalari bilan qiyosiy adabiyotshunoslikni rivojlantirishga qo'shgan hissasini alohida ta'kidlash kerak. U jahon adabiyotida sodir bo'layotgan hodisalarни keng qamrovli tahlil qilishni va Yevropa adabiyoti taraqqiyotini shu yo'l bilan belgilashni yoqlab chiqdi.

Bryuneterning g'oyalari uning shogirdlari asarlarida o'zining aniq ifodasini topdi, ayniqsa, bu borada o'zining ko'plab ilmiy tadqiqotlari bilan nom qozongan, Lion universiteti qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasining birinchi professori Jozef Tekst samarali ishlarni amalga oshirdi. U qiyosiy adabiyotshunoslikning kelajagi haqida «Men qiyosiy adabiyotshunoslik, Yevropa adabiyotshunoslaringning kelajagiga ishonaman. Germaniyada Brandes, Maks Kox, Erix Shmidt, Angliyada X.Poznett yangi yo'nalishni boshlab berdilar va biz ularning ishlarini izchil davom ettiramiz» degan fikrlarini bayon qildi. Darhaqiqat, aynan J.Tekst yosh fanning tarixidagi birinchi yirik nazariy tadqiqotni amalga oshirdi va 1895-yili «Russo va adabiy kosmopolitizmning manbai» kitobini chop ettirdi. Shundan keyin Peti de Jyulvilning fransuz adabiyotiga o'zga adabiyotlarning ta'siriga bag'ishlangan risolasidan boblar (1896 – 1900), Lui Pol Betsning bibliografiyasini nashrdan chiqdi. J.Tekst bilan yaqin hamkorlikda faoliyat ko'rsatgan Bets 1895-yili «Hayne Fransiyada» dissertasiyasini yozdi. Ko'plab komparativistik tadqiqotlarning muallifi bo'lgan Betsning ulkan xizmatlaridan biri 1904-yilga kelib 6000 ta nom kiritilgan metodik bibliografiyasini bo'lib qoldi. Uning ishini davom ettirgan F.Baldansperje 1904-yili o'zinig mashhur «Gyote Fransiyada» nomli tadqiqotini chop ettirdi. Shu kabi jarayonlar Italiyada ham bo'lib o'tdi. Arturo Farinelli, Flamini va boshqa olimlar Ispaniya, Germaniya va Italiya adabiy aloqalariga bag'ishlangan keng ko'lamli tadqiqotlarni amalga oshir-

dilar. XIX asrning so'ngida qiyosiy adabiyotshunoslikning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan yana ikkita ahamiyatli hodisa sodir bo'lди.

Bulardan birinchisi adabiy kosmopolitizm¹³ va uning milliy o'ziga xoslik masalasiga bo'lgan munosabati bilan qizg'in muhokamalarga sabab bo'lди va ularda, garchi komparativistikaga katta ilmiy hissa qo'shmagan bo'lsalar-da, Jyul Lemetr va Emil Fage ham ishtirok etdilar, bu esa, o'z navbatida, qiyoslash faniga bo'lgan qiziqishni yanada oshirdi. Ikkinchisi Gaston Paris va F.Bryuneter rahbarlik qilgan tarixiy-qiyosiy adabiyotshunoslik shu'basi Parijda bo'lib o'tgan birinchi jahon ko'rgazmasi munosabati bilan qiyosiy tarix bo'yicha Xalqaro kongressning faoliyatida ishtirok etishi edi.

XX asrning ilk yillardan boshlab qiyosiy adabiyotshunoslik o'z tadqiqotlari maqsadini aniq belgilab va ularni amalga oshira borib tez sur'atlarda rivojlandi. Bunga fransuz filologik va tarixiy maktablarining asoschisi, taniqli olim Gyustav Lansonning (1857 – 1934) tarixiy-adabiy, ilmiy tadqiqotlarida qo'llagan yangi metodlar ham ijodiy ta'sir ko'rsatdi. Uning Oliy pedagogik maktab va Sorbonnada o'qigan ma'ruzalarida, maqola va kitoblarida, ayniqsa, «Fransuz adabiyoti tarixi»da (1894), bir tomondan, Sent-Byov va Tenning, ikkinchi tomondan, Bryuneterning adabiy merosiga yangicha yondashilgan. Yevropa adabiyoti tarixida birinchi bo'lib ma'lumotlarni sinchiklab tekshirish, ularning jiddiy asosga ega bo'lishi va xilma-xil bo'lishi, asarlarni davrning tarixiy-madaniy fonida ko'rib chiqish, ularni ijtimoiy hayot bilan bog'lash kabi yangi metodologik tamoyillar qo'llanildi. XIX asrning oxiridan to Bede

¹³ Kosmopolitizm – dunyo fuqarosi bo'lish g'oyasi. Bunda butun insoniyat manfaatlari alohida millat va davlat manfaatlardan yuqori qo'yiladi. Bu borada fransuz sayo-hatchisi va yozuvchi Fujere de Monbronning 1750-yili nashr etilgan «Kosmopolit yoki dunyo fuqarosi» romani tilga olinadi. Unda «dunyo kitobga o'xshaydi, agar kim faqat o'z yurtini bilsa, demak, u kitobning faqat birinchi sahifasini o'qibdi» degan mantiqiy xulosa chiqarilgan.

va Azarning asarlarigacha yozilgan ko'plab risola va o'quv qo'llanma mualiflari Abri, Odik va Kruze, Granjar, Morne Lanson tomonidan tatbiq qilingan yo'ldan borgan edilar. Tabiiyki, qiyosiy adabiyotshunoslik 1910-yildan keyingi izlanishlarida Lanson metodologiyasidan foydalandi.

Keyinchalik ularning ishini Fernan Baldansperje (1871 – 1958) davom ettirdi. Uning «Gyote Fransiyada» nomli dis-sertatsiyasi Yevropa komparativistlari diqqatini o'ziga jalb qildi. U 1907 – 1939-yillar mobaynida «Adabiyotlar tarixi bo'yicha tadqiqotlar» asari ustida ishladi, 1924-yili esa «1789 – 1815-yillar fransuz emigratsiyasida g'oyalar harakati» kitobini nashrdan chiqardi. Ularda chet el adabiyotining fransuz adabiyotiga ta'siri masalasi yoritilgan. Lion universiteti va Sorbonna professori bo'lgan Baldansperje Yevropa qiyosiy adabiyotshunosligi g'oyalarining eng faol targ'ibotchilaridan biri edi. Uning ilmiy asarlari ham nazariy, masalan, «Qiyosiy adabiyotshunoslik: nomlanish va narsa» (1921), ham amaliy muammolarga bag'ishlangan. Bundan tashqari, u 1921-yildan P.Azar bilan hamkorlikda «Revue de littérature comparée» jurnalini chop ettirishni boshladi. Jurnal hozirda ham Fransuz ilmiy tadqiqotlar milliy markazi yordamida o'z faoliyatini davom ettirmoqda.

Fransuz komparativizm maktabining boshqa yirik vakili Pol Azar (1878 – 1944) edi. Sorbonna va Kollej de Fransning qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasini taniqli professori bo'lgan olim asosan Fransiya va Italiya o'rtaсидagi adabiy, madaniy va siyosiy aloqalar masalalari bilan shug'ullangan.

P.Azar keyingi «Yevropa ongingin inqirozi» asarida an'anaviy diniy e'tiqodlar bilan kurashni, yangi nazariyalarni yaratishga bo'lgan intilishlarni, nihoyat, odamlar psixologiyasidagi o'zgarishlarni tahlil qiladi.

Asarning ahamiyati shundaki, unda Yevropa madaniyatining umumiy holati, fransuz komparativizmi maktabining eng yaxshi an'analari ruhida yoritilgan. Shu maktab doirasida P.Azardan keyin Lansonning g'oyaviy shogirdi bo'lgan

va 1931-yildan keyin Sorbonnaning eng ko'zga ko'ringan professori bo'lgan Paul van Tigemning nomini aytib o'tish joiz. Uning «Ossian Fransiyada» nomli dissertatsiyasi chet el adabiyotining fransuz adabiyotiga ta'siriga bag'ishlangan. 1924-yili van Tigem Yevropadagi adabiy jarayonlarni kengroq o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarga kirishdi. Bungacha u asosan nazariy muammolar bilan shug'ullangan bo'lib, turli jurnallarda «Qiyosiy adabiyotshunoslik tushunchasi» (1906), «Adabiyot tarixida sintez», «Qiyosiy adabiyotshunoslik va umumjahon adabiyoti» (1920) kabi maqolalarini chop ettirgan edi. Uning predromantizmni sintetik tarzda tadqiq qilish usuli ko'plab olimlarning e'tiborini jalg etdi.¹ Shu paytlarda u o'zining 1940-yili chop etilgan «Yevropa va Amerika adabiyotining uyg'onish davridan hozirgi kunlargacha bo'lgan tarixi» kitobi ustida ish boshladi. Unda rivojlanishning muayyan davrida paydo bo'lgan buyuk adabiy oqimlar va ularning bir paytning o'zida Yevropaning bir necha mamlakatlarida sodir bo'lishi sabablari tahlilga tor tilgan. Ushbu asar o'z vaqtida katta shuhrat qozondi.

1928-yili van Tigemning adiblar haqida muhim ma'lumotlar, asarlaridan parchalar keltirilgan, ularning g'oyaviy-badiiy tahlili berilgan «Buyuk chet el adiblari» kitobi nashr dan chiqqan edi.¹⁴ Keyin «Yevropa adabiyotida romantizm» (1948) kitobi va bir qator maqolalari, jumladan, Shekspir ning Yevropada kashf etilishi haqidagi maqolalari chop etildi. Uning qiyosiy adabiyotshunoslik bo'yicha darsligi (1931) 1951-yilgacha to'rt marta qayta nashr qilindi.

Italiyada qiyosiy-adabiy tadqiqotlar 1900-yildan keyin ham yuksak bilimdonlik bilan davom ettirildi (masalan, Y.Maddalenning 1906-yili nashrdan chiqqan Lessing va Goldonining ijodiy aloqalariga bag'ishlangan tadqiqotlari).

Italiyalik eng yirik tadqiqotchi yuqorida ta'kidlab o'til gan Arturo Farinelli bo'lib, u boshqa asarlari qatori «Ro-

¹⁴ Paul van Tieghem. Le préromantisme. Etudes d'histoire littéraire européenne. – Paris, 1924 – 1948.

mantizm lotin olamida» (1927) kitobini chop ettirdi. Kitobda romantizm va roman davlatlari arealining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi asarlardan namunalar keltirilgan. Kitobda navbatma-navbat romantizm davri estetikasi, falsafasi va dini ko'rib chiqilgan.

Ma'lumki, Gyotening sa'y-harakatlari bilan umumiyyat adabiyot o'z rivojlanishida ilgarilab ketdi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, romantizm davrida ushbu fanning shakllanishida aka-uka Shlegellar, Maks Koxning xizmatlari katta bo'ldi. Urushdan keyin komparativistik tadqiqotlar yanada ko'paydi: Yevropa adabiyotlari bo'yicha qiyosiy tadqiqotlar olib borildi, ya'ni ularning umumiyyatini jihatlari aniqlandi, shu bilan birga, har bir adabiyotning jahon adabiyoti fonida o'ziga xosliklari o'rganildi. Olimlarning diqqat markazida (V.Milx, G.O.Byurger, G.V.Eppelsgeymer) asosan G'arbiy Yevropa mamlakatlari adabiyoti bo'ldi.

Ikkinci jahon urushidan keyin nemis olimlari tomonidan komparativistika, estetika va tarix bo'yicha chiqarilgan kitoblar orasida ikkita kitob alohida ajralib turadi, bular umumyevropa miqyosida tan olingan Y.R.Kursiusning Yevropa adabiyoti va lotin o'rta asrlari haqidagi (1948) asari va Auerbaxning «Mimesis» (1946) asaridir. Romannavis, adabiyot tarixchisi va madaniyat faylasufi bo'lgan Kursius, shubhasiz, 1914 – 1930-yillarda fransuz madaniyati va adabiyotini Germaniyada tarqatish va talqin qilish bo'yicha eng yirik mutaxassis bo'lgan.

Bu sohada Bryuneterning fransuz tanqidchiligidagi o'rni haqidagi dissertatsiyasidan¹⁵ boshlab «Fransiya, fransuz madaniyatiga kirish» (1930) asarigacha ko'plab tadqiqotlar muallifi edi. Uning tadqiqotlari, mohiyatan olganda, Yevropaning antik davrdan o'rta asrlarga o'tish, shuningdek, o'rta asrlar madaniyatiga bag'ishlangan. Karsius sintezga moyil bo'lishiga qaramay, filolog-tadqiqotchi sifatida qat'iy

¹⁵ Curtius E.R., Ferdinand Brunetière; ein Beitrag zur Geschichte der französischen Kritik, 1914.

intizomga bo'ysungani uchun doimo tarixiy faktlarga asoslangan.

Auerbaxning «Mimesis»² asari stilistik tadqiqotning tipik namunasi bo'lib, unda qisqa adabiy parchalar mayda-chuyda detallarigacha, tafsilotlarigacha qamrab olinib tahlil qilingan, G'arbiy Yevropa adabiyoti rivojlanishining o'rta asrlardan davrimizgacha bo'lgan tarixiy manzarasi to'laqonli tasvirlangan. Muallif ikkita soha (bir tomonda 'oya va his-tuyg'ular, ikkinchi tomonda «aniq voqelikning imitatsiyasi») va ularni ifodalovchi ikkita uslubni (yuk-sak adabiy va bemaza, tuturiqsiz, komik uslublar) ajratib ko'rsatib, ular o'rta asrlar va XIX asrda ikki marta tutashganligini asoslaydi.

Germaniyada qiyosiy adabiyotshunoslikning rivojlanshida Tyuringen universiteti professori Kurt Vaysning hissasi katta bo'ldi. 1939-yili zamонави Yevropa adabiyoti haqidagi qator olimlar bilan hammualliflikda chop etilgan maqolalar to'plamida u milliy adabiyotlarni qo'shish metodini qo'lladi. Mashhur olim nafaqat qiyosiy adabiyotshunoslikka murojaat qilish kerakligi haqida ta'kidladi, balki adabiyot tarixi bo'yicha har qanday tadqiqotda uning mavjudligini va misol tariqasida nemis simvolizmining fransuz romanitizmi bilan bog'liqligini qayd qildi. Shuningdek, uning muharrirligi ostida «Tarixiy-qiyosiy adabiyotshunoslik tadqiqotlarining muammolarisi» (1951) turkumi nashrdan chiqarildi. Roman filologik maktabi va fransuz komparativizmining (Baldansperje) tarbiyalanuvchisi bo'lgan Kurt Vays G'arb o'rta asrlari muammolariga, jumladan, G'arbiy Yevropa epik asarlari va «Nibelungenlied» («Nibelunglar haqida qo'shiq»)ning o'zaro munosabatlari masalasiga bir necha bor murojaat qildi. Keyinroq u Marodan Valeriga-cha bo'lgan fransuz lirkasini, shuningdek, Lotin Amerikasi shoirlari Romulo Gallegos va Gabriyela Mistralning ijodini o'rgandi. Frits Shtrixning nazariy asarlari, masalan, uning «Adabiyot haqida fanning falsafasi» (1930) to'plamida chop

etilgan «Jahon adabiyoti va qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslik» bo'yicha tadqiqotlari, shuningdek, «Gyote va umumjahon adabiyoti» (1946) asari muhim voqelik bo'ldi.

Germaniyaning Bonn universiteti professori, «Arcadia» jurnalining direktori Xorst Ryudiger rahbarlik qilgan Komparativistlar assotsiatsiyasi tashkil qilindi. Germaniyada Ikkinchiji jahon urushidan keyin olib borilgan komparativistik tadqiqotlar asosan G'arbiy Yevropa adabiyotlarini qamrab olgan edi.

AQShda qiyosiy adabiyotshunoslikning rivojlanishi professor Irving Bebbit XX asr bo'sag'asida Kolumbiya va Garvard universitetlarida unga bag'ishlangan ma'ruzalar o'qigan davrdan boshlandi. Amerika komparativizmiga fransuz maktabining, ayniqsa, ikki jahon urushi o'talarida bu yerda ma'ruzalar o'qigan va V.P.Friderix bilan birga bibliografiya fanini asoslagan (1950) Baldansperjening ta'siri katta bo'ldi. Garvard universiteti adabiyotlarni qiyosiy o'rganish kafedrasи bilan bir qatorda Rene Uellek dars berayotgan Yel universitetida ham yangi kafedra paydo bo'ldi.

Amerika komparativizmi ilk davrlarda asosan mahalliy adabiyotga tayandi, chunki Folkner, Xeminguey, Dos Passos ijodi chet ellarda ham mashhur edi. Sekin-asta Amerika komparativizmining diqqat-e'tibori Yevropa adabiyotiga ham qaratila boshladи. Bu yerga Yevropa mamlakatlaridan kelgan J.A.Borgeze, Amerike Castro, Leo Shpitser, Roman Yakobson kabi olimlar adabiyotshunoslik fanlari, jumladan, komparativizmning taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdilar. Ixtisoslik bo'yicha maqololarni chop etuvchi «Comparative Literature» jurnali chiqa boshladи.

Amerikalik komparativistlar adabiyot nazariyasi va stilistikani qiyosiy metodlar faol qo'llaniladigan ikki soha deb bildilar. Uellek va Uorrenning keng tarqalgan «Adabiyot nazariyasi» (1949)da bir bob to'liq qiyosiy adabiyotshunoslik va uning «milliy, umumiy va umumjahon adabiyotlari» bilan aloqalariga bag'ishlangan. Mohirona tahlil natijasida

bu yerda ko'plab tushuncha va ularning o'zaro aloqalariga aniqlik kiritildi. Kitobda qiyosiy adabiyotshunoslik uzoq vaqtlardan buyon folklor xalq ijodiyoti va yozma adabiyotning o'zaro ta'siriga oid tadqiqotlarga katta qiziqish bilan qarayotgani ta'kidlanishi bilan birga fransuz komparativistika maktabi asosan ikki tomonlama, ba'zan ko'p tomonlama ta'sirni o'rganganligi uchun bir yoqlama cheklangan xulosalarga keltinganligi haqida fikr yuritiladi.

Yaponiyada qiyosiy adabiyotshunoslik asosan 1868 – 1912-yillarda G'arbiy Yevropa mamlakatlari bilan aloqalar kengayishi davrida rivojlandi. Ikkinci jahon urushidan keyin xalqaro aloqalarning rivojlanishi natijasida ko'plab chet el adabiyoti asarlari yapon tiliga o'girildi (hozirda ham Yaponiya asarlarni tarjima qilish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinnlardan birini egallaydi), 1948-yili esa komparativistlarining Yapon milliy jamiyatini tashkil etildi. Jamiyat har chorakda byulleten va jurnal chiqara boshladi. 1953-yili Tokio universitetida Adabiyotni qiyosiy-tarixiy tadqiq etish instituti ochildi. Yapon komparativistlari ingliz, italyan va fransuz she'riyatining yapon adabiyotiga ta'siri, shuningdek, yapon adabiyotining xitoy va buddaviylik adabiyoti bilan aloqalarini aniqlash masalalariga alohida etibor qaratdilar.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya adabiyot va adabiyotshunoslik jadal rivojlandi. Rossiya mifologik maktabining asoschisi akademik F.I.Buslayev (1818 – 1897), qiyosiy mifologik maktab vakili A.N.Afanasyev (1826 – 1871), madaniy-tarixiy maktab vakili A.N.Pipin (1833 – 1904), adabiyotshunoslikning psixologik yo'naliishiga mansub A.A.Potebnya (1835 – 1891) singari olimlarning faoliyatini shu davrga to'g'ri keladi. Ular orasida jahon adabiyotshunoslik ilmiga ko'rsatgan ta'siri jihatidan akademik A.N. Veselovskiy (1839 – 1906) alohida mavqega ega. Olim ilmiy faoliyatining cho'qqisi «Tarixiy poetika» asari hisoblanadi. O'rta asrlar adabiyotini chuqur o'rgangan olim jahon adabiyoti rivojining qonuniylatlari bilan qiziqdi. A.N.Veselovskiy

tarixiy poetika asosini «Poetik tafakkur va uning shakllari evolyutsiyasi»ni o'rganishda ko'rди. Olim o'z tadiqiqotlarida adabiy hodisalarning ularni yuzaga keltirgan sharoit bilan mushtarak ekanligini asosiy tamoyil sifatida belgiladi. Veselovskiy adabiy hodisaning shakliji jihatlariga emas, uning kirib borgan adabiy muhitdagi o'rni, yangi ma'no kasb etishi, unga bo'lgan munosabatlariga asosiy e'tibor qaratadi. Veselovskiy adabiyot tarixini jamiyat tafakkuri tarixi deya e'tirof etadi. Olim adabiyotni madaniyatning uzviy bo'lagi sifatida talqin etadi. U yashagan davrda adabiyot tarixinining metodologik asoslari ishlab chiqilmagan edi. Uning «Adabiyot tarixinining fan sifatidagi metodi va vazifalari» nomli tadqiqoti hozirgi kunda ham o'z ilmiy ahamiyatini saqlab qolgan. A.N.Veselovskiy poetik janrlar evolyutsiyasini o'rganar ekan, diqqatni poeziyaning ibtidoiy shakllariga qaratdi va uning dastlabki ko'rinishlari sinkretik (qorishiq) holatda bo'lganligini isbotlab ko'rsatdi. U ilk poeziya namunalarining real hayot bilan bog'liq jihatlariga e'tibor qildi. Keyinchalik esa taraqqiyotning va poetik tafakkurning asta-sekin rivojlanishi natijasida poetik janrlarning differensiyasi boshlandi. Bu jarayonda lirikaning ajralib chiqishini olim individual psixikaning uzoq davom etgan rivojlanishi bilan bog'laydi. Bir so'z bilan aytganda, Veselovskiy «Tarixiy poetika» asari orqali jahon adabiyotining umumiy nazariyasini yaratmoqchi va adabiy jarayonning ichki rivojlanish qonuniyatlarini ko'rsatmoqchi bo'ldi. Afsuski, uning fundamental tadqiqoti yakunlanmay qolgan.

Qiyosiy adabiyotshunoslikning rivojida akademik V.M.Jirmunskiyning (1891 – 1971) xizmatlari beqiyos. Uning adabiy ta'sir va adabiy o'zlashmalar masalalari yoritilgan «Bayron va Pushkin» (1924) risolasi badiiy asarning o'ziga xos jihatlarini tushunishga, muallifning ijodiy individualigini belgilashga xizmat qiladi. Jirmunskiy adabiy hodisalarning yuzaga kelishini jamiyatning ma'naviy ehtiyojlari tufayli deb baholaydi. Bu boradagi nazariy qarashlari aks

etgan qator ilmiy ish va maqolalar e'lon qiladi. Ayniqsa, «Qiyosiy adabiyotshunoslik va adabiy ta'sir muammolari» (1935) tadqiqoti tarixiy-adabiy jarayondagi o'xshashlik jamiyatning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi bilan bog'liqligi to'g'risida konsepsiyani ilgari surganligi bilan muhim ahamiyat kasb etdi. Ma'lumki, qiyosiy-tarixiy metodning V.M.Jirmunskiygacha bo'lgan vakillari adabiy hodisalar ning o'xshashligi masalasini faqat bevosita adabiy aloqlardagina ko'radilar. V.M.Jirmunskiy esa shunday yozadi: «Ayni shu nuqtayi nazardan, biz ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning bir xil rivojlanish bosqichida paydo bo'ladigan o'zaro o'xshash adabiy hodisalarni, ular o'rtaсидagi o'zaro ta'sirning borligi yoxud yo'qligidan qat'i nazar, bemalol qiyoslay olamiz va qiyosiy o'rganishimiz zarur ham».

V.M.Jirmunskiy qiyosiy adabiyotshunoslikning maqsad va vazifalarini jahon adabiyotining umumiyo rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishda ko'rdi. Uning fikricha, tipologik aloqalar konkret bilvosita aloqalarni yoxud adabiy ta'sirni inkor etmaydi. Milliy adabiyotlarga xalqaro adabiy aloqalarning kirib kelishi adabiy muhitda unga bo'lgan talab va ehtiyojdan darak beradi. Ayni paytda, olimning yozishi ga ko'ra, har qanday adabiy ta'sir yangi muhitda uning sharoiti va talablariga moslashadi. Shu bilan birga, ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi natijasida turli ijtimoiy formatsiyalarda turli adabiy ta'sir vujudga keladi. Qiyosiy-tarixiy metod umumjahon adabiy jarayonini tadqiq etganda ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning rivojlanish qonuniyatlariga asoslanadi. Chunki tarixiy jarayon har bir geografik mintaqaga doirasida o'ziga xos belgilarga ega bo'lgani holda, bir qator umumiyo qonuniyatlarga ham egaki, aynan shu qonuniyatlardan kelib chiqib turli xalqlar adabiyotlarini qiyosiy aspektida o'rganish mumkin.

Adabiyotshunos «A.Navoiy va Sharq adabiyotida Renessans muammosi» maqolasida shoir asarlarida ko'tarilgan ijtimoiy-axloqiy masalalar G'arbda ham o'sha davr kun tar-

tibidagi dolzARB masalalardan ekanligini asoslاب, A.Navoiy g'oyalari G'arb mutafakkirlarining g'oyalari bilan hamo-hang ekanligini ta'kidlaydi. Bu bilan A.Navoiy ijodini jahon adabiyoti arenasida o'rganish uchun keng yo'l ochadi. Masalaning yana bir g'oyat muhim jihat shundaki, shoir ijodiy merozi Sharq uyg'onish kontekstida o'rganilgan. Olimning ushbu maqolasi navoiyshunoslikda birinchi marta Alisher Navoiy ijodi keng planda, qiyosiy aspektida tadqiq etilgani bilan muhim ahamiyatga ega.

XX asr adabiyotida sharqshunos olim N.I.Konradning (1891 – 1970) ilmiy izlanishlari muhim ahamiyatga ega. U qiyosiy adabiyotshunoslikning nazariy muammolari bilan jiddiy shug'ullandi. «Qiyosiy adabiyotshunoslikning zamonaviy muammolari» (1959) maqolasida zamonaviy adabiyotning ikki unsur – milliy adabiyot namunalari va tarjima qilingan adabiy asarlardan iborat ekanligini e'tirof etadi. Shuningdek, tarjima asari va tarjima muammolari, tarjimaning ijodiy ish mahsuli ekanligi milliy adabiyotlarning taraqqiyot yo'llari bir xil emasligi, ularning rivojlanishdagi o'ziga xos jihatlari haqida mushohada yuritadi. «Bir adabiyotning ikkinchi bir adabiyotga kirib borishida asosiy vosita tarjimadir. Biroq tarjimon faqatgina vositachi emas. O'zga tilda yozilgan adabiy asarni ona tilida qayta yaratish – bu hamma vaqt ijodiy ishdir. Tarjima asarlarining paydo bo'lishi u yoki bu darajada adabiyotni boyitadi».

XX asrda Sharqiy Yevropa davlatlarida qiyosiy adabiyotshunoslik yetarli darajada rivojlandi. Ayniqsa, rus adabiyotshunoslari R.M.Samarin, I.I.Anisimov, V.M.Jirmunskiy, M.P.Alekseyev, V.I.Kuleshov, N.I.Konrad, I.G.Neupokoyeva, B.G.Reizov, T.L.Motilyova bu borada yetakchilik qildilar. Ular tomonidan ko'plab umummetodologik, nazariy va amaliy masalalarga bag'ishlangan to'plamlar chiqarildi.

Masalan, 1961 – 1968-yillarda turli milliy adabiyotlarning o'zaro aloqalari va o'zaro ta'siriga bag'ishlangan kat-tagina hajmdagi kitoblar chiqarildi.

Rus komparativizmi, avvalo, A.Veselovskiy maktabi boshlab bergen o'z an'analariga ega. Qiyosiy folkloristika sohasining yirik mutaxassisini, jahonga tanilgan olim A.Veselovskiy xalqaro «sayyor» syujetlar, motivlarga katta e'tibor qaratgan. Rus qiyosiy adabiyotshunosligi tadqiqot metodlarini yangilab, o'zi uchun yangi, samarali usullarni tanlagan. Yevropasentrizmga qarshi chiqqan N.I.Konrad qiyosiy-tarixiy tadqiqotlar doirasiga Sharq va butun dunyo xalqlari madaniyatini kiritishni taklif qilganda bu nuqtayi nazar dunyo olimlari, avvalo, yirik mutaxassis Rene Etiyembl tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Shu paytgacha tadqiqotchilarning diqqat markazidan chetda qolgan Sharqiy Yevropani qamrab olish g'oyasi ham qo'llab-quvvatlandi. Keyin zamon chegaralarini kengaytirish masalasi yuzaga chiqdi, chunki g'arb komparativizmi asosan uyg'onish davridan keyingi davrni o'rgangan edi.

Hozirda Yevropada o'rta asrlar madaniyatiga bo'lgan qiziqish ortdi, diqqatga sazovor joyi shundaki, bunda nafaqat antik davrning lotin tili va madaniyati bilan bog'liq merosga, balki boshqa tillar, masalan, sanskrit, yunon, slavyan, xitoy, fors, arab tillari doirasida paydo bo'lgan o'zaro munosabatlarga ham keng e'tibor berilmoqda. Rus fani qiyosiy adabiyotshunoslikning turli sohalarida: tarixiy-madaniy umumiylig doirasidagi milliy adabiyotlarning o'zaro munosabatlari, tarixiy aloqalari bo'limgan adabiy hodisalarini bog'lovchi qiyosiy-tipologik munosabatlarda, nihoyat, adabiyotlar doirasidagi o'zaro ta'sir masalalari bo'yicha ba'zi qonuniyatlarni aniqlashda ham izchil tadqiqotlar olib bormoqda.

1970-yili Bordo shahrida bo'lib o'tgan kongressda rus olimlaridan biri V.M.Jirmunskiy e'tiborini «O'rta asrlar adabiyoti qiyosiy adabiyotshunoslikning muammosi sifatida» masalasiga qaratgan bo'lsa, M.P.Alekseyev «Plyuringvizm va adabiy ijod», N.I.Balashov «Qiyosiy adabiyotshunoslikda tizimli munosabatlarning ijtimoiy aspekti», K.N.Gregoryan «Verlen she'riyati Rossiyada» mavzularida chiqishlar qildilar.

Shunday qilib, bizda fanning rivojlanish jarayonida-gi birligi haqida gapirishga asos yo'q. Aynan nuqtayi nazarlarning xilma-xilligi fanning murakkabligidan dalolat beradi. Ba'zi qiyosiy adabiyotshunoslikning rivojlanishi haqidagi umumlashtiruvchi ma'lumotlarda fanning jahon miqyosidagi ahamiyati haqida gapirilsa, boshqalarida har bir mamlakat doirasi bilan chegaralaniladi. Masalan, tarixiy an'analariga ega bo'lgan fransuz maktabiga qarama-qarshi qo'yiladigan go'yo asosiy e'tiborini estetik izlanishlarga bag'ishlagan Amerika maktabi haqida gapiriladi. Rene Etiyembl o'zining o'tkir munozaralarga sababchi bo'lgan «Comparaison n'est pas raison» («Qiyoslash dalil emas») esesida, shuningdek, «Revue de littérature comparée» journalida chop etilgan maqolalarida aniq shakllangan maktablar, boshqalaridan ajralib turadigan nuqtayi nazarlar yo'qligi haqida yozgan edi. Fransuz tarixiy maktabi doirasida ham qiyosiy poetika, ham qiyosiy sotsiologiya bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi. Jak Vuazinning «Jan-Jak Russo Angliyada» (1778 – 1830) asari Rodenning shu mavzudagi kitobi (1750 – 1778) yoki Rolan Mortening «Didro Germaniyada» (1954) mavzusiga bag'ishlangan asari, Etiyembl boshlab bergen stilistika va poetikaga bag'ishlangan asarlar bilan bir qatorda turadi. Etiyemblning o'zi fransuz komparativistikada turli-tumanlik uchun kurashdi.

Qiyosiy adabiyotshunoslikning rivojlanishiga komparativistika bo'yicha o'tkazilgan xalqaro syezdlar va kongresslarning ta'siri katta bo'ldi. 1948-yili Parijda o'tkazilgan Adabiyot tarixi bo'yicha xalqaro komissiyaning IV syezdi, Oksford, Geydelberg, Lyej, Nyu-York va Strasburgda bo'lib o'tgan Zamonaviy tillar va adabiyotlar xalqaro federatsiyasining kongresslari, Komparativistika bo'yicha xalqaro assotsiatsiya tomonidan Venetsiya, Chepel-Xill, Utrecht, Friburg (Shveytsariya), Belgradda (1958 – 1967) tashkil etilgan kongresslar tadqiqotlarni yangi bosqichga ko'tardi.

Har holda, bitta narsa aniq: dunyodagi barcha komparativlarning hamkorlikka intilishi hali-hanuz juda kamlik qiladi. 1970-yili Bordoda bo'lib o'tgan kongressga dunyoning turli burchaklaridan ko'plab ishtirokchilar (26 tilda so'zlashuvchi 400 nafar) yetib keldi. Diqqatga sazovor joyi shunda bo'ldiki, qatnashchilarning 33% Sharq mamlakatlaridan edi.

Ma'ruza va chiqishlarda asosan ikki mavzu yoritildi: «Adabiyot va jamiyat, struktura va kommunikatsiyalar masalalari» va «O'rta yer dengizi adabiyotlari, meros va yangilanish». Bu masalalar bo'yicha yuzdan ortiq chiqishlar bo'ldi.

Qiyosiy adabiyotshunoslikning rivojlanishida rumin tadqiqotchisi Aleksandr Dimaning ham o'rni bor. Uning 1969-yili nashr etilgan «Qiyosiy adabiyotshunoslik tamoyillari» asari komparativistika tarixi va nazariyasiga oid muhim manbalardan biri hisoblanadi. A.Dima qiyosiy adabiyotshunoslikning vazifasi uch turdag'i hodisalarni o'rganish-dan iborat degan xulosaga keladi. Olim adabiyotlar o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri aloqalar (tarjima, ta'sir, o'zlashtirma); tipologik o'xshashliklar (genetik qardoshlikda bo'limgan, lekin ma'lum bir mavzu, miflar, obrazlar, janrlar, o'xhash adabiy oqimlarni tadqiq etishda namoyon bo'luvchi); milliy adabiyotlarning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish sohaning asosiy vazifasi deb hisoblaydi.

A.Dima qiyosiy adabiyotshunoslikni alohida «fandagi fan» emas, uning qismlaridan biri deb biladi. Qiyosiy adabiyotshunoslik o'zining adabiy hodisalarga yondashuv uslublariga ega, xolos. Olim P. van Tigemning qiyosiy adabiyotshunoslikni umumjahon adabiyotini o'rganishga singdirib yuborish lozimligi haqidagi qarashlariga qarshi chiqadi. Chunki ular o'rganishning turlicha predmeti va maqsadlariga ega. Umumjahon adabiyoti renessans, barokko, realizm singari dunyo miqyosidagi universal hodisalarga tayanadi. Qiyosiy adabiyotshunoslikning maqsadi esa qonuniyatlarini aniqlab, ularning tarqalish yo'llarini ko'rsatib berish bilan belgilanadi.

XX asrning ikkinchi yarmi komparativistika taraqqiyotida slovak adabiyotshunosi Dioniz Dyurishin (1924 – 1997) nazariy qarashlari muhim o'rinn tutadi. Uning «Slovak realistik hikoyasi va N.V.Gogol» (1966), «Adabiy komparativistika masalalari» (1967), «Adabiy komparativistika tarixi va nazariyasi» (1970), «Adabiyotni qiyosiy o'rganish nazariyası» (1975), «Jahon adabiyoti nima?» (1992), «Adabiyotlara-ro jarayonlar nazariyasi» (1995) singari asarlarida sohaning nazariy va metodologik masalalari chuqur tadqiq etilgan.

D.Dyurishin komparativistikani adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi singari mustaqil fan deb emas, balki adabiyotshunoslik oldida turgan umumiy maqsadlarga erishish yo'lidagi tadqiq aspektlaridan biri deb baholaydi. U adabiy aloqalarni ikki katta guruhga – kontakt-genetik aloqalar va tipologik o'xhashliklarga ajratadi. D.Dyurishin ta'rif bo'yicha, adabiyotlarni qiyosiy o'rganish adabiy jarayoning xususiy va umumiy qonuniyatlarini tadqiq etishdan iborat. Bunda qonuniyatlarning birinchi guruhi (xususiy) genetik-kontakt tadqiqotlar, ikkinchisi (umumiy) tipologik tadqiqotlarga daxldor bo'ladi.

O'zbek adabiyotshunoslida ham XX asr davomida qiyosiy-tarixiy yo'nalishda bir qator e'tiborga molik tadqiqotlar yuzaga keldi. Ularda o'zbek adabiyoti mintaqadagi qardosh xalqlar adabiyoti namunalari bilan qiyosiy o'rganilib, bir qator nazariy umumlashmalar chiqarilgan. Masalan, E.Rustamovning o'zbek mumtoz adabiyotini Sharq xalqlari adabiyotlari bilan qiyosiy tadqiq etgan doktorlik ishi hoziriga qadar o'z ilmiy ahamiyatini saqlab kelmoqda.¹⁶ Shuningdek, Alisher Navoiy «Xamsa»si dostonlari qiyosiy tadqiq etilgan bir qator tadqiqotlar ham mavjud. Biz bu o'rinda qiyosiy adabiyotshunoslilikni yangi g'oyalar bilan boyitgan slovakiyalik mashhur adabiyotshunos D.Dyurishin bilan hamkorlikda chop etilgan to'plamni qayd etishni lozim deb

¹⁶ Рустамов Э. Некоторые вопросы сравнительного изучения узбекской литературы XV века с другими восточными литературами. АДД. – Ташкент, 1996.

bilamiz.¹⁷ To'plamdan xorij va o'zbek olimlarining qiziqarli maqolalari o'rinni olsin. Ularda adabiyot tarixi, o'zbek adabiyotining XX asr arafasidagi qiyofasi, sobiq Ittifoq xalqlari adabiyotlarini qiyosiy o'rganish muammolariga oid e'tiborga molik fikr-mulohazalar bildirilgan. Bu to'plam orqali o'zbek olimlari xalqaro miqyosga chiqdilar.¹⁸

O'zbek qiyosiy adabiyotshunoslida Fozila Sulaymonovaning (1919 – 2011) «Sharq va G'arb» nomli monografiyasi (1997) muhim ahamiyatga ega. Ko'p yillik izlanish samarasi bo'lgan tadqiqotda Markaziy Sharq mamlakatlari xalqlari bilan qadimiy Yunoniston, Markaziy Gretsiya xalqlari madaniyati, mifologiyasi, fani, falsafasida mushtaraklik borligi, zardushtiylik dini va uning Ioniya, u orqali Gretsiya madaniyatiga ta'siri, grek adabiyotida Markaziy Osiyo mavzysi va makedoniyalik Aleksandr yurishlari, jahongir obrazining tarixiy, diniy va badiiy adabiyotdagi talqini yoritiladi.

Kitobning ikkinchi qismida o'rta asrlarda arablar tomonidan Ispaniyaning bosib olinishi, mamlakatda ilg'or Sharq, ayniqsa, Markaziy Osiyo madaniyati, ilm-fani, she'riyat va nasriy asarlarning rivojlanishi, chegaradosh Fransiya va Italiyaga ta'siri natijasida Yevropa mamlakatlarida madaniyat hamda turli fanlar bilan birga dunyoviy mazmundagi she'riyatning taraqqiy etishi, nihoyat, buyuk adib Dante ijodiga Sharq ta'siri masalalari yoritilgan.

¹⁷ Особые межлитературные общности. 5. – Ташкент, 1993.

¹⁸ Эшонбобоев А. Киёсий-тарихий метод хакида // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008.

ADABIYOTSHUNOSLIKDA «JAHON ADABIYOTI» KONSYEPSIYASI

Odatda, filologlar, aniq fanlardagi atamalardan farqli ravishda, adabiyotshunoslik atamalarining ko'p ma'noli, murakkab, o'zgaruvchan, ba'zan esa bir-biriga to'g'ri kelmaydigan ma'noga ega bo'lishini qayd qiladilar. Ammo adabiyot nazariyasida ham, tarixida ham ma'lum darajada isbotsiz qabul qilinadigan tushunchalar borki, ular o'z parametrlarida va ma'nolarida yetarli darajada aniq shakllangan. Weltliteratur – jahon adabiyoti ana shunday tushunchalardan biri hisoblanadi.

«Jahon adabiyoti» tushunchasi o'z vaqtida qizg'in bahsmunozaralarga sabab bo'lgan. Bu fan XIX asrda to'liq shakllandı. XX asr boshlaridayoq ilk bora Gyote tomonidan iste'molga kiritilgan «Weltliteratur» («jahon adabiyoti») iborasi tez-tez ishlatila boshladiki, bu endi jahon adabiyoti birinchi darajali ahamiyat kasb etayotgani, milliy adabiyotlar esa o'z ahamiyatini yo'qotayotganini anglatardi.

Gyote aytgan fikrning birinchi qismi haqiqatga yaqin bo'lishi mumkin, chunki XIX asrdan dunyo bo'ylab, shu jumladan, Yevropa mamlakatlariada ham moddiy va ma'naviy boyliklar bilan o'rtoqlashish jarayoni kuchaya boshladi. Biroq milliy adabiyotlar o'z ahamiyatini yo'qota boshlaganligi haqidagi fikrga qo'shilish qiyin. Chunki aynan shu davrda milliy mafkura rivojlanma boshlagan, millatlarning shakllanishi va rivojlanishi davomida dunyo xalqlari adabiyotlarida ham chegaralar belgilangan edi. Haqiqatan, XIX asrda bir vaqtning o'zida ham jahon, ham milliy adabiy ongning rivojlanishi, bir-biriga yaqinlashishi kuzatilgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan, adabiyotlarning aniq chegaralari belgilandi.

Albatta, adabiyotlarni universallashtirish jarayoni universal shuurning paydo bo'lishi bilan bir vaqtida sodir bo'lmagan. Adabiyotlarni universallashtirish juda qadim-

dan, aniqrog'i, antik davrdan boshlangan. Uzoq va Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo, Yevropada o'sha paytlardayoq madaniy boyliklar bilan faol almashib turuvchi katta-katta hududlar mavjud bo'lgan. Osiyoning eng chekka chegaralarigacha nafaqat folklor, balki adabiy asarlar ham keng tarqaldi. Madaniy boyliklarning ko'chib yurishi Yaqin Sharq mamlakatlarida – Misrdan Falastingacha ham sodir bo'lar edi. Yevropada esa avval qadimgi yunon adabiyoti to'laqoni li hukmronlik qilgan bo'lsa, keyinroq undan andaza olgan, lekin o'ziga xosligini saqlab qolgan lotin adabiyoti paydo bo'ldi. Yevropaning g'arbida lotin tili, sharqida esa slavyan va yunon tillari keng yoyilgan o'rta asrlarda adabiyotning, shak-shubhasiz, universallashish davri bo'ldi. Uyg'onish davridan keyin paydo bo'lgan, jumladan, klassitsizm, ma'rifatchilik, romantizm, realizmdan modernizm va postmodernizmgacha ko'pdan ko'p oqim va yo'nalishlar ham o'z mohiyatiga ko'ra universaldir. Biroq bu universallik turli davrlarda – antik, o'rta asrlardan boshlab hozirgi vaqtlargacha bir xilda bo'lмаган, ularning faqat ma'lum bir qirralari davrdan davrga ko'chgan.

«Jahon adabiyoti»ning paydo bo'lishi milliy adabiyotlar bilan qiyoslaganda yangi bosqichni boshlab berdi. Ta'kidlash joizki, umumiylikni milliylikka qarama-qarshi qo'ymaslik kerak. Bu holda adabiy jarayon hodisalarining barchasini, misol uchun, milliy aspektga ega bo'lмаган antik davr adabiyotini qamrab olib bo'lmaydi.

Jahon adabiyoti shunchaki mahalliy yoki milliy adabiyotlarning yig'indisi emas. Vaholanki, bunday qarashlar juda ham keng tarqalgan bo'lib, ko'plab tadqiqotlarda, jumladan, V.Shlegelning (1801 – 1804) ma'ruzalaridan boshlab O.Vallsel yoki K.Vays, Yulius Xart, P.Vigler, Jakomo Prampolinining adabiyot tarixiga oid asarlarda, Raymon Keno rahbarligida chop etilgan «Pleyada» ensiklopediyasi»da ham uchraydi. Jahon adabiyotini bu ma'noda tushunish hozirgi kunlarda ham, avvalo, Yevropa adabiyoti tarixiga oid asarlarda

uchrab turadiki, buni eski yevropasentrik konsepsiyaning asorati deb qabul qilish mumkin, garchi davrimiz umumjahon-tarixiy xarakterga ega ekanligi barchaga ayon. 1967-yili Belgradda bo'lib o'tgan qiyosiy adabiyotshunoslik bo'yicha xalqaro kongressda yangi Yevropa adabiyotlari tarixini, ya'ni Yevropa tillaridagi, tabiiyki, Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya, qisman Afrika va Osiyo adabiyotlarini qamrab oluvchi adabiyot tarixini ishlab chiqish taklif qilindi.

Jahon adabiyoti nafaqat mustahkam va qadimgi maddaniy an'analarga ega «buyuk» (ya'ni ko'p sonli) xalqlarning adabiyotini, eng yangi va to'g'ri konsepsiyaga muvofiq, R.Hamzatov, D.Kugultinov, Lenau, Andersena, Petefi, Emesku asarlari bilan jahon adabiyoti xazinasiga katta hissa qo'shgan «kam sonli» xalqlar adabiyotini ham birlashtiradi. Ta'kidlash joizki, keyingi paytlarda Yevropa komparativistikasi «kam sonli» xalqlar adabiyotini o'rganishga katta e'tibor qaratmoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, jahon adabiyoti milliy, mahalliy adabiyotlar bilan qiyoslaganda yangi bosqich hisoblanadi, biroq bu milliy adabiyotlarning o'ziga xos xususiyatlari bepisand qarash kerak degani emas, albatta, chunki, mohiyatan olganda, aynan ular umumiylilikning asosini tashkil qiladi. Gap xususiylikni bartaraf etishning boshqa shakllari, aynan adabiy hodisaning bitta lingvistik va uslubiy doiradan chiqib, boshqalarga tarqalishi haqida bormoqda. Ammo shu o'rinda bitta masalaga aniqlik kiritish lozim bo'ladi. Fransua Rable, de Koster, G.G.Markes, Ch.Aytmatov kabi buyuk adiblar milliy san'atning o'ziga xos boyliklaridan mohirona foydalana olganliklari uchun dunyoga mashhur bo'ldilar, o'ziga xos xususiyatlarni suiiste'mol qilish aks ta'sirga olib kelishi mumkin. Bu, birinchi navbatda, shevalarda yozilgan adabiy asarlarga tegishli bo'lib, ular tili va etnografik jihatidan ajralib qolgani sababli jahon adabiyoti davrasiga kira olmaydi. Binobarin, u yoki bu millatga xos bo'lgan qadriyatlar xalqaro miqyosda

tan olinishi uchun xususiylik va umumiylilikning o'zaro nisbatini belgilashga yangicha yondashish kerak bo'ladi.

Shu bilan birga, «Jahon adabiyoti asarlari yuksak g'oyaviy yo'nalishi bilan ajralib turadi. Aynan shu sababli ijodkor qanchalik «betaraf, xolis» bo'lsa, asarlarining mashhurlik darajasi shunchalik past bo'ladi, shunchalik kam o'qiladi».¹⁹

O'z-o'zidan ravshanki, jahon adabiyotining fazilatlari uning strukturalari, tarkibiy qismlarining badiiy yuksakligiga bog'liq bo'ladi. Qiziqrli syujet, jonli va ifodali til, uslub, obrazlarning yorqin xarakteri, o'ziga xos she'r tuzilishi asarning mamlakat tashqarisiga chiqib, mashhur bo'lishiga zamin tayyorlaydi.

U yoki bu ijod namunasi universallik darajasi mezoniga javob berishi uchun ularni uch guruhg'a ajratish mumkin. Birinchi guruhg'a strukturalari bir-biriga o'xshash bo'lgan asarlar, oqimlar, bir davrda yoki bir-biriga o'xshash, yaqin ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda, bir vaqtda paydo bo'lib, ijod qilgan yozuvchilar kiritilib, ularni universal deb hisoblash mumkin. Boshqa adabiyotlarga ijodkorning shaxsi tufayli yoki asarga singdirilgan g'oya yoki his-tuyg'ular sabab yo yuksak badiiy saviyasi bilan katta ta'sir ko'rsatib, dunyo bo'ylab tarqalgan asarlar ikkinchi guruhg'a aloqador bo'la di. Nihoyat, o'z lingvistik hududidan nafaqat tarqalish jaryonlari sababli, balki yuksak g'oyaviy-badiiy darajaga ega bo'lgan hodisalar universal sanaladi.

Albatta, konkret tarixiy vaziyatlarda ko'pincha bu mezonlar murakkablashib, bir-biri bilan aralashib ketadi: masalan, umumjahon adabiy yo'nalishlari ham o'xshash ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarda ham o'zaro ta'sirlar, ham asarlarning keng tarqalishi oqibatida paydo bo'ladi. Biroq adabiyot tarixida universallik uchun dastlabki zamin «sof holda» bo'lgan misollarni ham keltirish mumkin.

¹⁹ Dima A. Conceptul de literatură universală și comparată. – București, Editura Academiei R. S. România, 1967. – P.13.

«Jahon adabiyoti» tushunchasi ko‘pincha «qiyosiy adabiyotshunoslik» bilan bir qatorga qo‘yiladi. Ular o‘rtasidagi o‘xhash va farqli tomonlarni ko‘rib chiqamiz.

Jahon adabiyotining qiyosiy adabiyotshunoslikda ham o‘rganiladigan eng muhim masalalari orasida o‘zaro ta’sir va tipologik o‘xhashliklar alohida o‘rin egallaydi. Biroq, oldindan aytib qo‘yish mumkinki, har ikki fanning ushbu masalalarga bo‘lgan yondashuvi bir-biridan tubdan farq qiladi. Jahon adabiyoti doirasida o‘zaro ta’sir va tipologik o‘xhashliklar faqatgina universallikning mezoni sifatida o‘rganiladi. Biz u yoki bu adabiy hodisa, agar u turli mamlakatlarda bir vaqtning o‘zida yoki uncha katta bo‘lmagan vaqt oralig‘ida paydo bo‘lsa yo u boshqa adabiyotlarga ta’sir ko‘rsatsa (petrarkizm, russoizm va b.), universal (masalan, uyg‘onish, barokko) hodisa deymiz. Demak, bu holatda gap universallikni ta’riflashning oddiy vositasi haqida ketmoqda.

Qiyosiy adabiyotshunoslikda tipologik umumiylilik va ta’sir boshqa vazifani bajaradi. Bu yerda ular rivojlanish jarayonlari sifatida o‘rganiladi va qonuniyatlarini o‘rnataladi, ularning tegishli tezkor funksiyalari belgilanadi.

Adabiy hodisalarning tarqalishi haqida gapiriladigan bo‘lsa, u qiyosiy adabiyotshunoslikni kamroq qiziqtiradi va unga ikkinchi darajali miqdoriy ko‘rsatkich sifatida qaraladi.

Biroq ikki fan o‘rtasidagi farq bu bilan cheklanmaydi. Masalan, jahon adabiyotida adabiyotlarning milliy o‘ziga xosligiga universallikning jihatlaridan biri sifatida qaraladi. Komparativistikada qiyoslash metodlari yordamida milliy adabiyotlarning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, jahon adabiyoti yutuqlari fonida ularning badiiy qiymati aniqlanadi. Turli adabiyotlarning umumiyligi jihatlariga ko‘proq e’tibor beruvchi jahon adabiyotidan farqli ravishda, butun dunyoga mashhur hodisalarning xususiy tomonlari ham har doim komparativistikaning diqqat markazida turadi. Qiyosiy adabiyotshunoslikni nafaqat keng miqyosda

uyg'onish, barokko, romantizm yoki modernizm, balki bu oqimlarning turli mamlakatlardagi o'ziga xosliklari, tarixiy rivojlanishning u yoki bu bosqichida xalqlar yoki millatlarining yashash tarzi qay darajada aks etgani ham qiziqtiradi.

Komparativistikaning tadqiqot maydoni doirasiga, kerakli ma'lumotlarga ega bo'lsa ham, jahon adabiyoti shug'ullanmaydigan masalalar ham kiradi. Misol tariqasida Tyudor Vianu tomonidan Gesiod, Esxil, Protagor, Plotin va Demokritdan Lukretsiy, Vergiliy va Ovidiygacha, keyin Dante, Volter va Russodan Gyugogacha, Eliade va Eminekudan Tyudor Argezigacha har tomonlama chuqur tadqiq qilingan sotsiognik omillar masalasini keltirish mumkin. Bunda jahon adabiyoti faqatgina sotsiogenik jarayon namoyon bo'layotgan sahna vazifasini bajargani holda, qiyosiy adabiyotshunoslik asosiy personajlarga tavsif beradi, ularning o'rni va vazifasini aniqlaydi, umumiy mavzu shakllarini o'rganadi, bir so'z bilan aytganda, doimiy ravishda qiyoslash va taqqoslashlar bilan ish ko'radi, ma'lum davrlar doirasidagi hodisalarining o'zaro munosabatlarini tadqiq qiladi.

G'arb adabiyotshunoslida holat tamomila boshqacha tus olgan. Bu yerda XX asr oxiri – XXI asr boshlarida «jahon adabiyoti» tushunchasi – konsepsiysi tarkibi masalasida jiddiy tortishuvlar bo'lib o'tdi. Dide Kostning ta'kidlashicha, madaniyat, adabiyot, tarixning globallashuv jarayoni keyingi 50 yil ichida filologiyada ishlatilgan metodlarni hozirgi zamonda qo'llab bo'ladimi, tadqiqotchilar oldida qanday vazifalar turibdi va qaysi an'anaviy tushunchalar yana dolzarb bo'la boshladi kabi masalalar haqida o'ylashga majbur qiladi. Olim G'arb adabiyotshunoslaring «jahon adabiyoti» tushunchasiga, uning siyosiy, axloqiy va estetik mohiyatiga juda katta e'tibor bera boshlaganliklari haqida yozadi.

Shu bilan birga, fransuz, aniqrog'i, fransuzzabon filologlar o'zlarining bu sohada ortda qolayotganliklarini ta'kidlaydilar. Chunki Jeneva universitetining professori Jerom Davidning «Gyotening arvochlari: «Jahon adabi-

yoti»ning evrilishlari» (2011) asaridan oldin Paskal Kazanovaning «Adabiyotning jahon respublikasi» (1999) hamda K.Prado va T.Samuayloning «Jahon adabiyoti qayerda joylashgan?» kitoblari dunyo yuzini ko'rgan edi (2005).

Darhaqiqat, inglizzabon adabiyotshunoslikda bu mavzuda ko'plab izlanishlar olib borilmoqda: ularda «jahon adabiyoti» tushunchasi, uning mohiyati, chegaralari, rivojlanishi, boshqa tushunchalar bilan o'zaro munosabati borasida ilmiy babs-munozaralar qayd qilinmoqda.

Fransuz olimi Jerom Davidning «Gyotening arvochlari: «Jahon adabiyoti»ning evrilishlari» kitobi ta'sirida fransuzzabon adabiyotshunoslar ham Gyotening konsepsiysi yuzasidan bo'layotgan ilmiy munozaralarga aralashdilar. Asar quyidagi bo'limlardan iborat: Prolog – Aeroportda. Birinchi qism. Kosmopolitizm. Veymar, 1827. Bryussel, 1847. Ikkinci qism. Pedagogik g'oyalar. Chikago, 1911. Petrograd, 1918. Uchinchi qism. Ilmiy munozaralar. Istanbul orqali Nyu- Xeyvenga, 1952. Nyu-York (va Parij). 1999. Epilog. Frankfurt, 2011. «Preri ordiner» nashriyotining taklifi bilan olib borilgan tadqiqotda muallif mavjud nuqtayi nazarlarni sintezlashtirishga harakat qiladi. U D.Didro asarlari ta'sirida kitobini zamonaviy tanqidchi Franko Moretti bilan o'ziga xos filologik dialog tarzida quradi. Jerom David nafaqat Gyotening tushunchasi bo'yicha mavjud konsepsiyalarni bayon qildi, balki ularning muammoli nuqtalarini aniqlab, ularga o'z munosabatini bildirdi.

Monografiya «Aeroportda» deb nomlangan Prologdan boshlanib, unda bir kimsa (U) muallif (Men) bilan Gyotening «Weltliteratur» atamasini qay tarzda tushunish xususida suhbatlashadi. Kitobning «Kosmopolitizm», «Pedagogik g'oyalar», «Ilmiy munozaralar» qismlarida «jahon adabiyoti» konseptining asosiy rivojlanish bosqichlari tahliliga tortiladi. Suhbatdoshlar birinchi qismning «Veymar, 1827» bo'limida Gyotening o'zi ushbu atamani qanday tushunganligini tahlil qiladilar.

J.Davidning dalolat berishicha, Gyotening matnlarida «Weltliteratur» atamasi 1820-yillargacha uchramaydi, u faqat adibning adabiyot haqidagi tahliliy fikrlari uchun zarur bo‘ladi. Gyotening «jahon adabiyoti» ma’noviy tushunchasi Gerderning «insoniyat» (Humanität) atamasiga tayanadi. Ushbu tushuncha adabiyotlarning xilma-xilligini nazarda tutadi, ammo bu turli-tumanlikda antik san’at yetakchi o‘rinni egallaydi. Gyotening «jahon adabiyoti» haqidagi mu-lohazalari Gerderniki bilan hamohang bo‘lib, uningcha, butun dunyodagi ma’rifatli odamlar oxir-oqibat birlashadilar va birgalikda umuminsoniy madaniyatni rivojlantiradilar, chunki hech qaysi madaniyat tanho rivojlanmaydi.

Italyan filologi F.Morettining konsepsiyasi bo‘yicha, turli adabiyotlar bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, ta’sir ko‘rsatadi. U shu singari hamkorlikni tavsiflash uchun daraxt obrazidan foydalanib barcha adabiyotlar umumiy hind-yevropa ildizga ega ekanini ta’kidlaydi. Bir vaqtning o‘zida u bir Yevropa mamlakatining adabiy an’analari boshqa adabiyotga o‘tishini tahlil qilganda to‘lqin metaforasiga murojaat etadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida «jahon adabiyoti» atamasi ingliz olimi Richard Moulton tomonidan qanday talqin qilinganiga to‘xtaladi. Unda suhbatdoshlar XIX – XX asrlar chegarasidagi ingliz filologi Richard Moulton ishlarida «jahon adabiyoti» atamasi qanday talqin qilinganiga aniqlik kiritishadi. U «universitetni kengaytirish» dasturida qatnashib, Angliya va AQShda ishladi hamda o‘z ilmiy ishlarida olimlar va talabalar muhitiga murojaat qildi. Moulton uchun «jahon adabiyoti» Gomer, Yevripid, Vergiliy, Shekspir, Milton, Dante va Gyote ijodida mujassamlashgan insoniyat sivilizatsiyasi yutuqlarining taqdimoti bo‘lib xizmat qildi. Zamонавиу nuqtayi nazardan, Moulton tomonidan taklif qilingan qoida juda ham tor. Biroq bu «buyuk kitoblar» qoidasi ingliz adabiyoti tarixidan ma’ruzalarga kirish qismiga mo’ljallab yozilgan bo‘lib, ingliz adabiyoti-

ni boshqa adabiyotlar kontekstiga kiritishga yordam beradi va estetik didni rivojlantirishga xizmat qiladi. Moulton «jahon (world) adabiyoti» eng sara asarlarini tanlash mezonini ishlab chiqishga harakat qildi va bu tushunchani «universal (всеобщая) literature» atamasidan ajratdi. Moultonning fikricha, «umumjahon adabiyoti» – bu baracha adabiy asarlarning shunchaki yig‘indisi, umumiyligi soni bo‘lsa, «jahon adabiyoti» har bir mamlakat uchun o‘ziniki, chunki u ingliz, yapon, amerikalik, fransuz va h.k.larning nuqtayi nazaridagi eng yaxshi asarlarni tanlashni ko‘zlaydi. Shu tariqa Moulton «jahon adabiyoti» tushunchasiga estetik va milliy-tarixiy mezонни kiritadi.

«Jahon adabiyoti» deganda u yoki bu mamlakatda yaratilib, o‘zining estetik darajasi bo‘yicha butun dunyoda talab qilingan asarlar tushunilgan.

1930-yillarda «jahon adabiyoti» iborasi, aftidan, «jahon inqilobi» bilan assotsiatsiyadan qochish uchun «umumjahon adabiyoti» birikmasi bilan almashtirildi. Karl Radek 1934-yili yozuvchilar syezdida nutq so‘zlab, «jahon adabiyoti»ni proletar va burjua adabiyotiga ajratdi. U «jahon adabiyoti»ni «jahon burjuaziyasi» bilan bog‘lab, «jahon burjua adabiyoti» o‘z ahamiyatini yo‘qotdi, hozirgi zamon talablariga javob bermaydi degan fikrlarni aytdi. Shu sababdan Radek J.Joysning «Uliss» romaniga salbiy munosabat bildirib, kundalik hayot detallariga keragidan ortiq o‘ralashib qolganlikda ayblab, asarda qahramonlik pafosi yo‘qligini tanqid qildi. Shunday qilib, 1930-yillarda «jahon adabiyoti» «jahon inqilobi» g‘oyasiga bo‘ysundirilib, unga xizmat qilishi kerak edi. Bundan tashqari, u «burjua» va «inqilobi» adabiyotga ajratilib, mohiyatan jahon hodisasi ma’nosini yo‘qotdi.

Nemis filolog olimi E.Auerbaxning konsepsiysi yuzasidan bahs-munozara olib boriladi. 1930-yillarda Auerbax o‘z e’tiborini «jahon adabiyoti»ning Yevropa konsepsiysiiga qaratdi. V.Benyamin bilan olib borgan yozishmalarida u dunyoning alohida tamaddunlarga bo‘linib ketayotganligi

borasidagi xavotirlarini va bir vaqtning o'zida modernizatsiyaning «tuturiqsiz baynalmilallik» shakli tarqalayotganligidan ranjiyotganini yozadi. J.Davidning fikricha, Auerbax Gyote qo'llagan ma'nodagi «Weltliteratur»ni qo'msaydi va «Gyote tipidagi gumanist»ni idealga aylantiradi. 1969-yili AQShda Auerbaxning «Jahon adabiyoti filologiyasi» nomli maqolasi chop etilganda matnda «Weltliteratur» atamasи saqlab qolindi. Olimning shogirdi E.Said Weltliteratur Gyote uchun «umumiyl, universal adabiyot» bo'lib, barcha milliy adabiyotlarni qamrab oladi, shu bilan birga, ularning o'ziga xosligiga putur yetkazmaydi va Insoniyatning birligini ifodalaydi deb hisoblaydi. Maqola tarjimasining keyingi matnida «Filologiya va Weltliteratur» «Jahon (world) adabiyoti filologiyasi»ga aylanadi. Auerbaxning fikricha, «Jahon adabiyoti filologiyasi» dunyo madaniyatlararo o'zaro almashishlar masalasini ko'taradi, shuning uchun J.David ushbu olimga birinchi navbatda nemis olimi deb qarashlaridan afsuslanadi, vaholanki, u AQSh fani uchun komparativistikaning asoschisi bo'lgan.

1990 – 2000-yillarda «jahon adabiyoti»ni talqin qilishga qiziqish kuchayib ketgani va bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgani qayd qilinadi. Ayniqsa, Devid Demroshning konsepsiysi fan olamida katta qiziqish uyg'otdi. U F.Moretti g'oyalari bilan bahs-munozaraga kirishib, «o'z (my) jahon adabiyoti» obrazi qurilishining haqqoniyligini yoqlab chiqdi. Bu bilan Demrosh «jahon adabiyoti» konsepsiysi turli davrlarda va turli davlatlarda turlicha mazmun bilan to'ldirilishi va xayoliy, «virtual» birlikni ifodalashini ta'kidlaydi. J.David tushunchani bu qadar tubdan individuallashtirish noto'g'ri deb hisoblaydi. Demrosh jahon adabiyoti bo'lishdan oldin regional bo'lishni, «jahon adabiyoti»dan bestsellerlarni chiqarib tashlashni va «global adabiyot» tarkibiga kiritishni taklif qiladi. Demrosh bestsellerlarning «bozor realizmi»ga «lokal (mahalliy) adabiyot»ning yutuqlarini qarama-qarshi qo'yadi. Uning fikricha, katta yozuvchilar, garchi ular o'z

vatanlaridan uzoqda ijod qilishsa ham (masalan, S.Rushdi yoki O'.Pomuq), o'z vatani madaniyati bilan bog'liq bo'ladi-lar. Shu sababli uning talqinidagi «jahon adabiyoti» – bu lokal adabiyotning o'zining madaniy «boshqa» (altérité)si bilan tasavvuridagi uchrashuv joyidir. Aynan mana shuning uchun Demrosh tomonidan chiqarilgan «Jahon adabiyoti antologiya»si turli lokal adabiyotlar asarlaridan olingan par-chalardan iborat rang-barang to'plamdan iborat.

J.David esa zamonaviy sharoitlarda «vatan» (homeland) tushunchasi universal ma'noga ega emas, bugungi kun-da ko'plab yozuvchilarning kosmopolitizmi («kishi dunyo fuqarosidir» degan shior ostida vatanparvarlikni, xalqlar-ning mustaqilligini, milliy madaniyatni inkor etuvchi nazariya) ular o'rtaсидаги madaniy tafovutni bekor qilmaydi deb hisoblaydi.

Franko Morettining konsepsiysi uning «Jahon adabi-yoti haqida farazlar» asarida izchillik bilan berilgan. Olim unda bozor va adabiy shakllar aloqasi haqida fikr yuritadi va tabiiy fanlardan ilmiy tajriba ruhini, qat'iyat bilan muam-molarni ta'riflashni va ularni hal qilish usullarini topishni o'zlashtirish kerak deb hisoblaydi. «Yevropa romani atlasi» kitobida Moretti «Uchta adabiy Yevropa»ni ajratib ko'rsatadi: markaziya roman shaklining xilma-xilligi, asarlar yaratilayotgan va barqarorlik hukmronlik qilayotgan Fransiya va Angliyani kiritadi; o'rta adabiy Yevropa (Italiya, Ispaniya va Germaniya) bu shakllarni taqlid qilib o'rganadi, o'zlashti-radi va o'zgartiradi; periferiya (markazdan uzoq)dagi (Pol-sha, Ruminiya) o'z adabiyotiga markaziyning roman shakl-larini qabul qiladi, lekin ularni estetik transformatsiya qilishga madaniy zaxiralari yo'qligi bois taqlid qilish bilan cheklanadi. Morettining gaplariga qaraganda, u Gyotening «jahon adabiyoti» konsepsiyasiga nemis yozuvchisining niyat-maqsadlari bilan zamonaviy olimlarning uning g'oy-alarini amalga oshirishi o'rtaсидаги uzilishni namoyish qiliш uchun murojaat etgan. Axir qiyosiy adabiyotshunoslik

«Weltliteratur» tushunchasidan foydalanishda shoshqaloqlilik qilgan bo'lsa-da, ikki asr davomida zo'r-bazo'r Yevropa adabiy aloqalarini o'zlashtira oldi. Ehtimol, buning sababi o'n minglab matnlar komparativistlarning diqqat markazidan yiroqdaligidadir. Moretti uchun «jahon adabiyoti» obyekt emas, diqqatini adabiy matnlar (metafora, istiora, mavzular)ning alohida elementlariga qaratish emas, balki «xayoliy tajriba» bo'lganlidigidir. Bunda «adabiyot» tushunchasi filologiyada ma'lum darajada barqarorlik kasb etgan bo'lsa, «jahon» tushunchasi juda noaniq ekaniga e'tiborni qaratish lozim. Shu asnoda «jahon»ning mazmun-mohiyati o'zgarib bormoqda: XVI asrda bu Yevropa va Amerika, Osiyo va Afrika emas, XIX asrda «jahon» madaniy konsept sifatida G'arbiy Yevropa va Osiyo bilan birgalikdagi Sharqiy Yevropaga ajralib ketdi, faqat bu davrning so'ngidagina u «umumjahon mazmun» kasb etdi. Lekin shunda ham adabiyotlar o'rtasidagi almashishda tenglik yo'q, Moretti fikricha, bu haqida P.Kazanovaning «Adabiyotning jahon respublikasi» kitobi guvohlik beradi.

Xullas, Gyote konsepsiyasining ko'plab talqinlari mavjud ekanligi qayd etiladi, bular: «Jahon adabiyotini bir qator o'lmas asarlar majmuyi deb qabul qiluvchi klassik Gyote, milliy adabiyotlar o'rtasidagi tengsiz madaniy almashinuvni tadqiq etuvchi sotsiologik Gyote, madaniy almashishlarning bu kabi aspektlariga e'tiborini qaratgan strateg Gyote, komparativist Gyote va h.k.».

Zamonaviy fan Gyotening «jahon adabiyoti» konsepsiyasiga beziz murojaat qilmadi. J.Davidning fikricha, jahon adabiyotining makon yoki tizimini o'rganish uchun Gyote bu tushunchaga asos qilib olgan sezilar-sezilmas farqlarni tushunib olish kerak. Bugungi kunda bu tushunchani globallashuv bezovta qilayotganlar ko'proq ishlatmoqdalar. Globallashuv jarayonini tijoratlashirish, adabiyot sohasiga bozorning kirib kelishi deb talqin qilayotganlar aynan Gyotening fikrini dalil qilib ko'rsatmoqdalar.

ADABIY ALOQA TURLARI. KONTAKT ALOQA TIPOLOGIYASI. KONTAKT ALOQA SHAKLLARI

Qiyosiy adabiyotshunoslikning predmeti, maqsad va vazifalari haqida mutaxassislar tomonidan turli nuqtayi nazarlar o'rta ga tashlangan. Jumladan, A.N.Veselovskiy adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlarning maqsadi qiyoslashda va muqoyasani imkon qadar ko'proq faktlarga tatbiq qilishda deb hisoblab²⁰, turli davrlarda va xalqlarda yaratilgan epik ijod namunalarini suyjet o'xshashliklari asosida tahlil qiladi.²¹

V.Jirmunskiy esa insoniyat ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotidan kelib chiqib tarixiy-adabiy jarayonning birligi haqidagi konsepsiyanı ilgari suradi. U qiyosiy o'rganishning to'rtta muhim masalasi va ularga mos ravishda adabiy aloqaning to'rt xil shakli borligi haqida ma'lumot beradi:

1. Har qanday mukammal qiyosiy-tarixiy tahlilning asosini tashkil etuvchi adabiy hodisalarni oddiy qiyoslash shakli (V.Jirmunskiy ushbu masalani tilshunoslikdagi sinxron tahlilga qiyos qiladi).

2. Genetik jihatdan aloqada bo'limgan o'xshashliklarni jamiyat taraqiyotining o'xshash sharoitlari orqali izohlashga xizmat qiluvchi tarixiy-tipologik qiyoslash shakli.

3. O'xhash jihatlarni genetik qardoshlik mahsuli deb qarashga asoslangan tarixiy-genetik qiyoslash shakli.

4. Xalqlarning tarixiy jihatdan yaqinligi va ijtimoiy rivojlanish shart-sharoitlaridan kelib chiqib genetik aloqalarni adabiy hodisalar o'rtasidagi madaniy aloqalar, ta'sir hamda o'zlashtirmalar asosida belgilovchi muqoyasa shakli.²²

Bir qancha mutaxassislar V.Jirmunskiy ta'rif bergan uchinchi va to'rtinchi aloqa shakllari deyarli bir-birini takrorlashi va ularni birlashtirish mumkinligi haqida fikr

²⁰ Веселовский А.Н. Собр. соч. Т.8. В.1. – Петербург, 1921. – С.69.

²¹ Веселовский А.Н. Славянские сказание о Соломоне и Китоврасе. Собр. соч. Т.8. В.1. – Петербург, 1921. – С.46.

²² Жирмунский В.М. Эпическое творчество славянских народов и проблемы сравнительного изучения эпоса. – М.: Изд-во АН СССР, 1958. – С.6 – 7.

bildiradilar. Xususan, A.Dima qiyosiy adabiyotishunoslikning vazifasi uch turdag'i hodisalarni o'rganishdan iborat deb hisoblaydi.²³ Unga ko'ra, adabiyotlar o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri aloqalar (tarjima, ta'sir, o'zlashtirma); tipologik o'xshashliklar (genetik qardoshlikda bo'limgan, lekin ma'lum bir mavzu, miflar, obrazlar, janrlar, o'xshash adabiy oqimlarni tadqiq etishda namoyon bo'luvchi); milliy adabiyotlarning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish sohaning asosiy vazifasi sanaladi.

D.Dyurishin esa adabiyotlararo aloqa shakllarini ikki katta guruhga – kontakt-genetik aloqalar va tipologik o'xshashliklarga ajratadi.²⁴ D.Dyurishinning ushbu tasnifi hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini saqlab qolganligi bilan e'tiborga molikdir.

Xalqaro adabiy munosabatlarning asosiy turlariga quydigilar kiritiladi:

1. Adabiyotlar o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri munosabatlar yoki kontakt aloqa.

2. Parallelizmlar, ya'ni genetik yaqinlikni talab qilmaydigan, tipologik o'xshashliklar.

3. Adabiyotlarni har birining o'ziga xos strukturasini aniqlash maqsadida qiyoslaganda o'rnatiladigan bog'liqlik munosabatlari.

Birinchi navbatda, milliy adabiyotlar o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri munosabatlarga to'xtalib o'tamiz.

Turli adabiyotlarning to'g'ridan to'g'ri munosabatlari umumiy tartibdagi bir qator shart-sharoitlar, masalan, kitoblar almashinushi orqali sodir bo'ladigan mollarni ayirboshlash ham ko'maklashadi. Kitoblarning o'zi savdo bitimlarining mavzusiga aylanishi haqida gapirmasa ham bo'ladi. Tarixdagi ba'zi urushlar, masalan, antik, uyg'onish,

²³ Дима А. Принципы сравнительного литературоведения. – М.: Прогресс, 1977. – С.121.

²⁴ Диоришин Д. Теория сравнительного изучения литератур. – М.: Прогресс, 1979. – С.102.

Napoleon davri urushlari ham adabiy aloqalarni o'rnatishga, madaniyatni tarqatishga xizmat qilgan.

Jamiyat rivojlanishining turli davrlarida, qadimgi davr dan bizning kunlargacha alohida vaziyatlar taqozosi bilan xalqaro madaniy va adabiy aloqalarni yo'lga qo'yish uchun qulay sharoitlar tug'ilgan. Ma'rifatchilik davridagi bunday munosabatlarning mohiyati Pol Azar tomonidan butun tafsilotlarigacha o'rganilgan. XIX asr boshlarida bu aloqalar shu darajada kengayib ketdiki, I.V.Gyote 1827-yildayoq poeziya insoniyatning mulkiga aylangani va «umumjahon adabiyoti»ning shakllanish vaqtini kelgani haqida o'z fikr-muhazazalarini bayon qildi. XIX asr bo'sag'asida madaniyatning aql-idrokka asoslangan (ratsionalistik) konsepsiya (qarashlar tizimi)dan tarixiylikka o'tishi adabiyotlarning yaqinlashuvini, o'xshash va farqli tomonlarni kelgusida aniqlashga imkon yaratadi. Xalqlarning o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalari hozirgi globallashuv davrida ham shiddat bilan davom etmoqda. «Adabiy material»ni qabul qilishga yordam beruvchi mavzu, motiv, tur, g'oya, his-tuyg'u, janr, janr shakllari, kompozitsion qurilish, uslubning turli variantlari, she'r bandi qurilishi, she'r vazni, o'lchovi va uning nazariyasi kabi omillar komparativizmning «xabarchilar» yoki qiyoslanayotgan elementlar o'tasidagi «vositachilar» deb ham ataladi. Paul van Tigem hatto bu omillar bilan shug'ullanadigan fan bo'limini yunoncha «messologiya» so'zi bilan nomlashga harakat qilib ko'rgan edi.

Adabiyotlar o'tasidagi aloqalar tegishli tillarni bilishga asoslangan bo'lsa samarali bo'ladi. Demak, qiyosiy adabiyot shunoslikning eng muhim vazifalaridan biri turli mamlakat larga xorijiy tillarning kirish jarayonlarini o'rganishdan, ularni o'zlashtirish an'analarini hamda tarqalish doirasini aniqlashdan iborat bo'ladi. Bunday tadqiqotlar kam bo'lib, eng ahamiyatlisi J.Askolining «Buyuk Britaniya XVII asr fransuz ijtimoiy fikri nazarida» (1930) asari hisoblanadi. Unda ingliz tilining Fransiyada tarqalishi masalasi ham tahlil qilingan.

Boshqa tadqiqotlarda fransuz romantiklari – Gyugo, Lamartin, Vini, Myussenning Germaniyaga qiziqishi kuchli bo'lishiga qaramay, ular nemis tilini yaxshi bilmaganliklari ko'rsatib o'tilgan. Ko'pincha chet tillarining tarqalishiga oid masalalar lingvistlar tomonidan qisman yoritilgan, misol tariqasida Frezer Makkenzining «Angliya va Fransiya munosabatlarining lug'atda aks etishi» (1939) kitobini keltirish mumkin.

Adabiyotlar o'rtasidagi aloqalarni tiklashga yordam berган boshqa omillar qatoriga bir qancha yakka va jamoaviy «ositachilar»ni qo'shishimiz mumkin. Yakka tartibda faoliyat olib borganlardan ba'zilarining nomlari yaxshi tanish, bular XVIII asrda ijod qilgan fransuz yozuvchilar: abbat Leblank, abbat Prevo yoki Laplas ingliz adabiyotining Fransiyadagi «vakil»lari bo'lgan bo'lsa, Bonvil va Liyebo fransuz adabiyotini Germaniyada, Lenget esa Ispaniyada targ'ib qilganlar. Nemis she'riyatining Italiyadagi jarchisi Bertola bo'lgan. Angliya uchun fransuz madaniyatining eng ko'zga ko'rigan vakili Volter bo'lgan bo'lsa, Germaniya uchun de Stal edi. 1726-yili Angliyaga surgun qilingan Volterga inglizlarning falsafa, siyosatda erishgan yutuqlari, diniy bag'rikengligi, yakkahokimlikning har qanday shakliga qarshi chiqishlari katta ta'sir ko'rsatdi. Olingen taassurotlarning mevasi o'laroq yozilgan «Falsafiy nomalar»i 1733-yili Angliyada, bir yildan keyin esa vatanida nashr etildi. Ma'lum vaqt o'tgach, 1810-yili de Stal o'zining mashhur «Germaniya haqida» asarida Fransiyada nemis romantiklarining adabiy qarashlarini targ'ib qildi. Shu bilan birga, na «uzatuvchilar» va na «qabul qiluvchilar» tomonida bo'lman insonlar vositachiligidagi ham madaniy yoki adabiy aloqalar o'rnatilgan. Rumin adabiyotshunosi A.Dima mana shunday kishilar qatoriga Nikolaus Olagus bilan aloqalarni yo'lga qo'ygan gollandiyalik Rotterdamlik Erazmni qo'ydi. Syurixlik Bodmer va Braytinger ingliz adabiyotining Germaniyada ommalashishiga har tomonlama yordam ber-

dilar. XVIII asr oxirlarida yunon millatiga mansub ko'plab madaniyat arboblari nafaqat yunon va rumin madaniyatları o'rtaasida, balki fransuz ma'rifatchilik adabiyoti va shu davr rumin adabiyoti o'rtaasida vositachilik vazifasini bajardilar.

Chet el adabiyoti targ'ibotchilari qatoriga to'la asos bilan sayyoohlarni qo'shish mumkin. Ular Yevropa madaniyati o'choqlari bo'lgan Gretsiya, Italiya, Fransiyadan tashqari boshqa ko'plab davlatlarni kezib chiqib, ko'rgan-kechirganchalar haqida o'quvchilarini xabardor qildilar. Sayohatlar haqida ko'plab asarlar yozildi, hattoki Valter Skott, Gyote va Lev Tolstoy kabi buyuk yozuvchilar ham boshqa xalqlar hayotiga oid ma'lumotlarni ana shu asarlardan olganlar. Yozuvchilarining ko'p sonli badiiy asarlaridan tashqari taniqli komparativist olim Jan-Mari Karrenning «Fransuz sayyoh va yozuvchilari Misrda» asarini ham alohida ta'kidlash mumkin.

Ba'zi mamlakat va shaharlarning adabiy aloqalarni yo'lga qo'yishdagi alohida ahamiyati haqida so'z ketsa, birinchi navbatda, bir necha rasmiy tilga ega bo'lgan Shveytsariya va Yevropa qit'asining yirik madaniy markazlari bilan qo'shni Gollandiyani tilga olish o'rinli bo'ladi.

Shunday vazifani bajargan shaharlar qatoriga Fransiyaning Parij, Lion, Ruan, Germaniyaning Frankfurt-Mayn, Italiyaning Venetsiya shaharlarini kiritishimiz mumkin. Bundan keyin madaniyatlar va adabiyotlar o'rtaasida aloqalarni o'rnatishga katta hissa qo'shan ilmiy muassasalarini, birinchi navbatda, akademiya hamda universitetlarni aytib o'tish kerak.

Italiya (o'rta asrlarda Bolonya), Fransiya (Parij), keyinroq Germaniya (Berlin)ning yirik universitetlari ko'plab mamlakatlar bilan xalqaro madaniy aloqalarni o'rnatib, madaniy va adabiy boyliklarini ommalashtirishda muhim o'rin tutadi.

Akademiyalar haqida ham shunday fikrni aytish mumkin, masalan, Italiya akademiyasi uyg'onish davrida antik merosni faol o'zlashtirgan. Xalq va shaxsiy kutubxonalar-

ni ham yoddan chiqarmaslik kerak, chunki ularda turli xalqlarning kitoblari ham bo'lgan. Chet el adabiyotini targ'ib qilishda bosmaxonalar, kitob do'konlari, nashriyotlarning ham ahamiyati katta bo'lgan. Uyg'onish davrida Venetsiya gumanizm g'oyalarini G'arbiy va Sharqiy Yevropada yoyishda katta ishlarni amalga oshirgan nashriyotchilik markazlaridan biri bo'lgan.

Qadimgi davrlarda, ayniqsa, uyg'onish davrida adabiyotlarni yaqinlashtirishga xizmat qilgan jamoaviy omillar qatorida turli darajadagi hukmdorlarning saroylarini ham aytib o'tish kerak. Chunki bu yerlarda ko'pincha xorijiy shoirlar, faylasuflar, olimlar, masalan, Sharq hukmdorlari, jumladan, Amir Temur, Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Bobur kabi buyuk bobokalonlarimiz va Yevropa qirollari Fridrix II, rus podshosi Yekaterina II saroylarida boshpana topganlar.

Tabiat bo'yicha o'ziga xos bo'lgan adabiyot shaydolari guruhlari, to'garaklar, adabiyot salonlari ham chet el adabiyoti boyliklarini tashviqot qilishda ishtirok etdi. Shunday guruhlardan biri XVI asrda faoliyat ko'rsatgan Lion maktabi hisoblanadi. Ushbu guruh a'zolari: Moris Sev, Luiza Labe va boshqalar nemis va italyan madaniyatiga zo'r qiziqish bildirganlar. Ingliz adabiyotining ixlosmandlari bo'lgan fransuz yozuvchilari Stendal, Amper, Merimeni birlashtirgan guruh Shekspir va Ossianning asarlarini chuqur o'rganib, ommalashtirishga hissa qo'shgan. Har bir guruhning o'z tarafдорлари bo'lib, ular, odatda, adabiy nashriyotlar atrofida to'plangan.

Adabiy jamiyatlar boshqa mamlakatlar madaniy boyliklarini yoyishda katta xizmat ko'rsatdi. Xususan, Fransiyadagi «Pleyada» guruhining (Pyer Ronsar va uning do'stлари Jan Antuan de Baif va Joashen dyu Belle), avvalo, antik merosga, shuningdek, o'sha davrlarda uchinchi klassik adabiyot deb hisoblangan italyan adabiyotiga jiddiy e'tibori ahamiyatlidir.

XVIII asrning 80-yillariga kelib nemis va Yevropa romantizmiga asos bo'lgan adabiy jamiyat «Bo'ron va tazyiq» adabiy harakati edi. Unga Gyote, Gerder, adabiy harakatga nomi berilgan pyesa muallifi Maksimilian Klinger va davrning ko'plab boshqa yozuvchilar a'zo edilar. Harakat ma'rifatchilikka qarshi chiqdi, fransuz klassitsizmi bilan aloqalarni uzdi, biroq shu vaqtning o'zida Russuning, shuningdek, ingлиз adabiyoti vakillari Shekspir va Ossianning kuchli ta'siri ostida bo'ldi.

Tabiiyki, yirik jurnallar qoshida tashkil topgan adabiy jamiyatlar katta ta'sir kuchiga ega bo'lib, o'quvchilarni xorijiy madaniy boyliklar bilan tanishtirishda muhim amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Masalan, aka-uka Shlegellarning «Ateneum» jurnali qoshida tashkil etilgan to'garak 1798 – 1800-yillarda faoliyat olib bordi. Novalis, Shleyermixer, Shelling to'garakning faol a'zolari edi. To'garakda uyg'onish davri yozuvchilar – Dante, Petrarka, Bokachcho, Servantes ijodiga katta ehtirom bilan qaralar, Fridrix Shlegelning taklifiga ko'ra Dante, Shekspir, Gyote uchligi asarlari namuna sifatida qabul qilingan edi.

Keyinroq Fransiyada paydo bo'lgan romantik harakat ham o'z rivojlanishida Sh.Node tashkil etgan va o'z qatoriga Gyugo, Vini, Sent-Byov, Dyuma, Bulanje, Myussen ni jalb qilgan adabiy jamiyatlarga va «La muse française» (1823) va «Le Globe» (1824) jurnallariga tayandi.

Turli davrlarda adabiyotlararo aloqalarni rag'batlantirgan yana bir omil XVII asrda, avvalo, Fransiyada paydo bo'lgan mashhur salonlar edi. Eng mashhur uchrashuvlar joyi markiza de Rambuyening saloni edi, bu yerga ko'plab yozuvchilar, artistlar, olimlar jalb qilingan bo'lib, qizz'in bahs-munozaralar bo'lib o'tardi. Ushbu uchrashuvlar ortiqcha takallufsiz, odob-axloq doirasida, boadablik ruhida bo'lar edi. Tabiiyki, salonda chet el adabiyoti, avvalo, italyan adabiyoti haqida suhbatlar bo'lgan.

Salonlar urchga aylanib, to 1789-yil inqlobigacha to'xtovsiz paydo bo'lib bordi va asr oxirlarigacha davom etgan suronli voqealardan keyin yana yuzaga kela boshladi. Shundan keyin Yevropaning ko'plab mamlakatlari – Germaniya, Italiya, Avstriya, Rossiya, Ruminiyada ham salonlar paydo bo'ldi.

Adabiyotlar o'rtaida davriy nashrlar muhim vositachi bo'lib xizmat qildi: XVIII asrda bular «Journal étranger en France», «Gazette littéraire de l'Europe» bo'lsa, keyinagi asrda «Archives littéraires de l'Europe», «Révue britannique», «Révue germanique», «Révue de deux mondes», «Révue de Paris», «Mercure de France», «L'année littéraire», «Deutscher Mercur», «Conciliatore» edi. Bu jurnallar sahifalarida xorijiy adabiyotlarning sharhi yoritilar edi.

Chet el adabiyoti haqida ko'plab aniq ma'lumotlar berilgan lug'atlar, ensiklopediyalar, pedagogik asarlar ham mamlakatlar o'rtaida aloqalarni o'rnatishga o'z hissasini qo'shdi.

Shak-shubha yo'qki, adabiyotlararo aloqalarning mustahkam o'rnatilishida, birinchi navbatda, mos ravishdagi tillarda chiqarilgan kitoblar o'quvchilarga yetkazib berilishining ahamiyati katta edi. Ayniqsa, XVIII va XIX asrlarda italyan, fransuz, ingliz tillaridagi kitoblarga qiziqishning ortishi natijasida bosma nashrlar keng tarqaldi.

Biroq chet tillarda hamma ham o'qiy olmagani sababli o'quvchilar keng ommasiga asarlarni faqat tarjima, qayta ishlash, hikoya qilish, adaptatsiya (moslashtirish) vositasida yetkazish mumkin edi. Tarjima va u bilan bog'liq muammolarining ahamiyati ham shu bilan bog'liqidir. Tarjimalarning umumiyligi vazifasi asar mazmunini boshqa tilga imkon qadar aniq uzatish bo'lganligi sabab, tabiiyki, asl matn mohiyatini buzuvchi adaptatsiya va qayta ishlashlar ikkinchi darajali hisoblanadi. Shunga qaramay, ko'pincha tarjimonlar asar mazmuniga o'zlarining ijodiy hissasini qo'shish «vasvasasi»ga duchor bo'ladilar. Masalan, XVIII asrda fransuzlar Homer va uning qahramonlarini o'z davriga moslashtirishga urinib ularni saroy zodagonlariga aylantirishga harakat qilib ko'rganlar.

Uyg'onish davridan boshlab hozirgacha davom etayotgan qayta ishlashlar asar mohiyatini moslashtirishdan ham ko'proq noto'g'ri talqin qiladi. «Dekameron», «Don Kixot», aka-uka Grimmlar va Andersen ertaklari, xalq kitoblarining ko'plab variantlari mavjud bo'lib, ko'pchiligining mazmuni asl manbadan ancha yiroq. Masalan, Lafonten va I.Krilov masallarining T.Argezi tomonidan rumin tiliga qilingan tarjimasi originaldan shu qadar uzoqki, ular shoirning o'z asari sifatida qabul qilingan. Demak, adaptatsiyalar ham, qayta ishlashlar ham asl manbani buzadi.

Lekin adaptatsiya va qayta ishlashdagi turli-tuman chegaradan chiqishlarga qaramay, tarjimalar muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Yevropa romantizmi davrida ko'plab tarjimalar amalga oshirildi. Masalan, rumin olimi P.Kornining ta'kidlashicha, 1780-yildan 1860-yilgacha 300 tarjimon 679 ta asarni tarjima qilgan. Uning tadqiqotida ko'rsatilishicha, fransuz tilidan 385 ta, nemis tilidan 83, ingliz tilidan 56, yunon tilidan 44 ta asar tarjima qilingan.

YUNESKO tomonidan nashr qilinadigan «Index translatorium» tarjimalar xalqaro byulleteni ma'lumotiga ko'ra, ayniqsa, XX asrda tarjimalar soni ko'paydi. 1965-yilning 18-sonli katalogida 70 ta mamlakatda chop etilgan 31 196 ta tarjimalar sanab o'tilgan.²⁵

Tarjimonlar xalqaro federatsiyasi 1955-yilning sentyabridan ikki tilli tarjima muammolariga qaratilgan (fransuz va ingliz) «Babel» – «Bobil» jurnalini nashr eta boshladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, adabiyotlararo aloqa nuqtayi nazaridan bizni tarjimaning asl matnga maksimal daraja-da yaqinligi qiziqtiradi. Tarjima tarixida buzib qilingan tarjimalarning xorij adabiyoti haqida aniq tasavvurga ega bo'lishga qanchalik zarar yetkizgani to'g'risida ko'plab missollar keltirish mumkin.

Birinchi navbatda, asarning yaxlitligi buzilishi natijasida kelib chiqadigan xatolarga to'xtalib o'tish joiz bo'ladi.

²⁵ Дима А. Принципы сравнительного литературоведения. – М., 1977.

XVIII asr oxirlarida fransuz tiliga tarjima qilingan «Verter» bir necha marta Ossiandan olingen 12 sahifali parchasiz nashr etilgan, Richardsonning «Klarissa»si esa Fransiyada katta qisqartirishlar bilan chop etilgan. Bunday misollarni hozirgi tarjimalardan ham ko'plab keltirish mumkin. Matn daxlsizligini hurmat qilish har qanday asarni tarjima qilishdagi eng muhim shartdir.

Lekin bundan-da jiddiyroq «qoidabuzarlik» hatto matning daxlsizligi saqlangan bo'lsa-da, uning mazmuni va shaklini noto'g'ri yetkazishdir.

Ba'zi adabiyotshunoslari, masalan, rus yozuvchisi F.M.Dostoyevskiy tarjima uchun o'ng'ay yoki o'ng'ay bo'l-magan tillar bor deb hisoblaydi. Yozuvchining fikricha, fransuz va ba'zi boshqa tillar rus yozuvchilari asarlarining butun boyligi, jozibasini bera olmagan, aksincha, rus tili bunga ko'proq moslashgan va chet el mualliflarining asarlari mazmunini to'laqonli bera olgan.

Ma'lumki, tarjimadagi aksariyat noto'g'ri talqinlar tarjima qilinayotgan tillarni yoki tilni chuqur bilmaslik natijasida kelib chiqadi. Ba'zi buzib tarjima qilishlar tarjima muallifining falsafiy nuqtayi nazari bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, nasroniy yozuvchi Yang fransuz tarjimasida deistga, Ossian trubadurga aylanib qolgan bo'lsa, Ossian, Gyote va Shekspir romantiklar tarjimasida favqulodda hissiyotlarga berilgan shoirlar sifatida talqin qilinadi.

Noto'g'ri talqin qilishning tipik namunasi Shekspiring «Otello» tragediyasi bilan bog'liq. Gap shundaki, zodagonlarning hissiyotlarga beriluvchanligini haqorat qilib qo'yishdan cho'chigan tarjimonlar Dezdemonaning shoyi dastro'moli o'rniiga yo bilaguzuk, yo shoyi bo'yinbog', til-laqosh, to'g'nag'ichni ishlatganlar.

Tarjimaning asl matnga to'g'riliqi asar turiga ham bog'liq. Klassik asarlarni boshqa tilga tarjima qilish osonroq ekani hamma tomonidan e'tirof etilgan, chunki ularda assosiysi – g'oyaviy mazmun. Romantik va simvolistlarning

asarlarini tarjima qilish ko'proq kuch talab qiladi va ko'plab yo'qotishlarga mahkum etilgan.

Biroq turli qiyinchiliklar, noto'g'ri talqinlarga qaramay, tarjima san'ati XX asrda katta mahorat cho'qqilariga erishdi va bu mahorat darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, tarjimon asl nusxaga shunchalik ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'ladi.

O'zbek tarjimonlari Q.Mirmuhamedov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurov ham ko'plab asarlarni yuqori savyada o'zbek tiliga tarjima qildilar. Natijada rus va qardosh xalqlar adabiyoti hamda jahon adabiyotining eng yaxshi namunalarini o'zbek o'quvchisi ona tilida o'qiy boshladi.

Albatta, har qanday tarjimada matn daxlsizligini saqlab qolish juda mushkul vazifa bo'lib, kamchiliklar bo'lishi muqarrar. Shunday bo'lsa-da, har bir tarjima chet el adabiyoti yutuqlarini ommalashtirishga yordam bera-di. Shak-shubha yo'qliki, kamchiliklari bo'lishiga qaramay, tarjimalar madaniy boyliklarni, birinchi navbatda, badiiy asarlarni ommalashtirishda muhim vosita bo'lib qolaveradi. Shu bilan birga, tarjima qilingan asarlarga yozilgan so'zboshi va muqaddimalarda mualliflar haqida berilgan ma'lumotlar ham adabiyotlararo aloqalarni o'rnatishga yordam beradigan omillardan biri hisoblanadi.

Demak, yuqoridagi fikrlar asosida adabiy aloqalarni ikki turga – kontakt aloqalar va tipologik o'xshashliklarga ajratamiz. Kontakt aloqalar, o'z navbatida, adabiy jarayonga bevosita aloqalarsiz ta'sir ko'rsatuvchi tashqi aloqalar va milliy adabiyotlarning o'zaro ta'siri natijasida namoyon bo'ladigan ichki aloqalarga bo'linadi.

TASHQI ALOQALAR

Tashqi aloqalar adabiy jarayonga zohiran, ko'zga ko'rinishmaydigan ta'sir ko'rsatadi.

Komparativistika tarixida tashqi aloqalarni o'rganish gohida yuksalish, gohida esa tushkunlik pallalarini bosh-

dan kechirgan. Umuman olganda, u adabiyotlararo rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari tahlilining boshlang'ich empirik (tajribaga asoslangan) bosqichiga mos keladi. Tashqi aloqalarga bo'lgan katta qiziqish pozitivizm va postpozitivizmga oid davrlarga xos bo'lganligi uchun ko'pincha uni soddalashtirib va har doim ham to'g'ri bo'lman tu-shuncha bilan qiyosiy o'rganishning «faktografikligi» deb atashadi. Shu asnoda metodologik nuqtayi nazardan qaraganda, u ma'lumot to'plashning boshlang'ich bosqichi sanaladi. Shuning uchun tashqi aloqalarni o'rganish adabiy aloqalarni tadqiq qilishning dastlabki sharti hisoblanadi.

Tahlil qilishda g'oyaviy, ijtimoiy, madaniy hayotning turli sohalari bilan tashqi aloqalar namoyon bo'ladigan ko'pdan ko'p misollar orasidan adabiy jarayonga aloqasi bo'lganlarini ajratib olish muhim. Ilmiy tahlilning birinchi bosqichida tashqi aloqa sohasining ichki aloqa sohasi bilan, keyingi bosqichda esa tipologik soha bilan aloqasini ochib berish kerak. «Agar tashqi aloqa ma'lumotlarini adabiy va adabiy bo'lman omillarini chegaralash bosqichida tasniflash va kommunikativ tahlil metodi bilan qanoatlanish mumkin bo'lsa, bundan keyingi bosqichda sababli tahlil tamoyillaridan kelib chiqish kerak. Bu esa adabiy jarayoni tashqi aloqali soha va tipologik tomonlari sababli o'zaro bog'liqligi bilan o'rganishni taqozo qiladi». ²⁶

Bundan adabiyotlararo rivojlanishning bu sohasiga yetarlicha baho bermaslik mumkin emas va tadqiqot metodikasida unga yo'nalishni ko'rsatuvchi belgi sifatida qaramaslik kerak degan xulosaga kelish mumkin. Aksincha, qiyosiy o'rganishning maqsadi tadqiqot jarayonida tashqi aloqalarning u yoki bu ko'rinishlarini bo'lib yuborishni tabab qiladi. Chunki faqat har taraflama va ikir-chikirlariga-cha tahlil qilishgina ularning adabiy vazifasini aniqlash va sifatli tavsifini belgilash imkonini beradi. Shunday ekan, bu

²⁶ Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литератур. – М.: Прогресс, 1979. – С.104.

yerda adabiyotlararo tashqi aloqalarning shunchaki tavsifi emas, keng qamrovli, tizimli tahlil kerak.

Slovak adabiyotining romantizmdan realizmga o'tish davrida rus yozuvchisi Gogolga bo'lgan munosabat, avvalo, tashqi aloqa shaklida namoyon bo'lgan. Bular xabarlar, mulohazalar, tarjimalardan iborat edi. Ta'kidlash joizki, tarjimalar ma'lumot yetkazuvchilik vazifasini bajarsagina tashqi aloqalar turiga kiradi. Tarjimaning roli faqat tarjima qilinayotgan muallifning asari bilan tanishtirish emas, balki qabul qilayotgan adabiyotning ajralmas qismiga aylantirishda ko'rinsa, u ichki aloqaga aylanadi. Slovak adabiyotining ijodiy imkoniyatlari o'sgan davrdan boshlab ichki aloqalar kuchaydi, bunga Gogol ijodining Martin Kukuchin hikoyalari bilan qiyoslanishi misol bo'lishi mumkin.

Ichki va tashqi aloqalarni darajaga qarab (differensiat-siyalangan) ko'rib chiqish bevosita qiyosiy o'rganishning amaliy va nazariy natijalarida aks etsa, bilvosita u tadqiqot usullarini belgilaydi. Tashqi aloqalar bilan shug'ulanuvchi tadqiqotchilar adabiy aloqalar haqida bibliografik ma'lumotlar to'plashdilar, nari borsa, ularni konkret ijtimoiy-g'oyaviy vaziyat bilan qiyoslaydilar. Tashqi aloqalar haqida ma'lumotlarni to'plash materialni bibliografik tizimlashtirishning turli shakllariga qo'shilib ketadi. Ushbu ishning tarixiy obyektivligi va ahamiyatliligi tadqiqotching ma'lumotlarni klassifikatsiyalash orqali faktlarning funksional ahamiyatini aniqlashga qaratilgan shaxsiy qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Bunday ishlar bibliografik tadqiqotlar uchun o'ziga xos tayyorgarlik vazifasini bajaradi va obyektni chuqurroq o'rganish uchun dastlabki qadam bo'ladi; ikkinchi tomondan, bu ishlar jarayonida to'plangan tarixiy-adabiy ma'lumotlardan umumtarixiy yoki madaniy o'xhashliklarni tiklash uchun foydalanish mumkin.

Qiyosiy o'rganishning maqsadi adabiy hodisaning genetik va tipologik mohiyatini o'rganish bo'lgani sabab qiyosiy tahlil vazifasiga o'xhashliklarning alohida shakllari o'zaro

bog'liq jihatlarini aniqlash kiradi. Bu yerda gap adabiyotning ham ichki, ham tashqi xarakteri sabablari haqida bormoqda. Bu tadqiqotning keyingi bosqichi qiyoslanayotgan hodisalarda yuzaga chiqayotgan ko'plab turli-tuman aloqlarga yo'naltirilishi kerakligini anglatadi.

Adabiy aloqalarni ularning ahamiyatliligi darajasi bo'yicha farqlash muhim.

ICHKI ALOQALAR

Ichki aloqalar adabiy hodisalarni qiyoslash, ya'ni badiiy asar, muallif, maktab, milliy adabiyot singari tarixiy-adabiy birliklarni tahlil qilish, taqqoslash jarayonida namoyon bo'ladi. Bunda badiiy oqim, metod, janrlar, asarlar va badiiy tasvir vositalari qiyosi, ta'sirlarni aniqlash metodikasidan farqli ravishda, adabiy va ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarga izchillik bilan yondashishni taqozo etadi. Tarixiylik nuqtayi nazaridan tahlil qilishga asosiy e'tiborni qaratish o'xshashlikni mexanik tarzda alohida o'rganishga yo'l qo'ymaydi. Natijada «mavzu va shakliy o'xshashliklar»ga berilib ketishning oldi olinadi.

Qiyosiy tahlilning birinchi bosqichida hodisalarning o'xshashligi, keyingi bosqichda farqli tomonlari tamoyili-ga asoslangan qiyosiy tahlilda adabiyotlararo parallelar va o'xshatishlarning oddiy yig'indisiga ega bo'linadi va buning o'zi qiyosiy o'rganish doirasini chegaralab qo'yishi mumkin. Shu bois bunday qiyosni asosiy vazifasi materiallarni jamlash va ularni oldindan tasniflashdan iborat bo'lgan komparativistikaning dastlabki bosqichi deb bilamiz.

D.Dyrishin ichki adabiy aloqalarni o'rganish borasidagi ishlardan Natali Vulikning 1967-yili nashr etilgan «Pushkin va Ovidiy» tadqiqotini misol qilib keltiradi.²⁷

²⁷ Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литератур. – М.: Прогресс, 1979. – С.115.

Olima mazkur masala bo'yicha avvalgi tadqiqotlarga tayangan holda Ovidiy ijodining A.S.Pushkinga ko'rsatgan ta'sirini rus yozuvchisining «Lo'lilar», «Boris Godunov», «Yevgeniy Onegin» va «Metamorfozalar» («Evrilishlar») ning qiyosiga, birinchi navbatda, Tatyana va Biblis obrazlari o'rta sidagi bog'liklarga qaratadi. Vulik har ikki obrazni yaratishdagi alohida kompozitsion unsurlar bilan birga qahramonlardagi muhabbat tuyg'usining paydo bo'lishi va kuchayib borishi, nihoyat, sevgi iqrorining xat orqali bayon etilishini qiyoslaydi.

Shunga o'xshash yakuniy mantiqiy xulosaga ega bo'lma-gan ichki aloqalarni o'rganishga bag'ishlangan tahlillarning natijalari turli yo'sindagi asossiz talqinlarga yo'l ochib berishi mumkin. So'nggi yillarda adabiyotshunoslar e'tiborini tortgan masalalardan biri – G'arb modernizm adabiyotining o'zbek adabiyotiga ta'siri bo'yicha olib borilgan bir qator ilmiy ishlarni ichki aloqalar tadqiqi toifasidagi tahlil-larga qo'shish mumkin.

Xususan, X.Do'stmuhammadning «Bozor», T.Rustamning «Kapalaklar o'yini» romanlari, N.Eshonqul hikoyalari-da G'arb modernistik adabiyotiga xos bo'lgan jihatlar ijobiy o'zlashtirilgan. Bunday hol qahramoniar «men»i – ularning o'ziga xos ichki dunyosini ochib berishda ijobiy ahamiyat kasb etgan. Shu bilan birga, milliy adabiyotdagi an'analar, realistik tasvir prinsiplari izchil davom ettirilgani tadqiqotlarda ta'kidlangan.

Adabiy aloqalarni tashqi va ichki turlarga ajratish tarixiy-adabiy ahamiyatga ega. Chunki mazkur tasnif tadqiqotchi-ga adabiy hodisalarning ma'lum bir muhitda o'zlashtirilish izchilligini kuzatishga yordam berishi bilan ularning tarixiy ahamiyatini ham ochib beradi.

Ana shu nuqtayi nazardan, adabiy aloqalar vositasiz va vositali aloqalarga ajratiladi. To'g'ridan to'g'ri aloqalar o'zga adabiyot namunalari bilan hech qanday yordam-chi vositalarsiz munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Bun-

da faqat asl (original) matnga murojaat qilinadi. Qabul qilayotgan va qabul qilinayotgan tomonlarning vositasiz aloqalari tadqiqotchiga adabiy munosabatlar xarakterini to‘g‘ri baholash imkonini beradi. Bundan farqli ravishda, vositali aloqalarni o‘rganish birmuncha murakkab jaryon hisoblanadi. Chunki bunda uchinchi (yoki bir nechta) omil-vositachi namoyon bo‘ladi. Nazariy jihatdan, adabiy aloqalarda vositachi omili e’tirof etiladi. Lekin tadqiqotlarda ushbu omil yodga olinmaydi yoki uning roli yetarli darajada e’tirof etilmaydi. Biroq adabiy aloqalarni harakatga keltiruvchi «vositachi halqa» qonuniyatlarini o‘rganmay turib u yoki bu hodisalarning munosabatlari haqida yetarli darajada tasavvurga ega bo‘lish qiyin.

Bundan tashqari, agar vositachi rolini uchinchi milliy adabiyot o‘tayotgan bo‘lsa, uning tutgan o‘rnini batafsil o‘rganish dunyo adabiy jarayoni qonuniyatlarini tadqiq etishning ham uzviy qismi hisoblanadi.

Vositachilikning oddiy shakli publitsistik chiqishlardir. Bunda oddiy axborotdan boshlab ilmiy tadqiqotgacha bo‘lgan ma’lumotlar nazarda tutiladi. Vositachi vazifasini publitsistlar, adabiy tanqidchilar, tarjimonlar, noshirlar, shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari, radio, kino, televideniye ham bajarishi mumkin. XX asr boshlarida o‘zbek adabiyoti uchun vositachilik vazifasini rus va jahon adabiyotidan (rus tilidan) amalga oshirilgan tarjimalar, adabiy-tanqidiy maqolalar o‘tagan.


Adabiyotlararo aloqalardagi vositachilikning alohida shaklini badiiy tarjimalar tashkil etadi. Tarjima konsepsiysi va uning adabiyotlararo jarayonlardagi vazifasini o‘rganish qiyosiy adabiyotshunoslikning muhim komponenti hisoblanadi. Shu bois tarjimaning qiyosiy adabiyotshunoslikdagi o‘rni masalasi alohida mavzuda yoritiladi.

Adabiyotni qiyosan o‘rganishning mohiyatidan kelib chiqiladigan bo‘lsa, vositachilikning eng muhim va juda murakkab omili o‘z mamlakatiga oid yoki boshqa millatga

mansub adabiy-badiiy asar hisoblanadi. Juda murakkabligining sababi shundaki, asl matnga muvofiq ish ko‘ruvchi tarjimonidan farqli ravishda, asarning asl nusxasi o‘z badiiy boyliklarini subyektivroq «filtr»dan o‘tkazib beradi. Bu subyektivlik nafaqat muallifning badiiy o‘ziga xosligidan, bu bilan tarjimon ham duch keladi, shu bilan birga, asarning ichki qurilishi, uning qaysi janrga oidligidan ham kelib chiqadi.

Agar kommunikatsiya tarjimadan qabul qiluvchi to-monga ikki omil bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa: bir tomondan, tarjimonning g‘oyaviy-estetik profili, ikkinchi tomondan, qabul qilayotgan muallif, agarda asl manbaning o‘zi vosita-chi bo‘lsa, bunga yana bir muhim omil – qabul qilinayotgan asarning g‘oyaviy-badiiy strukturasi qo‘shiladi.

Jarayonning chex olimi Irji Devi tomonidan taklif etilgan jadvali



Rus adabiyotida bu masala yuzasidan V.A.Jukovskiy ijodi diqqatga sazovor bo'lib, u rus adabiyotini G'arbiy Yevropa balladalari an'analari va nemis «passiv» romantizmi muhiti bilan tanishtirdi. Uning Yevropa va nemis romantizmi adabiyoti va rus romantizmi vakillari (masalan, Batyushkov, Pushkin va b.) o'rtasida o'ziga xos vositachiligini o'rganish rus komparativistikasining ajralmas qismi hisoblanadi.

TARJIMA – KONTAKT ALOQA SHAKLI

Tarjimaning asosiy maqsadidan kelib chiqiladigan bo'lsa, uning eng muhim funksiyasi vositachilik bo'ladi. Bu funksiyani har tomonlama baholash uchun tarjima ishining amaliy metodikasi qiyosiy tahlilini amalga oshirish zarurati tug'iladi. Bunda konkret tilda ishlatiladigan tarjima usullari va yo'llarini ko'rib chiqish kerak. Tarjimaning vositachilik funksiyasi asl matn va tarjimadagi badiiy mazmunga ega bo'lgan ma'lumotlarning o'zaro munosabati bilan belgilanadi. Tarjima jarayonida tarjimonning poetikasi va qabul qilayotgan muallifning poetikasi bilan bog'liq bir qator muammolar paydo bo'ladi.

Tarjima nazariyasida tarjima turli nuqtayi nazaridan talqin qilinadi. Tarjima nazariysi original va tarjima o'rta-sidagi qonuniyatlarni taqqoslaydi, ulardan ilmiy-nazariy xulosalar chiqaradi. Tarjimonlar esa ma'lum nazariy qarashlar tizimiga asoslanib ish ko'radilar. Tarjima ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganiladi. U til bilan uzviy bog'liq bo'lib, adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilganda ham til xususiyatlarni o'rganish muammosi ko'ndalang bo'ladi. Yaqin vaqtgacha badiiy asarlarning qanday tarjima qilinganligini ko'rsatish uchun uning qanchalik «sodda» va «tushunarli» ekanligi asosiy o'lchov mezoni qilib olinar edi. Lekin tarjimonidan tarjima etilayotgan asarning umumiyligi mazmuni va g'oyasini yoki yozuvchining o'ziga xos tili va uslubi, badiiy mu-

shohada shaklini emas, umuman, asarning asosiy bisotini – ichki harorat va badiiy xususiyatlarini to‘la aks ettirishni talab qiladi. Shu narsani ta’kidlash kerakki, nazarimizda, tarjimani va tarjimaga oid turli konsepsiyalarni taddiq qilishda adabiyotlararo aloqa va munosabatlar bilan shug‘ullanuvchi komparativistikaning ishtiroki yetarli darajada emas. Qiyosiy xarakterdagи har qanday tadqiqot o‘z tarkibiga tarjima masalalarini ham kiritadi.

Filologyaning tarjima masalalariga qiziqishi aksariyat hollarda globallashuv jarayonida inson faoliyatining barcha sohalarida xalqaro aloqalarning yanada rivojlanshi bilan bog‘liq. Tarjima amaliyoti va nazariyasiga tashqi omillardan tashqari katta e’tibor qaratila boshlanishining sabablaridan biri tilshunoslik va adabiyotshunoslik ichida sodir bo‘layotgan differensiatsiya jarayoni bilan bog‘liq. Badiiy tarjima sohasida badiiy obrazni tahlil qilish va boshqa tilga tarjima qilish jarayonida asarning birinchi o‘ringa chiquvchi elementlariga e’tibor ustunlik qiladi. Shu sababdan tadqiqotning boshlang‘ich nuqtasi tarjima jarayonida gi muammolarning o‘zi, ya’ni tarjima ishining mexanikasi bo‘lib qoladi. Bunga tarjimada adabiy asarning milliy o‘ziga xos koloritini, ayniqsa, til vositalari sohasida, qofiya, vazn va she’r tuzilishining boshqa elementlarini saqlab qolish kabi masalalar kiradi. Shunday qilib, tarjima nazariyasi va tarjima texnikasini o‘rganish, avvalo, nimani tarjima qilish, qay darajada «aynan» tarjima qilish, nimani va nima uchun o‘zgartirish va moslashtirish kerak kabi savollarga javob hamda tavsiyalar berishga qaratilgan.

Tarjima genetik aloqalar doirasiga taalluqli bo‘lib, uning asosiy vazifasi bir mamlakat adabiyoti bilan boshqa mamlakat adabiy jarayoni o‘rtasidagi aloqalarni qo‘llab-quvvatlashdan va ikki yoki undan ortiq adabiy tizimlarni ichki qiyoslash mumkin bo‘lgan o‘lchovlarini ta’minlashdan iborat. Bunda qay tarzda tarjimani genetik adabiyotlararo aloqalar jarayoniga qo‘sish mumkin degan savol paydo bo‘ldi. Shu

paytgacha bu jarayonni tizimli ko'rib chiqishda tarjimani ta'sir etishning muhim shakli deb baholash an'anasi ustunlik qilib kelgan.

Darhaqiqat, tarjimani adabiyotlararo aloqaning ifodasi sifatida ta'sir ko'rsatish yoki o'zlashtirishning namunasini deb qarash mumkin. Biroq ko'pincha tarjima qilingan asar qabul qilayotgan adabiyotda har doim ham uning rivojlanishiga, samarali an'analariga, hatto xronologiyasiga mos kelavermasligi mumkin. Bu holatda tarjima aloqalarning tashqi kontakt sohasiga taalluqli bo'lib, uning ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari past bo'lishi yoki umuman bo'lmasligi mumkin. Tarjima usullari va konsepsiysi tahlili natijalaridan kelib chiqib uning tashqi aloqa yoki ichki aloqa sohasiga tegishli ekanini aniqlash mumkin.

Ammo genetik yondashuv tarjimani kengroq doirada ko'rib chiqishni inkor etmaydi, chunki tarjima o'z tabiatiga ko'ra ko'pincha adabiy hodisa, u kengroq qamrovga ega bo'ladi. Ba'zi tomonlari bilan u tipologik doiraga kiradi yoki unga ichki bog'liq bo'ladi. Bunda adabiyotlararo munosabatlar jarayonida tipologik va genetik o'rinnarning o'zaro bog'liq va o'zaro kesishgan bo'lishi mumkinligi haqidagi tezisning qo'shimcha tasdig'ini ko'rish mumkin.

Asarni tarjima uchun tanlash tadqiqotchining diqqatini adabiyotlararo aloqalar uchun *qabul qilinayotgan* tomondan, asosiysi, *qabul qilayotgan* adabiyot tomonidan tipologik asoslar muammosiga olib boradi. Tarjima amaliyotidan ma'lumki, aksariyat hollarda tarjimonlar, ayniqsa, ijodiy fikrlovchi tarjimonlar asar tanlayotganda qabul qilinayotgan asarga ehtiyoj borligi, o'zga adabiyotga xos bo'lgan adabiy hodisa yoki asarni o'zlashtirishga tayyor ekanini e'tiborga oladilar.

Buning isbotini tarjima tarixidan olingan har qanday milliy adabiyotga qilingan son-sanoqsiz tarjimalar misolidan topishimiz mumkin. XX asrning 30-yillari o'zbek adabiyotida buni ko'plab o'zbek yozuvchilari tomonidan rus

adabiyoti, mustaqillik yillaridan boshlab esa jahon adabiyoti namunalarining faol tarjima qilinishi misolida ko'rish mumkin. Adiblar tarjima uchun asar tanlayotganda, birinchi navbatda, dolzarb ijtimoiy-siyosiy, madaniy talablar, o'zbek adabiyotining an'analariga tayanganlar.

Tarjima adabiyoti uzviy ravishda milliy adabiyotlarning tadrijiy rivojlanish jarayoniga qo'shilib ketadi, qaysidir ma'noda ulardagi kamchilik va yetishmovchiliklarni to'ldiradi, shu orqali adabiyotlar o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in sifatidagi vazifasini bajaradi.

Biroq adabiy jarayonning holatini aksariyat hollarda tanlov emas, tarjima metodi, u yoki bu tarjima usullarining qo'llanishi belgilaydi. Bunda, avvalo, asarning qaysi janr yoki uslubga mansubligini ko'rsatuvchi badiiy-adabiy belgilarini tarjima qilish nazarda tutiladi.

Tarjimonning asl matnga individual yondashuvi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda nazmiy va nasriy asarlarni tarjima qilishda qo'llaniladigan usullarni qiyoslash jiddiy yordam berishi mumkin, chunki ko'pincha poetik matn tarjimonga nasriy tarjimaga nisbatan o'zgacha talablar qo'yadi. Nazmda nutqiyl ifoda nasrga qaraganda ko'proq majburiy tabiat kasb etadi, shuning uchun vazn, band, qofiya va sh.k.lar asl matn bilan tarjimani qiyoslashda yo'llanma vazifasini bajarishi mumkin. Bu tarkibiy qismlar nazmiy asarning badiiy tuzilishida shu darajada muhim ahamiyat kasb etadiki, poetik tarjimani tahlil qilishda ko'pincha ularni qiyoslash bilan chegaralaniladi, ammo bu tahlilning samarasini kamaytiradi. Bu sof yuzaki yondashuv bo'lib, bunda, odatda, asarning badiiy hodisa sifatidagi o'ziga xos poetikasi e'tibordan chetda qoladi.

Bundan tashqari, poetik tarjimani tahlil qilishda so'zning leksik birlik sifatidagi ahamiyatini e'tiborga olish kerak, bunda asarda ma'no, obrazlilik va his-tuyg'u birinchi o'ringa ko'tariladi. Shu bilan birga, she'riyatning boshlang'ich birligi bo'lgan so'z shakl bilan chambarchas bog'liq yoki uni o'ziga

bo'ysundiradi yo uning talablariga o'zi moslashadi. Shaklning obrazlilikning ifodalovchisi bo'lgan so'z bilan bunday aloqasi tadqiqotchiga tarjimonlikka oid usul va uslublarni asos qilib olsa bo'ladigan mezonlardan birini beradi.

Nasrda, odatda, bu vazifani nutq ifodasining sintaksik strukturasi, iboraning kompozitsiyasi bajaradi. Biroq nasrda, bir tomondan, shakl komponenti, ikkinchi tomondan, iboraning sintaksik tuzilishi she'riyatdagi so'z va shakl aloqasi bilan aynan bir xil bo'lmanligi sababli u tarjima tahvilida hal qiluvchi omil bo'lmaydi. Bu yerda sintaksis va shakl munosabati o'ta qat'iy bo'lmanani sababli tarjimonda uni o'zga tilda jonlantirish uchun imkoniyat yanada kamroq. Shu va shunga o'xshash boshqa holatlar nasriy asarlar tarjimasini yanada murakkablashtiradi. Shuning uchun tarjimaning nazmiy va nasriy usullarini o'zaro qiyoslash, ayniqsa, maqsadga muvofiq, chunki u tarjimonning asl nusxaga nisbatan subyektiv munosabatini ochishga yordam beradi. Ko'rinish turibdiki, tarjima haqidagi aniq tasavvurni shakllantirish uchun bir qator tashqi va ichki, obyektiv va subyektiv jihatlarni e'tiborga olish zarur bo'ldi.

Tarjimani tahlil qilishda albatta uning adabiy hayotdagi o'rnnini, ya'ni uning adabiyotlararo munosabatdagi kommunikativ funksiyasini e'tiborga olish zarur. Ushbu funksiya tarjimaning tanlovi va poetikasini, shu bilan birga, u yoki bu davrda milliy adabiyotda ustuvorlik qilayotgan tartib va qoidalarni o'rganishni ta'minlaydi. Tarjima qonun-qoidalari va yuqorida ta'kidlangan jihatlar hamda ular bilan bog'liq holatlar haqida faqatgina abstrakt tasavvurga asoslangan tarjimani har qanday «obyektiv» baholash to'laqonli bo'lmaydi. Nazariy fikrlardan ko'chirmalar olib yoki aniq bir tarjima amaliyotiga tayanib tarjimonlik faoliyatining zaruriy shartlaridan bo'lgan qiyosiy tadqiqotlarsiz tarjima nazariyasini haqida fikr yuritib bo'lmaydi.

Tarjimaga mos holda qo'llaganda so'zlarni «almashtrish» emas, aksincha, ma'lum ma'noda badiiy asarning bu-

tun tizimini, tuzilishini «almashtirish» masalasi ko'tariladi. Gap so'z elementlari yordamida asl matn tizimida paydo bo'lувчи yaxlit tizimdagi elementlarni boshqa tilga o'girish haqida boradi. Tarjimon o'zi uchun bu yaxlitlikka erishish usulini, badiiy asar mustahkamligini ta'minlovchi tamoyilni aniqlab olishi kerak. Shunday qilib, tarjimonning vazifasi bu tamoyilni aniq bilib olish va ushbu asarga aniq yondashuvni ishlab chiqishdan iborat bo'ladi.

Tarjima adabiyotlararo o'zlashtirishning o'ziga xos va muhim shakli hisoblanib, uni o'rganishda tarjimonning asarga yondashuvidan tashqari yana ko'plab obyektiv va subyektiv omillarni ham e'tiborga olish zarur. Asl matn (original)ga har jihatdan mos tarjima deganda unda mavjud bo'lган barcha ma'lumotlarning o'zga til sistemasida yangi shaklga kirishi nazarda tutiladi. Bunda asl matn informatsiya (axborot)ning yagona manbai, tarjimaning til sistemasi esa yagona kodi bo'lib qoladi.

Biroq har jihatdan mos tarjima deb qabul qilingan asarda ham noaniqliklar va o'zgarishlar bo'ladi. Ular quyidagi holat va omillarda namoyon bo'ladi:

- 1) tarjimaning yangi til sistemasi o'zining obyektiv alovmat va belgilari bilan asl matnning mazmun-mohiyatini to'la-to'kis ochib bera olmasligi tabiiy;

- 2) tarjimonning zehn, idrok, moyillik, tajriba darajasi asarni qayta kodlashtirish jarayonida asl matndagi nimanidir to'liq berishga yoki nimanidar nazardan qochirishga olib keladi;

- 3) tarjimonning asl matnning barcha xususiyatlarini ifodalash yoki ifodalamaslikka moyilligi.

Ushbu obyektiv va subyektiv shartlar tarjima sifati daramasini belgilab, mezon vazifasini bajaradi.

Tarjima metodini (tarjimonning asl matn ma'nosini to'liq tushunishi va uni qayta kodlash qobiliyati) o'rganish butunlay boshqa vazifani hal qilishni talab etadi. Ushbu nuqtayi nazardan yondashilsa, tarjimadagi o'zgarishlarning obyek-

tiv holat va omillari ahamiyatli emas, chunki asl matn bilan tafovutlarning sababi tarjimonning shaxsiyati bilan bog'liq emas. Aksincha, asl matnni izohlashda tarjimonning o'ziga xos usullarini tekshirish uchun ushbu omilning harakat doirasini iloji boricha aniqroq belgilash lozim.

Tarjima qabul qilayotgan adabiyot sifatida o'zining funksional o'rni bo'yicha ikki qarama-qarshi nuqtayi nazarni ifodalashi mumkin, ular orasida esa asl matnning turlicha talqinlari joylashadi. Ulardan biri tarjimaning vositachilik funksiyasi bo'lsa, ikkinchisi o'z «vakolati chegaralaridan chiqib ketgani» sababli adabiyotlararo munosabatlarning o'ziga xos shakli sifatida qabul qilingan funksiyadir.

Birinchi funksiyani aniqlash qiyinchilik tug'dirmaydi, asl matndagi ma'lumotlar nisbatan obyektiv, sezish mumkin darajada bo'ladi. Tarjima ma'lum ma'noda o'zining boshlang'ich holatidan chiqqan paytdan boshlab vaziyat murakkablashadi, asl matn bilan o'zaro munosabatlar erkinroq bo'la boshlaydi.

Asl matnga muallif va tarjimonga oid munosabatning aniqroq chegarasini o'rnatishning imkoniyati bormi?

Qisman bu muammoni aniqlik va to'g'rilik tushunchalari o'rtasidagi semantik antinomiyadan foydalanib hal qilish mumkin. Masalan, rus tarjimonlaridan biri Shekspirning «Otello»sini tarjima qilganda uning hajmini asl matndan deyarli 60% ga oshirib yuborgan, yana bir tarjimon (T.Shekspina-Kupernik) esa fransuz adibi Edmon Rostanning «Sirano de Berjerak» komedyasi matnnini bir yarim martaga kattalashtirgan. Qizig'i shundaki, asl matnga erkin yondashib, juda ham aniq tarjima qilinmagan bo'lsa-da, o'quvchi va tomoshabinlar ularning moslashtirilgan (adaptatsiya) asarlarini tarjima deb baholaganlar.

Shu tarzda miqdoriy o'lchov tarjimada hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi. Asl matn «qisqartirilgan» yoki «kengaytirilgan» tarjimalarga jahon va o'zbek tarjimonshunosligidan ko'plab misollarni keltirish mumkin. O'zga

millat badiiy matniga bunday munosabat, noaniqliklar bo'lsa-da, asl matnga nisbatan to'g'rilikni saqlab qolganligi uchun tarjimachilik faoliyati sohasiga kiritiladi.

Buning yaqqol dalilini Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari-da o'ziga xos o'rinni va ahamiyatga ega bo'lgan hind eposi «Kalila va Dimna»ni yoki ushbu asardagi «Zarang va qamish», «Pashsha va chumoli», «Sudda bo'rining tulkiga shikoyati maymun tomonidan ko'rib chiqilganligi», «Sher, bo'ri va tulki», «Sherni ko'mish marosimi» masallaridan foydalanib masallar yozgan fransuz shoiri Jan de Lafontenning «asl matn»-larini juda aniq, xuddi o'ziday rus tilida qaytargan I.A.Krilov ijodida ko'rish mumkin. Shunga qaramay, ular tarjima emas, balki original, mustaqil ijod namunasi sifatida qabul qilinadi, chunki ular o'z xarakteriga ko'ra «Kalila va Dimna»dagi masallarga «to'g'ri kelmaydi». Gulxaniy, Lafonten, Krilov masallari shunday yangi sifat darajasiga ko'tarildiki, natijada ular birlamchi ma'nosini yo'qotib, o'z shaxsiy poetikasiga ega bo'ldi. Masalnavislari shu darajada hind eposidagi umumiy kolorit, masallarning ruhini o'zgartirib yuborib o'z vatanlari urf-odatlari, rasm-rusumlari, taomillariga «moslashtirdilar-ki», asl matn bilan g'oyatda sinchkovlik bilan qiyoslanganda ham hech qanday ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Shunday qilib, ushbu holatda tarjima emas, balki qadimgi hind eposidan ta'sirlanib yozilgan mustaqil ijod haqida fikr yuritish mumkin.

Asl matnga munosabatlarning xilma-xilligi adabiyotlararo retsepsiya shakllarining turli-tuman bo'lishini oldindan belgilaydi va ular adabiyotni qiyosiy o'rganish hamda tarjima nazariyasi mutaxassislarining tadqiqot obyekti bo'ladi. Tarjimonning rejasiga asl matnni hech bir o'zgartirishlarsiz o'girish kirmaydi, aksincha, u tarjiman ni o'z g'oyaviy-estetik qarashlar tizimiga mos qilib berishga harakat qiladi. Buning natijasida asl matn va tarjimon tasavvurida yaratgan, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan sintezlashgan asar paydo bo'ladi. Bu tarkibiy qismlarning

o'zaro nisbati moslashish tabiatini belgilaydi, shu bilan birga, uni tarjima sohasidan ajratib olish hamda faqat qabul qilish shakli sifatida baholash imkonini yaratadi.

Asli yunonistonlik bo'lgan qadimgi Rim shoiri Liviy Andronik Homerning «Odisseya» dostonini lotin tiliga tarjima qilgan. Yevropa adabiyoti tarixida birinchi badiiy tarjima namunasi sifatida baholangan mazkur tarjima Rim adabiyotining birinchi yozma yodgorligi bo'lish bilan birga qariyb ikki asr davomida maktablarda asosiy o'quv kitobi bo'lib xizmat qilgan.

Liviy Andronik asar tarjimasiga erkin yondashadi. Ko'p o'rirlarda misralar qisqartirilgan, tashlab ketilgan, obrazlar o'zgartirilgan, yunon mifologiyasidagi ma'budlarning nomlari lotin ma'budlari nomi bilan almashtirilgan. Andronikdan keyin ham tarjima sohasida originalning butun xususiyatini saqlab qolish emas, balki asarni Rim davlatining madaniy ehtiyojiga moslashtirish tamoyili yetakchilik qildi.²⁸

Adaptatsiyaning yorqin namunasi sifatida M.Sh.Feriyenchik tomonidan taniqli rus yozuvchisi N.V.Gogolning «Revizor» komedyasi slovak tiliga qilingan tarjimasini ham keltirish mumkin. Tarjimon asar voqealarini Slovakiyaga ko'chirdi, mos ravishda ko'plab voqealar va personajlarni mahalliy sharoitga moslashtirdi. Albatta, bu komedyani slovak o'quvchisi va tomoshabiniga yaqinlashtirdi.

Mohiyatan har qanday ijodiy tarjimada asl matnning tarkibiy qismlarida o'zgarishlar sodir bo'ladi, biroq u adaptatsiya guruhiга bu o'zgarishlar barcha tomonidan qabul qilingan me'yordan oshib ketsa, bundan tashqari, tarjimonning ma'lum bir maqsadi bilan yuzaga kelgan bo'lsa kiritiladi.

Adaptatsiyaning daraja va tabiatи muallifning asl matnga munosabati, agar gap alohida tarixiy davrdagi asar haqidagi borsa, unda uning janr va uslubga oid tizimiga, qabul

²⁸Хамдамов У., Қосимов А. Жаҳон адабиёти. – Тошкент: Баркамол файз медиа, 2017. – Б.73.

qilayotgan, ya'ni tarjimonning adabiyotiga nisbatan dolz-arbligiga, o'sha zamonning adabiy an'analariga qarab turli-tuman bo'lishi mumkin. Barcha tomonlarni hisobga olib asl matnning bir qator elementlari adaptatsiyaga uchrashish mumkin. Asar o'z mamlakatining adabiy didi yoki kitobxonga moslashtirilishi – voqeа joyi cheklanishi, vaqt chegaralari va asar personajlari va h.k. o'zgarishi mumkin.

Goratsiyning «Exegi monumentum» she'ri milliy adabiyotlardagi ko'plab tarjimalari adaptatsiyaning turli-tuman ko'rinishlariga misol bo'ladi. U yoki bu asar tahlil qilin-ganda vatandoshlarini asl matn bilan tanishtirish ishtiyoqi oxir-oqibat tarjimonning Goratsiyning qasidasiga o'z shaxsiy variantini qo'shish niyati paydo bo'lishini kuzatish mumkin. Bu bilan adaptatsiya ko'pincha o'xshashlikning boshqa turi – variatsiya bilan kesishadi. Agar rus shoiri Derjavinning «Haykal» she'ri Goratsiyning qasidasi bilan qiyoslansa, birinchi ikki band Rim shoirining aniq ijodiy tarjimasi bo'lsa, qolganlari adaptatsiya tamoyillari assosida shu darajada o'zgartirilganki, asl matndan hech narsa qolmaganini ko'rish mumkin.

Buyuk polyak shoiri A.Mitskevichning «Exegi monumentum» she'ri ham o'xshash tabiatga ega bo'lib, unda ham Goratsiyning mavzusi qayta ishlangan, shu bilan birga, unda adabiy travesti²⁹ elementlari mavjud, bu nuqtayi nazardan, uni retsepsiyaning differensial shakliga kiritish mumkin.

Asl matn: Goratsiyning she'ri

*Men misdan o'rnatdim mustahkam haykal,
Ehromlardan yuksak ulug'vor basti.
Vayron qila olmas uni hech mahal
Akvilon shamoli, na yomg'ir asti.
Vaqt chopib borar, o'tar yil safi,
Biroq men o'lmasman, ruhim oliya.*

²⁹ Travesti – xotinlarning erkakcha yoki erkaklarning xotincha kiyinib rol o'yynashi.

Faqat jismim ketar Libitinadan,
 Meni qayta chorlar Kapitoliya.
 Oliy kohin borar bokira qiz-la,
 Ismim aytib oqar Aufid yo'lida.
 Chunki men kuyladim muqaddas so'z-la
 Cho'pon qabilasi Davn elida.
 Eol qo'shiqlarin kuyladi torim,
 Italiy yo'liga jo'natdim abad.
 Melpomena, qabul et iftixorim,
 Delfa toji bilan boshimni bezat.

(Rustam Umrzakov tarjimasi)

Derjavinning tarjimasi yoki adaptatsiyasi:

Я памятник себе воздвиг чудесный, вечный,
 металлов тверже он и выше пирамид;
 ни вихрь его, ни гром не сломит быстротечный,
 и времени полет не сокрушит.

Так! Весь я не умру, но часть меня большая,
 от тлена убежав, по смерти станет жить,
 и слава возрастет моя, неувядая,
 доколь славянов род вселена будет чтить.

Слух пройдет обо мне от Белых вод до Черных,
 где Волга, Дон, Нева, с Рифея льет Урал;
 всяк будет помнить то в народах неиссчетных,
 как из безвестности я тем известен стал,

что первый я дерзнул в забавном русском слоге
 о доблестях Фелицы возгласить,
 в сердечной простоте беседовать о боже
 и истину царям с улыбкой говорить.

О муза! Возгордись, заслугой справедливой,
 и, презрит кто тебя, сама тех презираи;
 непринужденною рукой, неторопливой,
 чело твое зарей бессмертия венчай.

O'zbekchasi:

Haykal

*Qo'l bilan tiklab bo'lmas haykal qo'ydim o'zimga,
Xalqning kelar yo'lini o't-o'lanlar qilmas band;
U mag'rur qad ko'tardi bosh egmasdan ta'zimga,
Aleksandr qubbasidan ham baland.*

*Yo'q, butunlay o'lmayman – qalbim yashar liramda,
Tuprog'im-la chirimay yashaydi u toabad,
To biron shoir-poir qolar ekan olamda,
Meni sira tark etmaydi shon-shuhrat.*

*Ovozim-la chulg'anar poyoni yo'q ulug'Rus,
Undagi el-elatlar meni yodlaydi har dam,
Mag'rur slavyan nasli, bugungi avom tungus,
Fin xalqi-yu dashtlar do'sti qalmoq ham.*

*Uzoq zamon xalq mehriga bo'lajakman musharraf,
Zotan, rubobim bilan ezgu hislar tug'dirdim,
Shu yovuz zamonamda kuyladim erkni maqtab,
Xor-zorlarga achinmoqqa chaqirdim.
(Pushkindan Ramz Bobojon tarjimasi)*

SAN'AT TURLARINING VOSITACHILIK FUNKSIYASI

Yuqorida adabiyotlararo badiiy boyliklar bilan almashishda o'zga millat adabiyoti haqida turli publitsistik, adabiy-tanqidiy va tarixiy-adabiy nashrlar vositachilik funksiyasini bajarishi haqida, keyin aynan shu vazifani badiiy asarlar ham o'tashi, nihoyat, badiiy tarjimaning vositachilik funksiyasi haqida ma'lumot berildi. Shu bilan birga, ma'naviy madaniyatning boshqa shakllari ham vositachilik vazifasini bajarishi mumkinligini yoddan chiqarmaslik kerak. Ular orasida tasviriy san'at va kino birinchi darajali hisoblanadi.

Qiyosiy o'rganish fanini kengaytirishga bo'lgan intilishlar real asosga ega. Buning dalili sifatida badiiy-adabiy

matn uzviy tarkibiy qism bo'lgan, adabiyotga yaqin janrlar deb ataladigan opera, kinofilm, dramatik asar bo'yicha sahnalashtirilgan teatr spektakli janrlarini keltirish mumkin. Bular dan keyingi o'ringa yozma matnga o'ziga xos talqin beruvchi, badiiy asarlarga ishlangan illyustratsiyalar qo'yildi. Adabiy matnlar asosida yaratilgan musiqiy asarlarni ham shu qatorda keltirish mumkin. O'z navbatida, turli davrlarda, turli mualliflarga badiiy asarni yaratishga undovchi sabab vazifasini bajargan tasviriy san'at, me'morchilik asarlari, musiqa yoki raqs ham misol bo'la oladi.

San'atning har xil turlari o'ziga xosligi kommunikativ kodning bir xilda tuzilganligi, badiiy tilning bir elementdan iborat ekanligi bilan izohlanadi. Bunda kommunikativ doira ichida ma'lumotlar va o'xshashliklar o'ta murakkab tarzda o'zaro bir-biri bilan kesishadi. Turli san'atlarning aloqalari, daraja va shakllari, jadalligi va o'zaro munosabatlarning funksionalligi san'atlarni qiyosiy o'rganish mavzuyi bo'lib, san'atshunoslikka daxldordir.

Shunga qaramay, san'atlarning aloqasi qiyosiy adabiyotshunoslik shug'ullanadigandan mutlaqo boshqa soha hisoblanadi. Adabiy komparativistika adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi bo'lsa, san'atlarni qiyosiy o'rganish sohasi undan anchagina keng maydonni tashkil qiladi. Badiiy faoliyatning turli sohalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganish nafaqat san'atning u yoki bu turini bilishga, balki badiiy ijodning umumiyligini qonuniyatlarini ochishga yordam beradi. Demak, u dialektik umumiylilikni va san'atning alohida turini umumiylikning integratsiyasida tadqiq qiladi. Adabiyotni qiyosan o'rganishdan maqsad milliy-adabiy hodisa va jarayonlarning o'ziga xosligini adabiyot qonuniyatları bilan birga uning xalqaro ko'lamda mavjudligini anglash va oxir-oqibat jahon adabiyoti tushunchasiga yetish hisoblanadi. Shunday qilib, qiyosiy san'atshunoslik shug'ullanadigan soha estetikaning vakolat doirasiga kiradi.

Adabiy komparativistikani yaxlit holga keltirib o'rganishga bo'lган moyillik va adabiy aloqalarini o'rganish bilvosita san'atshunoslik doirasida bilimlar tizimini yaratishga bo'lган intilish bilan bog'liq. Qat'iy lashgan an'analarga ko'ra, san'atshunoslik o'z doirasiga tasviriy san'at, musiqa, badiiy ijodning o'ziga xos shakllarini (teatr, kinofilm va b.) oladi. Shu bilan birga, badiiy adabiyot san'atshunoslik doirasiga deyarli kiritilmaydi. Bir tomondan, bu an'ana ning paydo bo'lганiga uzoq vaqt bo'lGANI bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, bunda adabiyot tabiatining san'atning boshqa turlaridan farqlanishi o'ziga xos tarzda tan olinishidan dalolat beradi.

Adabiy komparativistikani san'atni komparativ tadqiq etish bilan yaxlit holga keltirishga bo'lган intilishlarda ma'lum ma'noda tadqiqot olib borish usuli «adabiy komparativistika» deb nomlanishining ahamiyati katta bo'lган. Adabiy komparativistikaning nazariy qoidalarini qaytadan ko'rib chiqish natijasida bu tushunchaning ikki xil izohlanishi ma'lum bo'ldi: bir tomondan, u har qanday bilishga oid jarayonda qo'llanishi shart va zarur bo'lган usul, ikkinchi tomondan, adabiyotlararo aloqalar va o'xshashliklarni tadqiq etish usuli.

«Adabiy komparativistika» atamasini tarixiy tushunish kerakligi mutlaqo ravshan, ya'ni u tushuncha sifatida tarixiy-adabiy tafakkurning ma'lum bir bosqichida, aynan milliy adabiyotlar shakllangan va rivojlangan davrda hamda ular o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq qilish oqibatida paydo bo'lган. Aynan shu davrda adabiyotshunoslik tafakkuri bu atamani iste'molga kiritdi, u, avvalo, asosiy maqsadga erishish, ya'ni milliy-adabiy birliklarni qiyoslash va chog'ishtirish uchun zarur bo'lган bo'lsa-da, shakllanayotgan tarixiy-adabiy bilishning yangi sohasi mohiyatini ochib bera olmadi. Shu sababdan «la literature comparée» va «la literature générale» atamalari doirasini ajratish vositasida aniqlik kiritishga harakat qilindi. Albatta, «zamonaviy ada-

biyotshunoslik nuqtayi nazaridan «adabiy komparativistika» atamasi nisbiy xarakterga ega. Agar ushbu muammo-ning maqbul yechimi topilganda, adabiy tarix va komparativistikaning talqinida dualizmdan va «komparativizm» so'zining asosiy leksik ma'nosini mutlaqlashtirishdan ochish mumkin bo'lar edi». ³⁰

San'atni qiyosiy o'rganish uning rivojlanish va tipologiyasi qonuniyatlarini o'rnatish uchun zamin tayyorlagani uchun estetikaning uzviy qismiga aylanadi, uning adabiyotshunoslikka, demak, adabiy komparativistikaga ham munosabati to'g'ridan to'g'ri va qat'iy ma'no kasb etadi. San'atlarning o'zaro munosabatlarini tadqiq qilish jarayonida olingan umumiy xulosalar adabiy komparativistika, umuman, adabiyotshunoslik uchun ham nazariy-metodologik qo'llanma vazifasini bajaradi.

Adabiy komparativistika va adabiyotshunoslik uchun san'atni qiyosiy tadqiq etish bo'yicha chiqarilgan xulosalari adabiyotlararo madaniy boyliklar bilan almashish jarayonida san'atning boshqa tarmog'i ishtirot etganda, ayniqsa, u vositachilik vazifasini bajarganda dolzarblik kasb etadi. Masalan, adabiy asarlar ekranlashtirilganda (kinoga olinganda), musiqa, teatr, raqs yoki tasviriylar san'at vositalari orqali ifodalanganda konkretlashtiriladi. Shuni e'tiborga olish zarurki, asar haqidagi, ayniqsa, o'zga millat adabiyotiga mansub asar haqidagi tasavvur nafaqat asarni o'qish jarayonida, balki keng ma'noda badiiy kontekstning vositachiligi orqali shakllanadi. Adabiy asarni san'at vositalari yordamida sharhlash birinchi darajali ahamiyatga ega bo'ladi, hatto o'qishning o'mini almashtiradi yoki ushbu hodisaga baho berishni to'ldiradi. Bu kabi vositachilik, ayniqsa, ommaviy aloqa vositalari, adabiyot va san'at asarlarini jamoaviy kommunikatsiyalash davrida jadallahshdi. Asl nusxa va qabul qilayotgan subyekt o'rtasidagi aloqa, ikki


³⁰ Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литературы. – М.: Прогресс, 1979. – С.139.

oradagi san'at asarlarini jamoaviy idrok qilishda o'ziga xos xususiyatlар mavjud. Bu yerda ma'lumotning o'zgarishga uchrashi mumkinligi, masalan, ko'pchilik bo'lib kinozalda yoki, aksincha, televizor ekrani oldida yolg'iz o'tirib tomosha qilish omili bilan hisoblashish kerak bo'ladi. Shunday qilib, adabiy komparativistika vositachilikning bu yangi shakllarini ham san'atni qiyosiy o'rganish ma'lumotlariga suyangan holda e'tiborga olishi kerak bo'ladi.

Adabiy komparativistika va san'atni qiyosiy o'rganishning hamma bo'lishi mumkin bo'lgan aloqalarini ko'rib chiqish vazifamizga kirmaydi, biroq ular, shubhasiz, har ikki tomon uchun samarali va istiqbolli hisoblanadi. Adabiyotni qiyosiy o'rganish bo'yicha to'plangan ma'lumotlar san'atning alohida tarmoqlarini komparativ o'rganish metodologiyasi uchun ham ahamiyatga ega.

ADABIYOTLARARO GENETIK-KONTAKT ALOQALAR

(D.Dyurishin tasnifi)



TIPOLOGIK O'XSHASHLIKlar

Biz har bir milliy madaniyatning yashashi va ravn-aqi uchun tarixiy zarurat sanalgan millatlararo aloqalar avj olayotgan davrda yashamoqdamiz. Jamiyat rivojining ushbu bosqichida ijtimoiy-gumanitar, jumladan, adabiyotshunoslik mavqeyining oshib borishi badiiy ijod va madaniyat sohalari qatorida ijtimoiy ong rivojiga ham ta'sir o'tkazmoqda. Bu adabiyotlararo aloqalar va ta'sir masalalariga ham daxldordir. Turli ko'rinishdagi adabiy aloqlar esa barcha davrlarda adabiyotning yashashi va taraqqiyoti uchun muhim omil sanalgan.

Tabiat va jamiyatda asosan takrorlanuvchi, bir-biriga o'xshash yoki o'z tabiatni, tuzilishi, mohiyati bilan bir-biriga zid bo'lgan narsa-hodisalar qiyoslash obyekti bo'lib xizmat qiladi. Bu hol adabiyotshunoslik fani, xususan, qiyosiy adabiyotshunoslik uchun ham badiiy-estetik metod vazifasini bajaradi.

Adabiyotshunoslikda ma'lum bir yozuvchi yoki shoir ijodini milliy va xalqaro adabiy an'analar bilan qiyoslab o'rganish muhim ilmiy-nazariy ahamiyatga ega. Chunki shunday qiyoslashlar orqali yozuvchining ijodiy mustaqilligi va uning milliy, jahon adabiyoti rivojidagi o'rni belgilanadi. Yozuvchi ijodining o'ziga xos qirralarini o'rganishda va anglab yetishda uni boshqa bir ijodkorning o'xshash asarlari bilan qiyoslab tahlil qilish muhimdir. Tadqiqotchilar so'nggi yillarda o'xshashliklarni tipologik birlik asosida o'rganishga katta qiziqish bilan qaramoqdalar. Shunga qaramay, komparativistikaning tipologik o'xshashliklar deb ataluvchi bu qismi nazariy jihatdan genetik aloqalarga nisbatan chuqur tadqiq etilmagan.

Milliy adabiyot nafaqat ichki imkoniyatlar, an'analar hisobiga, balki keng miqyosdagi o'zaro ijtimoiy-estetik aloqlar orqali ham rivojlanadi. Shuning uchun ham har bir adabiyot rivojini uni yaratgan xalq tarixi, takrorlanmas an'analari

bilan bog'liq bo'lgan taraqqiyotning o'ziga xos qonuniyatlar, shuningdek, adabiy jarayon rivojining xalqaro, umum-bashariy xarakteridan kelib chiqadigan umumiyy qonuniyatlar belgilab beradi. Adabiyotlarni qiyosiy o'rganish, aslida, adabiy jarayonning o'ziga xos va umumiyy qonuniyatlarini tadqiq etishdan iboratdir. Yuqoridaqlar asosida o'ziga xos qonuniyatlar asosan genetik-kontakt aloqa turlarini o'rganishda, umumiyy qonuniyatlar, bиринчи navbatda, tipologik o'xshashliklarni tadqiq etishda tatbiq etiladi.

Hozirda adabiyotlararo aloqalarni o'rganish tizimida tipologik o'xshashliklar alohida o'rin tutadi. O'xshashliklar to'g'ridan to'g'ri aloqalar mavjud bo'limganda ham namoyon bo'lishi mumkin. Bunday asarlarni bir xil yoki bir-biriga yaqin tarixiy-ijtimoiy sharoitlarda yaratilganligi bilan izohlash mumkin. Bunday yaqinlikni tipologik o'xshashliklar deb atash mumkin bo'ladi. A.Bushmin ta'kidlaganidek, tipologik o'xshashliklar umumadabiy taraqqiyot qonuniyatlarining haqiqiy ko'rsatkichi hisoblanadi.³¹

Demak, tipologik o'xshashliklar³² atamasi ortida turli adabiyotlardagi hech qanday aloqalarsiz xalqlarning yaqin ijtimoiy-tarixiy, madaniy taraqqiyot bosqichlari yoki inson tafakkurining universal qonuniyatları asosida paydo bo'lgan o'xshash hodisa va jarayonlar nazarda tutiladi.

Aslida, tipologik o'xshashliklardan o'ziga xos birlikni qidirish qadimdan ko'pchilikni qiziqtirgan. Masalan, qadimgi yunon adabiyoti vakili Plutarx o'zining «Qiyosiy hayotnomalar» asari bilan tipologik o'xshashliklarni adabiy janr darajasiga ko'targan deb xulosa qilish mumkin. U qiyosiy hayotnomalarning 23 tasini tarixiy hikoya sxemasi asosida bayon qiladi. Asarda biri yunon, biri rimplik bo'lgan Demosfen va Sitseron, Perikl va Fabiy Kunktator, Aleksandr va Yuliy Sezar, Alkiviad va Koriolan kabi tarixiy shaxslar ha-

³¹ Бушмин А.С. Наука о литературе. – М.: Современник, 1980. – С.164.

³² Bundan tashqari, konvergensiylar, analogiyalar, mosliklar, umumiyliliklar atamalaridan ham foydalilanildi.

yoti qiyoslanib, ular o'rtasidagi yaqin o'xhashlik va farqli tomonlar bayon qilinadi. Plutarx muqoyasa obyekti qilib har qanday tarixiy shaxslar hayotini emas, balki o'z hayoti, faoliyati bilan bir-biriga o'xhash yoki yaqin jihatlari bor bo'lgan insonlarni oladi.

A.Dima o'zining «Qiyosiy adabiyotshunoslik tamoyilari» nomli risolasida G'arbiy Yevropa hayotidagi «qadimiy» va «yangi» adabiyot vakillari o'rtasida 1683 – 1719-yillarda bo'lib o'tgan bahs va tortishuvlarni qiyosiy-tipologik uslubdan foydalanishga «urinish» deb baholaydi. To'g'ri, «qadimiy» va «yangi» adabiyot vakillari o'rtasidagi bahs ilmiy komparativizm rivojida muhim bosqich bo'lgan emas. Shunday bo'lsa-da, bu yerda qiyosiy-tipologik uslubdan foydalanishning ishonchli namunasini kuzatish mumkin. Chunki muxolif tomonlar vakillarining bir qancha asarlarida har ikkala davrning ba'zi bir umumiy jihatlari aniqlanadi.

Lekin XIX asrga kelib bu uslubdan deyarli foydalanildi. Bu hodisani adabiyotdagi metodlar almashinushi bilan izohlash mumkin. Bunda Sorbonna universitetining taniqli professori Abel Fransua Vilmenning qiyoslash uslubining kelajagi haqidagi skeptik ruhdagi fikrlari ham o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Uning fikricha, tadqiqotchi oradagi o'ziga xoslikni ko'rsatish uchun keraksiz ikir-chikirlarga berilib ketadi, shu bilan birga, o'xhashliklarni qayd etish istagida xususiyatlarni noto'g'ri talqin qiladi. Bunday noto'g'ri xulosa A.F.Vilmen tomonidan badiiy jarayonni qiyoslab o'rganish usuli faqat bir tomonlama talqin qilinishi natijasida kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Chunki qiyoslash usuliga mayda bayonchilik, hatto syujet, obraz, peyzaj tasvirini to'g'ridan to'g'ri ko'chirib olish, o'ta «o'xshab qolish» xavf solishi mumkin.

Keyinchalik ilmiy doiralarda qiyosiy-tipologik tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlovchi fikrlarning bildirilishi (masalan, Leon Selening «Parallelar ziddiyati» maqolasi) unutilayotgan uslubning yana tiklanishiga yordam berdi.

Adabiyotlararo aloqalarni tasniflash masalasida D.Dyurishin tomonidan ilgari surilgan tasnif diqqatga sazovor. U I.G.Neupokoyeva, V.M.Jirmunskiy xulosalariga tayangan holda adabiy aloqalarning genetik-kontakt va tipologik o'xshashliklarga turli nazariy tadqiqotlar uchun katta material bera olishini ham ta'kidlaydi.³³

Chindan ham, tipologik tadqiqotlar o'xshash adabiy hodisalarning janr, uslub, qahramon tanlovi masalalari ga ko'proq e'tibor qaratganligi bilan adabiyot nazariyasi ning maqsad va vazifalariga mos keladi. Mana shu nuqtayi nazardan, tipologik tadqiqotlarda nafaqat o'xshash adabiy hodisalarni aniqlashga, balki muqoyosa obyektlari o'rta-sidagi o'ziga xos, original badiiy yechimlarning negiziga ko'proq e'tibor qaratish muhimdir.

D.Dyurishin tipologik o'xshashliklarni uchta turga ajratadi:

1. Ijtimoiy-tipologik o'xshashliklar. Bunda ijtimoiy shart-sharoitlarning asarning g'oyaviy-falsafiy mazmunda aks etishi nazarda tutiladi. Ijtimoiy va g'oyaviy omillar badiiy asar tarkibiga singdirilgan bo'lib, ayniqsa, g'oyaviy mazmuni muallifning davr, ijtimoiy tuzumga nisbatan falsafiy qarashlarini ifodalashda yaqqol namoyon bo'ladi. Bunda adabiyotda o'z aksini topgan ilm-fan, san'at sohalari va huquqiy ong rivojiga turtki beruvchi ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy qarashlar, axloqqa oid muammolar bilan bog'liq voqeal-hodisalar doirasi nazarda tutiladi.

Alohida olingan milliy adabiyotlarning ijtimoiy ong ko'rinishlaridagi farqli va o'xshash jihatlar tipologik o'xshashliklar va o'ziga xosliklarning turli shakllari bo'lishini taqozo etadi. Bu o'rinda tipologik o'xshashliklar bir-biriga yaqin jamiyat taraqqiyot bosqichida bo'lgan xalqlar adabiyotlarida namoyon bo'lishi kuzatiladi.

³³ Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литературы. – М.: Прогресс, 1979. – С.101.

Bu holat turli fanlar qiyosan o'rganilayotganda alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, jahonning turli mintaqalari-dagi adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilayotganda ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim, chunki ijtimoiy-g'oyaviy tizimning universalligi va uning hayotning barcha sohalariga bo'lgan ta'sirini, bir tomondan, to'g'ridan to'g'ri adabiy ta'sir oqibatlari chegaralarini, ikkinchi tomondan, ijtimoiy-tipologik o'xhashliklarni belgilashda katta qiyinchilik tug'dirdi. Kontakt va tipologik omillarning mazkur o'zaro bog'liq qo'shilishi adabiyotlararo aloqalar va o'xhashliklarning o'ziga xos shakllarini intensiv hosil qilishda ishtirok etadi. Ta'kidlash joizki, adabiy hodisalarning ijtimoiy-tipologik shartlanganligini tadqiq qilish natijalari ko'pincha ijtimoiy ongning boshqa barcha shakllarini ham aniq anglashga yordam beradi.

Adabiy o'xhashliklarning ijtimoiy shartlanganligiga misol tariqasida XIX asr rus adabiyotidagi «ortiqcha odam» muammosiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni keltirish mumkin. Ma'lumki, «ortiqcha odam» obrazining eng muhim, bosh xususiyatlari nafaqat rus adabiyotiga, balki yetakchi Yevropa adabiyotlariga (romantik qahramon tim-solda) ham xos edi. Bu yerda gap nafaqat adabiyot qonuniyatlarining o'ziga xos xususiyatlari yoki ijodkorlar ruhiy holatlarining xususiyatlari, balki aqliy yo'naliishlarning umumiyligi, umumyevropa tarixiy rivojlanishidagi o'xhash sharoitlarning o'zaro bog'langanligi haqida bormoqda.

Shuningdek, realistik romanning paydo bo'lishi va rivojlanishini ijtimoiy shartlanganlik, O.Balzak, F.Stendal, E.Zolya, Ch.Dikkens, U.Tekkerey va boshqa ko'plab yozuvchilarining adabiy ta'sirlarini yagona va hal qiluvchi omil deb bo'lmaydi. Shubhasiz, realistik romanning rivojlanishida muayyan ijtimoiy va milliy an'analar hamda zamon saboqlarining badiiy talqini aks etgan.

Adabiy rivojlanish qonuniyatları ijtimoiy shartlanganining qiziq misoli sifatida XIX asr tanqidiy realizmi bilan qiyoslaganda XX asr tanqidiy realizmida yangi xususiyatlar pay-

do bo'lganini keltirish mumkin. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridayoq bir qator milliy adabiyotlarda tanqidiy realizmning yangi qirralari namoyon bo'ldi, buning asosiy sabablaridan biri bozor iqtisodi munosabatlarining tez sur'atlarda rivojlanishi edi. Bu, birinchi navbatda, tanqidiy realizm XIX asrning 60-, hatto 80-yillarida shakllangan adabiyotlarda ko'zga tashlandi. Bu davrda demokratik an'analar paydo bo'ldi va rivojlandi, sinfiy ziddiyatlar kuchaydi. Natijada tanqidiy realizm adabiyoti yangi xususiyatlarni kasb etdi, yangi estetik yo'nalish va g'oyalarni shakllantirdi.

2. Adabiy-tipologik o'xshashliklar. Mazkur turdag'i o'xshashliklar sof adabiy hodisalarga asoslanadi. Borliqni aks ettirishning maxsus shakli bo'lgan adabiyotning o'ziga xos qonuniyatlar ham bor. Adabiy-tipologik analogiyalar ning negizi ana shu o'ziga xosliklarda jamlangan bo'ladi. Analogiya yoki o'xshashliklar badiiy uslub, yo'nalishlarning, bir so'z bilan aytganda, badiiy asar komponentlarining qonuniyat asosidagi rivojlanishi natijasida vujudga keladi.

Adabiyotning bu sohasi qiyosiy-tipologik tadqiqotning obyekti bo'lib, aynan shu yerda u adabiyot nazariyasini bilan birlashadi. Adabiy-tipologik o'xshashliklar badiiy adabiyot ichki qonunlarining hosilasi bo'lganligi sababli bu yerda adabiy jarayonnining ham «yuqori», ham «quyi» birliklarini kompleks ravishda qamrab olish tamoyiliga rioya qilish kerak. Badiiy asardagi umumiy va farqli jihatlarni nafaqat adabiy yo'nalish, janrlar nuqtayi nazardin, balki g'oyaviy-psixologik yondashuv, qahramonlar tavsifi, kompozitsiya, syujet, motivlar, obrazlar tizimi, tasviriy vositalar, she'r tuzilishi unsurlari singari badiiylikni ta'minlovchi komponentlar nuqtayi nazardin o'rganish adabiyotshunoslik uchun muhim natijalar beradi. Bularning barchasi tarixiy poetika tushunchasida birlashtirilgan bo'lib, u tadqiqotdan adabiy komparativistika negizida nazariy-metodologik aniqlikni talab qiladi. Bundan adabiyotni qiyosiy o'rganish sohasida doimiy ravishda muam-

molarni, masalan, she'rshunoslik (she'r tuzilishi), stilistika va tarixiy poetikaning boshqa tarkibiy qismlarini qiyosiy ishlab chiqish kerak degan xulosa kelib chiqadi.

Keyingi paytlarda adabiy asar va u bilan bog'liq jarayonni chuqur va tizimli ochib berish maqsadida janr va uslubga oid jihatlarni o'rganishga qiziqish ortdi. U o'z oldiga adabiy asarni adabiy jarayonning tasniflash (klassifikatsiyalash) tizimi-dagi o'mmini aniqlash maqsadini qo'yadiki, u, o'z navbatida, asarning g'oyaviy-badiiy tarkibiy qismlarini ham tavsiflashni talab qiladi. Adabiy hodisalarning barqarorligi, takrorlanib turishligi va o'ziga xos xolisligi haqidagi tavsiflash qonuniga muvofiq, ularning fonida adabiy tur va janrlarning tipologik o'xshashliklari, ta'kidlash joizki, nafaqat milliy adabiyot doirasida, balki kengroq, adabiyotlararo kontekstda ham aniqlanadi. Bu esa qonuniy ravishda adabiyotni janriga oid va qiyoslab o'rganish o'rtasida interatsiyaga olib boradi.

Bu nuqtayi nazar adabiyotni sinxron va diaxron tadqiq qilish o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga olib keladi. Har ikki nuqtayi nazarning sintezlashishiga tarixiy-adabiy komparativistika rivojining tabiiy jarayoni olib keldi, bunda amaliyot nazariy ishlanmalar bilan asoslananadi.

3. Psixologik-tipologik o'xshashliklar. Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy asarning adabiy jarayondagi o'mmini belgilash maqsadida janr-uslubiy jihatdan o'rganishga katta e'tibor qaatilmoxda. Bunda ijodkor shaxsining ma'lum bir asarni yaratishdan individual psixologik moyilligi tushuniladi. Komparativistlar ko'p hollarda bunday ko'rinishlarni qiyoslanayotgan mualliflarning tabiatidagi ruhiy yaqinlik bilan izohlaydilar. Bunda psixologiyaning badiiy ijod psixologiyasi deb ataluvchi sohasi bizga yordam berishi mumkin.

Shu o'rinda jug'rofiy jihatdan bir-biridan olis, xronologik jihatdan o'ttiz – yuz yillik farq oralig'ida yaratilgan, lekin g'oya jihatidan yaqin bo'lgan ikki asar – Antuan de Sent-Ekzyuperining «Kichkina shahzoda» va Chingiz Ayt-

matovning «Oq kema», Oskar Uayldning «Dorian Grey portreti» va Omon Muxtarning «Ko'zgu oldidagi odam» asarlari tipologik o'xshashliklar sifatida qiyoslab o'rghanish ular o'rtasidagi yaqinliklarni e'tirof etish bilan birga asarlarning badiiy-estetik qimmatini yanada aniqlashtirishga, yozuvchilarning o'ziga xos mahoratini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Agar e'tibor qaratilsa, «Kichkina shahzoda» va «Oq kema» qissasi o'rtasidagi o'xshashlikning asosi bosh qahramonlar ruhiy kechinmalarida namoyon bo'ladi. Bunday assotsiatsiyaning paydo bo'lish sabablarini adabiy aloqa, uslublarning ta'siridan emas, balki asarlar yaratilgan davr muammolari, kayfiyati va ularni badiiy aks ettirishdagi yozuvchi iste'dodi, tafakkuri, fantaziyasini imkoniyatlaridan qidirmoq kerak. Ana shu muammolar, ularni hal etish uchun oldinga surilgan g'oyalar mushtarakligi bir-biriga o'xshash qahramonlarining paydo bo'lishiga olib kelgan. O'z qarashlari, atrofolamga munosabati bilan tom ma'nodagi gumanist bo'lgan Sent-Ekzyuperini Ikkinci jahon urushi keltirib chiqargan ochlik, qo'rquv, shafqatsizlik kabi falokatlar bilan birga uning «ma'naviy birlik»ka raxna solishi qattiq qayg'uga solgan. Yozuvchi bunday og'ir ruhiy tushkunlik davrida o'z kechinmalarini o'zga sayyoradan kelgan murg'ak bola obraziga ko'chirgan. Shunday yo'l bilan zamonanining shafqatsizliklari va dag'alliklariga shahzoda xarakteridagi soddallik, samiylik va romantik dunyoqarash qarshi qo'yiladi.


Ch.Aytmatovning esa ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolar chigallashayotgan bir paytda yaratilgan asari uchun 7 yoshli bolani bosh qahramon qilib olishi uning ijodida yangilik bo'ldi. Qissada ezgulik, go'zallik dunyosi va insonlarning g'arazli aloqalari asosiga qurilgan real dunyo o'rtasida qolgan murg'ak qalb iztiroblari tasvirlanadi.

Jahon xalqlari bilan iqtisodiy, madaniy va adabiy sohalar kundan kunga rivojlanib borayotgan hozirgi davrda adabiyotlarni, adabiy oqim, yo'nalish va yozuvchilar ijodini qiyoslab o'rghanish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu bizga

boshqa (qiyoslanayotgan) adabiyotnigina emas, o'z adabiyotimizni ham yaxshiroq anglashga, uning nozik jihatlarini ilmiy-estetik jihatdan tahlil qilishga yordam beradi.

Ma'lumki, jahon xalqlari o'rtasida tarixan siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda aloqalar, ijobiy o'zlashtirishlar mavjud. Shuning uchun ham bu jarayonni tahlil qilish hech qachon dolzarbligini yo'qotmaydi, balki globallashuv jarayonlari, xususan, mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy, madaniy sohalarda integratsiya avj olayotgan XXI asrda yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

TIPOLOGIK O'XSHASHLIKlar (D.Dyurishin tasnifi)



QIYOSIY TAHLIL MASALALARI

D.Dyurishin adabiyotlarni qiyosiy tahlil etish masalalari o'rGANAR ekan, beshta komponent haqida so'z yuritadi.³⁴ Qiyosiy tahlilda e'tiborga olish zarur hisoblangan komponentlar quyidagilar:

1. Qiyoslashning muvofiqligi.
2. Tahlilning izchilligi.
3. Adabiyotlararo jarayonni davriylashtirish masalalari.
4. Qabul qiluvchi va qabul qilinuvchi hodisasi.
5. Yangi kontekstda vazifaning o'zgarishi.

Qiyoslashning muvofiqligi. Qiyosiy adabiyotshunoslikda adabiy hodisalarni qiyosiy o'rganish uchun tanlash muhim o'rIN tutadi. Qanday adabiy hodisalar (asarlar, mualliflar, maktablar, yo'naliishlar, janrlar va boshq.) o'zar taqqoslash obyekti bo'lishi mumkin? Qiyoslash obyekti tanlovi asoslimi yoki erkin tanlanganmi? Mana shu savollar nafaqat komparativistika oldida ko'ndalang bo'ladi, balki har qanday bilishga oid jarayon ham ular bilan boshlanadi.

Bunda tadqiqot maqsadidan kelib chiqiladi. Tadqiqot maqsadini belgilashda esa mazkur soha bo'yicha mavjud bilimlarga asoslanadi. Ilmiy izlanishlardan olingan natijalar asosida baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Ularning ahamiyati mazkur soha bo'yicha maksimal bilimlar umumlashmasini qamrab organ metodologik tizim darajasiga bog'liqdir.

Adabiyotshunoslikda mana shunday bilimlar umumlashmasi bilan adabiyot nazariyasi shug'ullanadi. O'z navbatida, qiyosiy adabiyotshunoslik tadqiqot obyektini belgilashda alohida adabiy hodisalarning «umumiyl nomlanishi»ni aks ettirgan asosiy ilmiy kategoriyalarga tayanaadi. Qiyosiy planda o'rganish uchun mohiyati, tipik belgilari bilan bir-biriga mos keluvchi, ya'ni bir xil tizimga mansub bo'lgan hodisalar tanlab olinadi. Bu o'rinda oldindan tad-

³⁴ Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литератур. – М.: Прогресс, 1979. – С.202 – 241.

qiqot maqsadiga javob bera oladigan qiyosiy tahlil aspektini belgilab olish muhimdir. Tadqiqotning metodi va metodik usullari ana shunga bog'liq bo'ladi. Qiyosiy o'rganish obyekti faqat o'ziga xos xususiyatlari va mohiyati jihatidan adekvat (mos) bo'lgan hodisalar bo'lishi mumkin. Bunda har qanday adabiy hodisa tushuniladi. Adabiyotshunoslikning zamonaviy tadqiq metodlari orqali adabiy hodisani yaxlit milliy adabiyot, adabiy maktab, yo'nalish va yozuvchi ijodidan tortib syujet qurilishi, she'r tuzilishi, janr ko'rinishlari singari kichik struktur birliklarga ajratish mumkin.

Demak, qiyoslash obyektlari tanlovi tasodifiy bo'lmay, sohadagi mavjud bilimlar zaxirasiga tayangan holda amalga oshiriladi. Bunda deduksiya metodiga tayaniladi. Qiyoslash jarayonining o'zi induktiv xarakterga egadir.

Tahlilning izchilligi. Har bir ilmiy tadqiqot ishidan oldin obyekt qilib olingan hodisalar kuzatilib, ularning soni va xilma-xilligi aniqlanadi va qayd qilinadi. Komparativistikada bu turli-tuman materiallarni toplash bosqichiga mos keladi. Aniq ma'lumotlar ma'lum darajada adabiy aloqalar borligini ko'rsatadi, adabiyotlarning u yoki bu ijodiy shakllari birga mavjud bo'lishini ta'minlaydi. Shu sababli tashqi aloqadan ma'lumot beruvchi barcha aloqa va o'xshashliklarni aniqlash birinchi galdeg'i ahamiyat kasb etadi. Uni tahlilga tortib biz ko'pincha adabiy aloqalar haqida aniq tasavvurga ega bo'lamiz va tadqiqot yo'nalishini belgilab beruvchi boshlang'ich ilmiy farazlarga kelamiz.

Bu o'rinda bibliografik va tarjimayi holga oid ma'lumotlarni jamlash tahlil uchun qo'yilgan dastlabki qadam, xolos.

To'plangan ma'lumotlar tahlilining ikkinchi bosqichi adabiy jarayonga bevosita bog'liq bo'lib, bunda ular qabul qilayotgan adabiyotning dolzarb muammolari va an'analari bilan bog'liq holda o'rganiladi. Bunda, misol uchun, tarjimalar va ular orqali badiiy hodisa sifatida paydo bo'ladigan muammolar majmuyini o'sha davrning adabiy ijodi bilan

qiyoslash, ya'ni ularni qabul qilayotgan adabiyot taraqqiyotining kontekstiga qo'shish orqali amalga oshiriladi.

Qiyoslanayotgan asarlar yaratilgan aniq adabiy vaziyat fonida tarixiy va genetik aspektda tahlil qilinadi. Boshqacha aytganda, biz tarixiy-genetik ahamiyati nuqtayi nazaridan asarlarning u yoki bu bosqichda yoki kengroq adabiy kontekstda o'z milliy adabiyotidagi o'rni va ahamiyatini ko'rib chiqamiz. Avvalo, asarlarning tarkibiy qismlari bo'yicha mukammal tahlili amalga oshirilib, qabul qiluvchi va qabul qilinuvchi asarlarning o'xhash va farqli tomonlari aniqlanadi. Tadqiqotchining diqqat-e'tibori qabul qilinayotgan hodisaga qaratiladi, chunki u aloqaning faolroq omilidir.

Qabul qilinayotgan asarlar tizimidagi o'xhash va farqli jihatlarni aniqlash ularning xarakterini o'rganish imkonini beradi. Shunday qilib, o'rtasida muayyan aloqa bor deb taxmin qilingan har qanday ikkita badiiy asarni tahlil qilishda eng oddiy elementlardan murakkablariga qarab borib, elementlar tizimidan iborat bo'lgan asarning o'zi bilan yakunlanadi.

Adabiyotlararo jarayonni davrlarga bo'lish (davriylashtirish) masalasi. Aloqalarni davrlarga bo'lish, ma'lumotlarni ma'lum bir yaxlit bo'laklarga ajratish komparativistikaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Shu sababdan qiyosiy adabiyotshunoslik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda davriylashtirish muammosiga nisbatan katta e'tibor qaratiladi.

Adabiyotlararo jarayonni davrlarga bo'lish masalasida tadqiqotchilar orasida yakdillik yo'q, ba'zi olimlar bu masalani stixiyali, tajribadan kelib chiqib hal qilsalar, boshqalari tadqiqotning natijasi va tabiatiga ko'ra ma'lumotlarni «mexanik» ravishda ma'lum qismlarga bo'lish yo'lidan boradilar, yana birlari bu masalani hal qilishda ijtimoiy-tarixiy yoki ijtimoiy-madaniy omillarni asos qilib oladilar. Ba'zan umumiyligi adabiyotlararo aloqalar tarixidan ma'lum bir qismi olinib, ma'lumotlarni mashhur yozuvchilar atro-

fida birlashtiradilar. Masalan, bu yondashuv bo'yicha XV – XVI asrlar o'zbek – fors-tojik adabiy aloqalarini uch davrga: Alisher Navoiygacha, Alisher Navoiy davri va Alisher Navoiydan keyingi davrlarga ajratish mumkin.

Adabiy aloqalarni o'rganish badiiy hodisalar rivojida-gi o'ziga xosliklarni va ularning tarixiy shart-sharoitlarini aniqlashni maqsad qilib oladi. Bu bilan tadqiqotning aniq predmeti, uning xarakteri va bundan kelib chiqib davrlashtirishning belgilangan tamoyillari oydinlashadi. Agar ma'lum bir milliy adabiyot rivojlanishining o'ziga xosligini qiyosiy planda aniqlashni maqsad qilib olgan bo'lsak, tabiiyki, zamonaviy adabiyotshunoslik bilimlariga tayanamiz. Ummumon olganda, aloqalarni davriylashtirish va adabiy jarayoni davriylashtirish o'rtasida katta farq yo'q. Aksincha, ular o'rtasida yaqinlashuv (konvergensiya) kuzatiladi.

Adabiy aloqalarni davriylashtirishda, avvalo, o'xhash mezonlarga tayanish lozim. Birinchi navbatda, milliy-adabiy jarayonning o'zaro nisbatidan kelib chiqiladi, adabiy omillardan tashqarida bo'lganlari esa ularning adabiy jarayonda qay darajada aks etganligiga qarab belgilanadi. Ikki tomonlama adabiyotlararo aloqalarni davriylashtirishda qabul qilayotgan adabiyotning rivojlanish an'analari diqqat markazimizda bo'lishi va u aloqani amalga oshirish uchun o'zida dastlabki shartlarga ega bo'lishi kerak. Demak, ikki tomonlama aloqalarni davrlarga bo'lish qabul qilayotgan adabiyotning olg'a qarab harakatlanishi bilan ta'minlanadi.

Adabiyotni qiyosiy o'rganish xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan tayyorlangan «Yevropa adabiyoti tarixi»da Yevropa adabiy jarayonining eng muhim davri sifatida asosiy adabiy yo'nalishlar yoki uslublar tanlangan. Bunday qaror ga e'tiroz bildirish qiyin, chunki adabiy uslublar haqiqatan ham adabiyot bilan bog'liq ma'lumotlarni qismlarga ajratish uchun mos mezon bo'lib xizmat qilishi mumkin, chunki klassitsizm, romantizm, realizm, modernizm kabi asosiy adabiy uslublar, yo'nalishlar, oqimlar nafaqat adabi-

yotning kategoriyalari, balki san'atning boshqa sohalarini ham qamrab oladi.

Qabul qilayotganlik va qabul qilinayotganlik hodisasi. «Adabiy munosabat» jarayonida ikkita asosiy omil – *qabul qilayotgan* va *qabul qilinayotgan* tomonlar faol bo'la-di. Bu omillarning o'zaro munosabati retsepsiya tabiatini oldindan belgilaydi, uning oqibati esa ham qabul qilayot-gan, ham qabul qilinayotganning bu hodisaga moyilligi va qiziqishiga bog'liq bo'ladi.

Qabul qilayotgan va qabul qilinayotgan adabiy hodisa-lar aniq favqulodda adabiy hodisalardir. Ular adabiy aloqa jarayonida nafaqat o'ziga xos xususiyatlari, balki umumiy xususiyatlar bilan ishtirok etadilar.

Ijodiy aloqa tashqi omillarni qabul qilishga shart-sharoitlar mavjud bo'lgan adabiyotda amalga oshiriladi. Bu qoida u yoki bu shaklda ko'plab komparativistlar tomoni-dan e'tirof etilgan bo'lsa-da, ular asosan nazariy asarlarda ifodasini topgan. Rus qiyosiy adabiyotshunosligi asoschisi A.N.Veselovskiy «har qanday o'zlashtirma o'zlashtirilayot-gandan fikrning qandaydir muxolif harakatini taqozo qila-di...» deb hisoblagan.

Retsepsiya jarayonida qabul qilayotgan hodisaning hal qiluvchi roli adabiy asarning barcha tarkibiy qismlariga ta'sir etadi. Bu, ayniqsa, qat'iy belgilangan adabiy o'lcham, me'yor, qoidalarga ega bo'lgan she'riyatda yorqin namoyon bo'ladi va boshqa milliy adabiyotga mansub she'r tuzilishi tizimini qabul qilishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ijodiy retsepsiyaning eng umumiy omillaridan tashqari boshqa muhim jihatlarni, masalan, g'oyaviy va ijtimoiy muhitni ham e'ti-borga olish kerak.

Retsepsiya jarayonining umumiy tabiatga ega bo'lgan omillari bilan bir qatorda boshqa, o'ziga xos tomonlariga ham ega bo'lgan vaziyatlarni, masalan, qabul qilayotgan muallifning subyektiv asoslari, uning badiiy o'ziga xosligini ham unutmaslik kerak.

Qabul qilish jarayonida yozuvchining individual betakrorligi, ijodiy tabiat, faqat unga xos bo'lgan xususiyatlar muhim ahamiyatga ega. Adabiy muloqot chog'ida ular ko'pincha asosiy, hal qiluvchi omilga aylanishi mumkin, chunki adabiy-badiiy qadriyatlarni o'zlashtirish uchun tanslashda subyektiv mezon bo'lib xizmat qiladi.

Yangi kontekstda vazifaning o'zgarishi. Ma'lumki, adabiy hodisa bir-biri bilan uzviy bog'liq elementlardan tashkil topgan va tugallangan yaxlitlikdir. Badiiy asarni anglash undagi elementlar o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashga xizmat qiluvchi qonuniyatlarni anglash hisoblanadi.

Adabiy hodisa o'z-o'zicha emas, ma'lum bir adabiy muhit va sharoitda mavjud bo'ladi. Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan, uni badiiy asar genezisi, yaratilishiga asos bo'lgan qonuniyatlarni tadqiq etish keyingi bosqichda – tarixiy rivojlanish jarayonida undagi shaklning dolzarblik kasb etishini o'rganish tushuniladi. Ya'ni birinchi guruh masalalari aniq tarixiy sharoit bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi guruh badiiy asarlarning adabiyotda keyingi tarixiy bosqichlardagi taqdiri masalalarini o'z ichiga oladi. Birinchi guruh masalalari adabiyot tarixi tomonidan keng miqyosda o'rganib kelinayotgan bo'lsa, ikkinchi guruh masalalariga e'tibor kam bo'lgan.

Bu o'rinda qiyosiy yondashuv asosan ikkinchi guruhdagi muammolarni o'rganishda qo'l kelishini e'tirof etish lozim. Agar badiiy asar genezisini o'rganish asosida undagi qator unsurlarning paydo bo'lishi aniqlansa, keyin uning ma'no va mazmunini birlamchi kontekstda, ya'ni qabul qilinuvchi hodisasi tizimida ochib berish lozim. Shu asosda ularni yangi kontekstga kiritish jarayonida asar elementlaridagi keyingi o'zgarishlarni o'rganish uchun zamin yaratiladi.

«Qiyosiy adabiyotshunoslik» bo'yicha nazorat savollari:

1. «Qiyosiy adabiyotshunoslik», «komparativistika» atamalariga izoh bering.
2. Qiyosiy adabiyotshunoslikning adabiyotshunoslikdagi o'rni va vazifalari...
3. Yevropadagi dastlabki qiyosiy-tarixiy taddiqotlar va «qiyosiy adabiyotshunoslik» atamasidan foydalanish bo'yicha nimalarni bilasiz?
4. Qadimgi yunon yozuvchisi Plutarxning «Qo'shaloq hayotnomalar» asariga qiyosiy-tarixiy metod nuqtayi nazaridan qanday baho berish mumkin?
5. Qiyosiy-tarixiy metodning shakllanishida aka-uka Vilgelm va Yakob Grimmlar qanday rol o'ynagan?
6. Soha taraqqiyotida rus olimi A.Veselovskiy nazariy qarashlarining o'rni...
7. «Sayyor syujet» nazariyasi bo'yicha ma'lumot bering.
8. Fransuz komparativistika maktabi va uning soha rivojidagi o'rnini izohlang.
9. Adabiyotshunoslikda «jahon adabiyoti» konsepsiysi haqidagi tasavvuringizni bayon eting.
10. Adabiy aloqa shakllari haqidagi V.Jirmunskiy, A.Dima va D.Dyurishin tasniflari...
11. Kontakt-genetik aloqalarga ta'rif bering.
12. Tarjimonning adabiy aloqalarda tutgan o'rni va roli...
13. Tipologik o'xshashliklar, ularning D.Dyurishin tasnif bergen uch turi haqida nimalarni bilasiz?
14. Qiyosiy tahlilda e'tiborga olish lozim bo'lgan komponentlar...
15. O'rta asr qahramonlik dostonlarining qiyosiy tahlili bo'yicha qanday ilmiy taddiqotlar mavjud?
16. F.Sulaymonovaning «Sharq va G'arb» asari – qiyosiy adabiyotshunoslik uchun muhim manba.

17. Zamonaviy jahon adabiyotidagi modernistik tasvir tamoyillarining o'zbek adabiyotiga ta'siri nimalarda namoyon bo'lmoqda?

18. Globallashuv sharoitida adabiy aloqalar va qiyosiy adabiyotshunoslikning o'rni va vazifalari...

ILMIY-TANQIDIY MANBALAR

A.N.Veselovskiy

POEZIYANING TA'RIFI³⁵

Anchadan buyon keng tarqalgan «poeziya nazariyalari»ni hozirda qiyosiy-tarixiy grammatika va qiyosiy mifologiya talab qilayotgan bilim talablariga javob beruvchi yangiroq, muhimroq, ahamiyatliroq nimalardir bilan al-mashtirishga ehtiyoj sezilmoqda. <...>

Poetika uchun poeziyaning mavjud bo'lgan barcha ko'rnishlari, Avstraliya tub aholisining xor jo'rligida ijro etiluvchi raqslaridan Shekspirgacha manba bo'la oladi. Qamrab olingen soha qanchalik keng bo'lsa, poetik faktlarni qiyosan o'rganishdan shunchalik ko'p natija kutish kerak, chunki yangi poetikaning metodi qiyosiy bo'ladi. Hozirgi paytda poetika yoki poeziya nazariyasi nomi bilan ataluvchi fan bunga o'xshash narsalarni izlamaydi, chunki unda barcha narsa ayon: unga ilmiy asoslangan umumlashmalar Aristotel, Goratsiy, ularning izdoshlari hamda yunon falsafasi va estetikasi sharhlovchilari tomonidan berilgan; XVIII asr uning tu-shunchalarini poeziyani boshqa san'atlar bilan birlashtirgan go'zallik va nafislik, mammuniyat va taqlid nazariyalari bilan boyitdi; Aristotel oldindan ko'ra olmagan kutilmagan poetik yangiliklar uning o'z doirasiga singdirildi, ba'zan esa tubdan o'zgartirildi: Shekspir va romantiklar unga raxna soldilar; romantiklar va aka-uka Grimmlar maktabi xalq qo'shiqlari va sagalarning bitmas-tuganmas sohasini ochdilar. <...> Eski uslubdagi poetika yunon va rim klassiklari manbalariga

³⁵ Веселовский А.Н. Избранное: Историческая поэтика / Сост. И.О.Шайтанов. – М.: Российская политическая энциклопедия, 2006. – С.81 – 170.

tayanar edi, yangilik qiyoslash prinsipi bo'yicha emas, balki ehtiyoj va zarurat yuzasidan kiritilardi: axir Shekspirni o'qib chiqish kerak edi-da; zamonaviy naturalizm bilan ham hisoblashish kerak bo'ladi. Biroq yangi, doimo qaynab-toshib turgan musallas uchun eski meshlarning yetishi dargumon, balki, shoshilinch ravishda taqab solingan imorat o'rniga yangi bino qurish – ya'ni manba va kuzatishlarga asoslangan yangi imorat – uning sohasiga aloqador bo'lgan maxsus ma'lumotlar va kuzatuvlarga asoslangan, o'z natijalarini san'atning boshqa sohalaridan olib o'zlashtirilgan xulosalar yoniga ehtiyotkorlik bilan saflovchi, ...yangi poetika haqida o'ylash vaqt kelgandir. <...>

Har doim o'zaro ta'sir ko'rsatish, ikki tomonlama ta'sir qilish va ta'riflash imkoniyati saqlanib qoladi va shaxsiy ijod fakti obyektiv ruhning shakllari va talablari bilan belgilanadi. Misol uchun, harbiy-patriarxal munosabatlar ne-gizida paydo bo'lgan Homerning eposiga qarama-qarshi ravishda, lirika va dramaning shaxsiy poeziyasi epik tarz (uklad)ning ibtidoiy yaxlitligini parchalagan yunon aristokratiyasini demokratiyasining paydo bo'lishini ham-roh bo'lib kuzatib boradi. Bunday uzilish dunyoqarashda ham sodir bo'ldi: epik ideallar tarix talablari oldida asossiz bo'lib qoldi; bundan keyin ular torroq tarixiy munosabatlar zaminida parchalanib va ishlab chiqiladi. <...>

Aslida, qahramonning poetik g'oyasi mavhum qahramon haqidagi tushuncha emas; u qahramonliklar, buyuk ishlar, kuch-qudrat va sh.k. haqidagi tasavvur bilan chambarchas bog'liq. Aynan shuni biz to'qima formulasi deb ataymiz; u qahramon haqidagi keyingi tasavvur uchun shart. Agar unga diqqat bilan razm solinsa va tarkibiy qismlarga ajratilsa, zamonaviy romanning eng «injiq» tuguni ham ibtidoiy afsonalarda qonuniylashtirilgan eng oddiy formulalarga olib boradi. <...>

Poetik ijod qonuniyatlarini o'rganayotganda biz poeziyaning tarixiy harakati barqarorligining boshqa me'yorla-

rini topishga harakat qildik. Biz o'zimizga inson hozir shoir bo'lib qolgani yo'q; bir necha asrlar avval u epos yaratgan, o'z xalq qahmamonlik dostonlarini kuylagan, ming yillar davomida u afsonalar yaratgan va hech narsani ko'rib bo'lmaydigan, qadim zamonlarda poeziyaning tilini yaratgan dedik. Biz hozir ham tilda uning poetik sintezda amalga oshirgan ishlari bilan oziqlanamiz: ular tomonidan yaratilgan lingvistik shakllar tafakkurimizga xizmat qilmoqda, biz bugungi kungacha ham so'zning o'sha obrazli, bir tomonlama andazalaridan qiyinchilik bilan voz kechamiz va tafakkurning tarixiy yo'lda qo'lga kiritgan har qanday yangi yutuqlarini bu andazalarga joylashtirishimiz kerak. So'ngra agar tilda shunday bo'lsa, afsona, epos, ongli poeziya shakllarida ham bajarilishi kerak bo'lgan shartlar yo'qmikin deb savol berdik o'zimizga. Poetik to'qima bilan qisqacha tanishish tez orada har qanday kishini uning turli-tumandek bo'lib ko'ringan mavjud zaxirasi osonlik bilan asrlar davomida qayta-qayta qo'llanilgan, unchalik ko'p bo'lman eng sodda formulalarga olib kelishiga ishonch hosil qildi. Oriylarning koinotga oid Pramatasi yunonlarning Prometeyida va Shpilgagennenning Leosida takrorlanadi; afsona ertak, novella, jozibali qissa avatarlari (evrilishlari) orqali o'tib, qaysidir romanlar kutubxonasining kulrang jildida biz bilan qayta uchrashadi. Poetik to'qimaning «zo'ravonligi» biz o'ylagandan ko'ra ko'proq, oldingi rivojlanishda tayyorlangan shakllar bilan chegaralangan...

Shu tarzda poetik ijodga bir xil shakllar, bir xil jarayonlar takrorlanishi shart qilinishi qonunchilikning ikki yoqlama elementini olib kirdi: ruhiy va tarixiy. Biroq bu takrorlanishda olg'a harakatlanish qayerda qoladi? Taraqqiyot va rivojlanish-chi? Rivojlanish ruhiy jarayonning bir xil talablarasi asosida, bir xil tarixiy shakllar doirasida, mazmunning chuqurlashtirilishi, insoniylashtirilishi, ong ishlab chiqargan hayotiy xulosalar va nazariy umumlashmalardan iborat. Shu paytgacha biz g'ayrishuuriy holda eski afsonalarni

takrorlaymiz, kundalik nutqimiz ma'nosini hatto o'zimiz ham bilmaydigan afsonalarga oid formalarga to'la. Biz tun tushmoqda, quyosh nurlarini sochmoqda deymiz; biroq kim haqiqatan ham tunning «tushishi»ga, quyoshning nurlarini «sochishi»ga ishonardi, chunki hech kim o'zida buni his qilmagan. Qadim mifologik davrda bu kabi ba'zi iboralar real ma'noga ega bo'lган bo'lishi mumkin edi, biroq, balki, Vedalardagi «kulib turgan shafaq», ayniqsa, Esxilning «kulayotgan» to'lqinlari umumlashmaga ishora qilar. Bizga hozir ham bu obrazlar begona emas, biz ularni Meditseyalik Venera yoki Umbriya maktabi Madonnasi go'zalligini tushungandek tushunamiz, garchi, ehtimoldan yiroq emas, ular yunon yoki italiyalik katolikning qalbida qo'zg'atuvchi diniy tushunchalarga har doim ham qo'shilmasak-da. <...>

Fikrimizcha, poeziyani tushuntirib bo'lmaslik asosan poetik jarayonni shoirning shaxsiyatidan boshlaganliklari dan yuzaga kelgan. Darhaqiqat, faylasuf, olim, olomondagi har qanday kishini tushunib bo'lmanidek, shoirni ham tushunib bo'lmaydi. Shaxsni fizikaga oid apparat kabi boshqalardan ajratib qo'yib bo'lmaydi yo kasalligi tufayli, yo kuch ishlatib ajratib qo'yiladi – ammo bu holatlarda ham tahlil uning oldida kuchsizlanib qoladi, u uning ruhiy apparatini egallay olmaydi, uni boshqa ruhiy zotlardan ajratib turuvchi xususiylik nima, shaxsga oid nimaligini jamlay olmaydi. Shu sababdan ta'rif-u tavsiflar hech qachon rod va tur kategoriylaridan chiqa olmaydi, hech qachon *ad hominem* ga erishmaydi. Bu holda va nazariyamiz nuqtayi nazaridan, masalan, shoir boshqa odamlardan alohida ta'sirchanligi, zehni o'tkirligi, hodisalarining tashqi tomonini appersepsiyalash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak deyishimiz mumkin; miqdoriy farqlanish ma'lum ma'nda sifat farqlanishiga o'tadi va bizda mavjud bo'lган idrok, poetik go'zallikni idrok qilish qobiliyatiga o'tib, unda faol kuch – ijodga aylanadi. <...>

A. N.Veselovskiy

«TARIXIY POETIKA» MUQADDIMASIDAN. SAVOLLAR VA JAVOBLAR³⁶

Adabiyot tarixi xalqaro huquq tomonidan res nullius³⁷ deb muqaddaslashtirgan jug'rofiy makonni eslatadi, bu yerga madaniyat tarixchisi va estetika mutaxassisini, zukko inson va ijtimoiy g'oyalar tadqiqotchisi tashrif buyuradilar. Ularning har biri u yerdan qobiliyati va dunyoqarashiga qarab mazmuni har doim ham bir xil bo'lavermagan xohlagan narsasini olib chiqishi mumkin.

Ular me'yor yuzasidan bir to'xtamga kela olmadilar, aks holda, bunchalik qat'iylik bilan adabiyot tarixi nima degan savolga qaytmagan bo'lardilar. Unga nisbatan eng yoqimli qarashlardan biri taxminan quyidagi ta'rifga to'g'ri keladi: ijtimoiy tafakkurning obrazli-poetik kechinmalari tarixi va uni ifodalovchi shakllar. Tafakkur tarixi kengroq tushuncha bo'lsa, adabiyot uning qisman namoyon bo'lishidir; uning ajralib chiqishi poeziya nima, poetik ong va uning shakllari nima ekanini aniq-ravshan tushunishni taqozo qiladi, aks holda, biz tarix haqida gapirmagan bo'lar edik. Lekin bunday ta'rif qo'yilgan maqsadlarga javob beruvchi tahlilni ham talab qiladi. <...>

Nima sababdan slavyan Sharqi o'rta asrlarda o'zining nafis adabiyotini, shaxsiy poeziyasini, adabiy an'analarini yarata olmadi? Ko'p narsalarni slavyanlarning madaniyat tarixi zaminiga kechroq qadam qo'yanligi, Sharq xalqlari bilan kurash olib borganligi, jug'rofiy joylashuvi va h.k. bilan izohlash mumkin.

³⁶ Веселовский А.Н. Избранное: Историческая поэтика. – М.: Российская политическая энциклопедия, 2006. – С.57 – 80.

³⁷ Egasiz mulk (lot).

Biz faqat, G'arbda bo'lgani kabi, bu yerda ham, qadimgi davr yaxlitligidan farqli ravishda, maktab, ilm olishdagi ikki taraflamalik belgilagan, yangicha rivojlanish tabiatini aniqlab bergen qismlarga to'xtalamiz. Bunda bir tomonda biz hanuzgacha boyligi, rang-barangligiga uning serb va rus namunalarida hayratlanadigan, koloriti va vazn o'lchovi o'ziga xos bo'lgan xalqona ruh, majusiy unsurlari, marosim yoki bilinalarga xos poeziya bo'lsa; ikkinchi tomonda ortida poetik va falsafiy, ilm beruvchi yunon rivoyatlari bo'lgan cherkov turadi. U slavyan negizida ular dan voz kechdi; xutba maqsadlari va muvaffaqiyatlariga ham pand-nasihatning tili bo'yicha, ham dindorlar uchun lotin tilidagi Bibliyadan ko'ra tushunarliroq bo'lgan, Muqaddas diniy Kitobning cherkov-slavyan tiliga tarjimasini bo'yicha xalq cherkovlari tamoyili (prinsipi)ga javob berdi. Bu nasroniylik ta'limotini o'zlashtirish va muvaffaqiyat qozonishi ma'nosida, garchi xalq-slavyan poeziyasining qo'she'tiqodchiligi (ikki dinga e'tiqod qilishi) G'arbdagi o'xhash hodisalardan hech qanday farqlanmasa ham, ehtimol, undan ochiq-oydinroq bo'lsa ham, olg'a qo'yilgan qadam edi. Slavyan Injili ma'lum ma'noda maktab ishlari xarakterini belgilab berdi:

<...> o'z shaxsiy xalq-poetik xazinasini ko'rsatishga harakat qilib ko'rish uchun begona nusxa ham taqlid qilishga namunalar ham bo'limgan. Agar g'arb adabiyotini xalq bilan mumtoz lotin adabiyotining o'zaro chatishmasining hosilasi sifatida tasavvur qilsak, unda slavyan Sharqida bunday chatishma tor ma'noda savodxonlik va cherkov ma'rifatchiligi tomonidan belgilangan maqsadlar natijasida sodir bo'ldi. Aynan shu sababli poeziya ham bo'limgan.

Agar Yevropada adabiyotning rivojlanishi o'z xalqlari evolyutsiyasiga taqdim qilinganda qay yo'sinda davom etishi haqidagi savolga javob topish, chamasi, samarasiz, shekilli, biroq haqiqatda mavjud dalillar uchun ba'zi

nazariy mulohazalarga turtki beradi. Aftidan, jonli tadrijiy rivojlanish, odatda, begona madaniyat ta'sirida, ba'zida esa xom narsani bemavrid yetiltirishga majbur qiladigan, ichki jarayonning foydasiga xizmat qilmaydigan navbatdagi bosqichlarni chetlab o'tmasa sekinroq sodir bo'lar edi. Yunon dramasi asosida marosim xor qo'shiqlari yotadi, ular bizning bahorda doira bo'lib ashula aytib o'ynaladigan qadimgi rus xalq o'yiniga (xorovod) o'xshaydi; ularning juda sodda diniy mazmuni Dionisga topinishda umumlashtirildi va kengroq insoniy g'oyalari uchun namoyon bo'ldi; badiiy drama xalqning birgalikda amalga oshiradigan agrar o'yin-kulgisiga qo'shilib ketdi. Endi G'arbg'a murojaat qilamiz. Bu yerda ham ashula aytib o'ynaladigan xalq o'yinlari, eng sodda dramatik harakatlar bo'lgan, lekin buning negizida keyingi rivojlanishni ko'rmaymiz; agar tegishli, umumlashtiruvchi topinishning kurtagi bo'lgan bo'lsa ham, ular to'xtab qolib, hosil bermadi. Cherkov paydo bo'ldi va, odatda, ibodat paytida yangraydigan kuydan diniy sahna turi – misteriyani yaratdi; biroq u uni ozuqa bilan ta'minlab turuvchi, aqidalar bilan birga rivojlanib amalga oshiruvchi va undan chiquvchi xalqona asosdan mahrum edi: cherkova xos asos tashqaridan kirib keldi, u buzilmas, rivojlanishi mumkin emas edi.

Keyinchalik maydondag'i sahnaga ko'chib o'tgan bu diniy teatr unga bir qancha maishiy sahnalar va komik obrazlar, psixologik bo'limgan tahlil va ichki konfliktni tu-shunmaslikni kiritgan bo'lishi mumkin; bu yerda maktab Vergiliyning kinoya va qochirimlariga, tirik odamlardan foydalangandek foydalangan umumlashmalarga o'rgatib, me'yordan ortiq darajada taraqqiyot berdi: Nuqsonlar va Yaxshi fazilatlar siymosiga <...>. Bu umumlashmalarni misterianing epik-harakatsiz, qotib qolgan qiyofalari bilan qo'shilishi keyingi rivojlanishning imkoniga borligiga, dramatik hayotning nishonalariga ishora qilar edi. Bu ikki umumlashtirishning misterianing epik-barqaror shaxslari

bilan qo'shilishi rivojlanishda davom etish imkoniyatiga, dramatik hayotning qobiliyatlariga ishora qilgan. Shu asnoda o'rta asrlarda nafaqat erkaklar, hatto ayollar monastirida ham Terensiy komediyalarini o'qishar, Senekani yodga olar edilar; u bilan yana qadimgi drama naqlari qo'llanila boshladi. XIV asrda unga birinchi oshkora o'xshatma ham paydo bo'ldi. XVI asrdan boshlab drama ommaviy ravishda xush ko'rilib, tan olingan adabiy janrga aylandi: Shekspirning ortida Seneka tip (tur)idagi ingliz dramasi turadi. Dramaning bu yuksalishi, mashhurligining sababi nimada? Adabiyot hayot ehtiyojlarini aks ettirar ekan, unda ular va ma'lum poetik shakllar o'rtasida, hattoki ular birgalikda rivojlanmagan taqdirda ham, ba'zi moslik bo'lishi ehtimoli bor; ongda, ruhning ichki talablarida faqat dalil bo'la oladigan hukm o'zlashtiriladi. <...>

1893

V.M.Jirmunskiy

**SHARQ VA G'ARBNING ADABIY
MUNOSABATLARI QIYOSIY
ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUAMMOSI
SIFATIDA**

1

Adabiyot qiyosiy tarixining asosiy dastlabki sharti insoniyatning ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayoni birligi bo'lib, u, o'z navbatida, g'oyaviy ustqurmalaridan biri bo'lgan adabiyot rivojlanishi bilan o'zaro bog'liq. <...>

Ta'kidlash joizki, bu ma'noda ilgariroq akademik A.N. Veselovskiy adabiyotdagi hodisalarni til va ijtimoiy turmush faktlari bilan qiyoslagan edi. <...>

Veselovskiyning bu g'oyasi «Tarixiy poetika» kitobiga asos bo'ldi, u o'zining qarama-qarshiliklari va tugallanmaganiga qaramay, XIX asr adabiyotshunosligi negizida tarixiy-adabiy sintezlashga bo'lgan ulkan urinish edi. Barcha adabiyotlar rivojlanishini qamrab oluvchi tarixiy poetika nazariyasini yaratishda Veselovskiy jahon adabiyotining rivojlanish jarayoni ijtimoiy o'zaro bog'liq va u umumiyligida qonuniyatlarga bo'ysunadi degan fikrga asoslanadi. Adabiy jarayonning bu umumiyligida qarashlar tizimi (konsepsiysi) hech qayerda aniq shakllantirilmagani va asoslanmaganligi sabab unga ijtimoiy rivojlanishning bir xil bosqichida bo'lgan, xronologik ayni bir vaqtda bo'lishlik va tarixiy o'zaro ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmasdan hodisalarni: qadimgi german qahramonlik eposini «Iliada» yoki «Kalevala», Alkey va Sapfolarning lirik to'rtliklarini italyan xalq stornellilari, qadimgi yunonlarning diniy dramalarini Shimaliy Sibir xalqlarining «ayiq dramalari», qadimgi yunonlar, german va keltlar qabila va drujina qo'shiqchilarini

Kavkaz baxshilari, G'arbiy Yevropa jonglyorlari va shpilmannlarini Sudan griotlari bilan keng miqyosda qiyoslash imkonini beradi.

Ko'rsatilgan hodisalarni ko'rib chiqish imkonini beruvchi – kelib chiqishi, geografik tarqalishi, xronologik jihatdan bior vaqtga bog'langanligidan qat'i nazar – bunday qiyoslash metodi bosqichma-bosqich ro'y berishi nuqtayi nazariidan ahamiyati bir xil bo'lgan adabiy rivojlanish jarayoni umumiyligi obyektiv qonuniyatga asoslanganini nazarda tutadi.

Biroq turli xalqlar adabiyotidagi bir-biriga o'xhash tarixiy hodisalarni aniq qiyoziy tahlil qilishda, adabiy jaryonning bosqichli (stадиal)-tipologik o'xhashligi haqidagi masalani hal qilishda ahamiyati jihatidan undan kam bo'limgan xalqaro adabiy o'zaro ta'sir ko'rsatish masalasi bilan kesishadi. Uni to'liq chiqarib tashlashning imkoniy yo'qligi kundek ravshan. Insoniyat jamiyat tarixida bevosita yoki bilvosita hamkorlik va o'zaro ta'sir qilmagan mutlaq yakka, alohida rivojlangan madaniyat (demak, adabiyot ham), aslida, uchramaydi. <...>

Bunday xalqaro tajriba almashish siyosiy amaliyot sohasida ham, mafkura sohasida ham uchraydi. Jumladan, adabiyot sohasida ushbu masala «xalqaro adabiy ta'sirlar» deb nomlanadigan muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq adabiyotlar o'rtasidagi keng miqyosdagi o'zaro aloqalarning mavjudligi yuqorida ko'rsatib o'tilgan va o'zaro aloqalarga nisbatan kengroq bo'lgan adabiy rivojlanishdagi parallelizm masalasini kun tartibidan olib tashlamaydi. Har qanday tarixiy muhim «ta'sir» tashqaridan amalga oshirilgan tasodifiy, mexanik harakat, yozuvchi yoki bir guruh yozuvchilarning individual tarjimayi holidan olin-gan empirik fakt, yangi chop etilgan bior-bir kitobcha yoki rasmga kirgan adabiy namuna yoki yo'nalish bilan tasodifan tanishish natijasi emas. Adabiyot mafkuraning bosh-

qa turlari kabi jamiyatga oid voqelikning aksi va uni qayta qurish vositasi sifatida, avvalo, aniq ijtimoiy amaliyot asosida paydo bo'ladi. <...>

2

Adabiyotning rivojlanishida bosqichli (stadial)-tipologik o'xshashliklar, ayniqsa, bir-birlari bilan to'g'ridan to'g'ri o'zaro bog'lanish yoki ta'sir bilan aloqada bo'lмаган adabiyotlardagi alohida asarlar, janrlar va uslublarda umumiyligi ijtimoiy-tarixiy sabablar bilan o'zaro bog'liq bo'lgan u yoki bu darajadagi o'xshashliklar namoyon bo'lganda aniq ravshan ko'rindi.

Ijtimoiy rivojlanishning bir bosqichiga tegishli, o'zining sinfiy mohiyati va yo'nalishiga ko'ra bir xil bo'lgan, hattoki ular o'rtasida genetik aloqa va o'zaro ta'sir mavjud bo'lмаган taqdirda ham, mafkuraviy (jumladan, adabiy) hodisalar o'rtasidagi bunday o'xshashliklar jahon adabiyotida o'yaganimizdan ko'proq uchraydi. Ayniqsa, G'arb va Sharq xalq ijodiyoti asarlari va o'rta asrlar adabiyoti o'rtasida ko'p sonli va ibratli o'xshashliklar mavjud. <...>

1946

V.M.Jirmunskiy

**ADABIY OQIMLAR XALQARO
HODISA SIFATIDA**

<...> Rossiyada 1917-yildan ancha oldin, 1880-yillar-dayoq, filologiya fakultetlari dasturlariga umumiy adabiyot fani kiritilgan edi. Aslida, bu slavyan xalqlari adabiyoti tarixiga o'xhash G'arbiy Yevropa adabiyotlari fani bo'lib, u milliy (rus) adabiyotga qo'shimcha fan sifatida o'tildi. Umumiy adabiyot kafedralari Peterburg, Moskva, Ki'yev, Xarkov, Odessa, vaqtinchalik boshqa universitetlarda faoliyat ko'rsatar edi. Peterburg universitetida bu kafedra ni 1870-yildan boshlab keyinchalik akademik bo'lgan, rus fanida qiyosiy adabiyotshunoslikka asos solgan professor Aleksandr Nikolayevich Veselovskiy boshqardi. <...> «Umumiy adabiyot» bo'yicha darsliklar ham mavjud edi; biroq ta'limning vazifalariga muvofiq ular G'arbiy Yevropa adabiyotlari bilan cheklangan edi. Shunday bo'lsa ham, bitta katta ahamiyatga ega hodisani eslab o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi: bu V.F.Korsh va A.I.Kirpichnikovning to'rt jildli «Umumiy adabiyot»i bo'lib, unga antik va G'arbiy Yevropa adabiyotlaridan tashqari Vizantiya, slavyan va Sharq xalqlari (Misr, Bobil, hind, xitoy, arab, turk) adabiyoti ham kiritilgan edi (*Корш В.Ф., Кирпичников А.И. Всеобщая история литературы: в 4 т. – М., 1880 – 1892*). O'z-o'zidan ma'lumki, mualliflar metodologiyasi ruhida jahon adabiy jarayonidagi o'xhashliklar bu kitobda ham xronologik parallel hodisalar oddiy yig'indisi bilan cheklangan.<...>

Hozirda Fanlar akademiyasining Jahon adabiyoti institutida turli adabiyotlar bo'yicha yirik mutaxassislar jalg qilinib, 10 jildli «Umumjahon adabiyoti tarixi»ni tayyorlash bo'yicha jamoaviy ishlar amalga oshirilmoqda. U «Jahon adabiyoti» chegaralarini tushunishda «yevropasentrizm»ga

chek qo'yadi va o'z oldiga uning rivojlanishini shunchaki empirik (tajribaga asoslangan) ma'lumotlar majmuyi sifatida tasavvur qilishni emas, balki uning ichki qonuniyatlarini tarixiy jarayon nazariyasi asosida ochib berishni maqsad qilib qo'yadi.

1967

V.M.Jirmunskiy

ALPOMISH HAQIDAGI EPIK DOSTON VA GOMERNING «ODISSEYA»SI

Xalq epik ijodi yodgorliklari xalqning mardonavor tarixiy o'tmishini ideallashtirish ko'laming badiiy tajassumi sifatida klassik poetik adabiyot merosida faxrli o'rinni egallaydi.

<...> Alpomish haqidagi epik doston qahramonlik eposi sifatida o'zbeklar, qozoqlar va qoraqalpoqlarda (qo'ng'irot versiyasi); tog'li oltoyaliklarda («Alip Manash») qahramonlar haqidagi qadimiy ertak sifatida ma'lum; u boshqird va Qozon tatarlarida («Alpamish» yoki «Alpamsha») zamonaviy, ko'p jihatdan modernizatsiyalashtirilgan, «bo'lib o'tgan voqealar» sifatida mavjud; XV – XVI asrlardayoq u Ozarbayjon va Anatoliyada «Kam-Buranning o'g'li Bamsi-Bayrak haqida hikoya» sarlavhasi ostida yozib olingan bo'lib, «Qo'rqt ota kitobi»ga adabiy qayta ishlangan o'g'uz qahramonlik qo'shiqlari yoki epik hikoyalari turkumi tarkibiga kiritilgan va XIX asrning 30-yillarida yozib olingan ko'plab folklor asarlari qatorida Anatoliyada hozirgi kunlargacha xalq ertagi sifatida mavjud. Shunday qilib, bir tomondan, Oltordan O'rta Osiyo orqali Volgagacha, ikkinchi tomondan, Kichik Osiyogacha bo'lgan ulkan hududda joylashgan turkiy xalqlar orasida ushbu epik dostonning turli variantlari yashab kelmoqda. Shu bilan birga, o'zining kelib chiqishi bo'yicha u ushbu xalqlarning ko'psonli epik dostonlari orasida qadimgilaridan biri, balki, eng qadimiysi hisoblanadi. <...>

<...> Dostonning genezisi masalasi uchun Oltoy qahramonlik ertagi «Alip Manash» alohida ahamiyatga ega bo'lib, taassufki, u Tog'li Oltoyning eng yirik baxshisi N.Ulagashewning, chamasi, to'liq bo'limgan variantida faqat bir marta yozib olingan (1940).

Ushbu variant, shubhasiz, arxaik xarakterga ega: qahramonlik eposi bu yerda qahramonlik ertagi tarzida berilgan bo'lib, unda qadimiy miflarga xos xususiyatlar yaqqol namoyon bo'ladi.

Benuqson afsonaviy bahodir – alpning obrazni ham (an'anaviy formula bo'yicha: «qizarmoqqa qoni yo'q, o'lmoqqa esa joni»), uning zabardast, mo'jizavor, sehrli evrilishlarga qodir, aql bovar qilmaydigan darajada donishmand, qahramonning sovchilikdagi yagona yordamchisi – tillo tog'lar etagida joylashgan uchta ko'lning biridan shifobaxsh tillo ko'pikni topib, alpni asirlikdan qutqargan oti ham qahramonlik ertagiga xos. Bahodirning o'zi ham oti singari sehrli evrilishlarga qodir: u xotinining to'y bazmida isqirt, qo'tir qirchang'i chol – Tos-Tarakay qiyofasida paydo bo'ladi, uning oti esa «tuproqqa bir belanib» ro'dapo, dirdov otga aylanadi (Alpomishning qiyofasini o'zgartirishi sehrli evrilishning keyingi bosqichlariga aloqador ekanini ko'rsatadi). <...>

<...> Syujetning G'arbiy Yevropa variantlaridan farqli ravishda, «Alpomish»da bir qator motivlar Homer «Odisseya»sini eslatadi. «Alpomish»da biz, «Odisseya»da bo'lgani kabi, qashshoqlik va xo'rlikda yashayotgan keksa otani (Boybo'ri va Laert), hayotiga xavf solayotgan zo'ravonlar tomonidan jabrlangan, voyaga yetmagan botir o'g'ilni (Yodgor va Telemax), qahramonning quli va oila a'zosi qatoridagi do'sti sifatida tasvirlangan yordamchisini (Qultoy va «ilohiy cho'chqaboqar» Evmey) uchratamiz.

Umumiy vaziyatdagi o'xshashlikning ma'lum darajadagi oqibati sifatida bir qator tafsilotlar diqqatni jalb qiladi.

Odissey qullari o'ziga sodiq qolganligini sinash uchun o'g'lidan qaytib kelganini sir saqlashini so'raydi: «ulardan qay biri seni va meni hurmat qilishi va yaxshi ko'rishi ni, qaysisi bizni unutib, seni haqoratlab, izzat-nafsingga tegayotganini bilish uchun». Alpomish ham Odisseya o'xshab xalqning orasida o'z tarafдорлари va dushmanlarini

bilib olish uchun yurtiga qaytganini yashiradi: «xalqning ichidagi dushmanlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rish uchun, xalqni va yurtni bilish uchun keldi u....». Bu motiv «Alpomish»ning bir qator variantlarida o‘zgartirilmasdan qaytariladi: Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lida, qoraqalpoq variantida, o‘g‘uzlarning «Bamsi-Bayrak»ida («kim o‘g‘uzlar orasida menga do‘sit, kim dushman ekanini ko‘rishi kerak»).

Odisseyning soxta do‘stlari va safdoshlari uning vatani-ga qaytayotganligi haqidagi yolg‘on xabar tarqatib Evmeyni bir necha marta aldaganiqliklari uchun endi u Odisseyning o‘ziga ham ishonmagani kabi, Qultoyning yoniga notanish odamlar kelib, uni yolg‘on umid bilan avraydilar, undan xushxabar uchun suyunchi olib laqillatadilar: mana shuning uchun ham chol Alpomishning yelkasidagi nishonni ko‘rmaguncha unga ishonmaydi (Evrikleya Odisseyni eski yarasidan qolgan chandig‘idan taniydi).

Odisseyning cho‘pon Evmeyning eski uyida mehmon qilinish (XIV – XV qo‘shiqlar) sahnasi cho‘pon Qultoyning Alpomishni mehmon qilishiga juda o‘xshaydi (qoraqalpoq variantida Yodgor ham ishtirot etadi).

Tilanchi Irning Odissey tomonidan jazolanishi (XVIII qo‘shiq) ma’lum darajada Alpomish o‘zining nomini o‘z-lashtirib olgan raqibining to‘y bazmida oshpazlarni jazolashiga o‘xshaydi – bu epizod qo‘ng‘iroq, o‘g‘uz variantlari-da ham qaytarilgan.

Odisseyning uyida sodir bo‘lgan ta’sirli voqeа ham «Alpomish»dagi sahnaga o‘xhash: uy oldidagi bir uyum go‘ng ustida o‘lar holatda yotgan qari ko‘ppak Argus tilanchi cholda yo‘qolgan xo‘jayinini tanib, uning yoniga sudralib keladi, dumini likillatib, joni uziladi (XVII qo‘shiq). «Alpomish»da Qaldirg‘ochning podasidan bo‘lgan tuya xo‘jayini yo‘qligida o‘rnidan turmay, yetti yil qimirlamay yaylova-yotadi, uning yaqinlashib kelayotganini sezgach qo‘qqis dan o‘rnidan turadi va uni vataniga qaytgani bilan qutlaydi. Tuya epizodi nafaqat «Alpomish»ning bir necha qo‘ng‘iroq

variantlarida, balki «Bamsi-Bayrak» haqidagi Anatoliya ertaklarida ham uchrashi dostonning eng qadimgi tarkibidan dalolat beradi. Boychiborning onasi – qari baytal voqeasiiga o'xhash sahna uning variantlaridan biri hisoblanadi: toyini tanigan baytal uning atrofida xursand bo'lib aylanadi. Bayrak haqidagi Anatoliya ertaklarining birida uni it («Odisseya»da bo'lgani kabi) va ayg'ir, otning ukasi taniydi.

«Alpomish»ning aksariyat variantlariga xos bo'lgan kelin va uning dugonalari bilan bo'ladigan to'y qo'shiq-aytishuvlari «Odisseya»da mavjud emas. Dostonning g'arbiy variantlarida ko'pincha qahramon sayoq xonanda qiyofasida paydo bo'ladi va to'y bazmida aytgan qo'shig'i orqali taniladi (rus bilinasida Dobrinyaning «kuyi», Oshiq G'aribning qo'shig'i).

Faqat «Odisseya» va «Alpomish» dostonlarida «erning qaytishi» bilan bog'liq qahramonlik bilan yakun topuvchi yechim – qallob kuyovlar va to'yga kelgan mehmon o'rta-sida pahlavonlar kamonidan o'q uzish bo'yicha bellashuv (kamonni faqat vataniga qaytib kelgan va uning sohibi bo'lgan qahramongina torta oladi) saqlanib qolgan. <...>

<...> Shunday qilib, Odissey va Alpomish haqidagi dostonlar o'rtasidagi tafsilotlardagi yaqinlikni Gomer eposining adabiy «ta'siri» ma'nosida qabul qilmaslik kerak... Bunday «ta'sir» tarixiy haqiqatga ziddir. Og'zaki epik ijodning har ikki asari uchun, ehtimol, ko'plab xalqlarning folklorida keng tarqalgan eng qadimgi ertak syujetini umumiy manba bo'lib xizmat qilgandir... <...>

T.Belova

V.NABOKOV VA E.XEMINGUEY (POETIKA VA DUNYONI HIS ETISH XUSUSIYATLARI)

V.Nabokov va E.Xeminguey jahon adabiyotiga uslubning tan olingen ustalari sifatida kirgan bo'lib, ularning ijodi yangi davr badiiy olamini anglashning xarakterli jihatlarini o'zida mujassam etgan. Nobel qo'mitasi E.Xemingueyni nufuzli mukofotga aynan uning zamonaviy rivoya uslubini yaratishdagi hayratlanarli mahorati uchun loyiq deb topgan. Nabokov uslubi yozuvchining ajoyib imkoniyatlari, uning tengi yo'q so'z o'yinlari, rang va tovush xilma-xilliklari texnikasi namoyishi sifatida baholanadi. Har ikkisining individual uslubidagi o'ziga xoslikka qaramay (E.Xemingueyda uslub favqulorra tejamkor, «qirqilgan», «telegraf»ga xos, tipologik jihatdan Chexov uslubiga yaqin, Nabokovda metaforaga boy, naqshinkor, bezakli, shubhaisiz, Gogol uslubini rivojlantirgan), yozuvchilar poetikasi bir necha o'xshash prinsiplar asosida shakllangan.

Avvalo, bu faktik aniqlik tamoyili bo'lib, uning natijasida E.Xeminguey va V.Nabokov asarlarida avtobiografiklik jihatlari yaqqol ko'zga tashlanadi, E.Xeminguey hech qachon o'zi guvohi bo'lman va his qilmagan narsa haqida yozmagan. Nabokov ham asarlari uchun o'zi «naturachi vazifasini o'tagani»ni bir necha bor ta'kidlagan. Deyarli XX asr tengdoshi sifatida (har ikkisi 1899-yili tug'ilgan) ular asrning temir panjalarini, fojialari va shafqatsizliklarini o'z tanida his qilganlar – E.Xeminguey fuqarolar va jahon urushlarida, Nabokov majburiy emigratsiyaning og'ir sinovlarida. Har ikkisi ham doimo Vatandan uzoqda yashadi va ijod qildi: Nabokov 1917-yil inqilobidan so'ng Germaniya, Angliya, Fransiya, AQSh, Shveytsariyada, Xeminguey esa Kanada, Italiya, Fransiya, Ispaniya va Kubada yashagan. Adabiyotga

ishtiyoyq, ijodiy jarayonga sho'ng'ib ketish ularga dunyoni qabul qilishdagi fojiaviy ikkilanishlarni yengib o'tishga yordam berdi.

Avvalbosha vatanparvarlik shiorlariga soddalarcha ishongan Xemingueyda frontda ko'rgan-ko'chirganlaridan keyingi karaxt holati, yoshlik chog'ida qadrdon madaniy muhitni tark etgan va uning uchun ma'naviy begona, boshqa millatga mansub muhitga tushib qolgan Nabokovda esa bu «muhojir farzandlari», «e'tibordan chetda qolgan avlod» deb ataluvchi fenomendir.³⁸

Xemingueyning qahramonlik haqidagi yengilmas, jasur obrazlarida (Manuel Garsia) va Nabokovning bir qarashda «qahramon kishilar bo'lman» Sinsinnat S., Pnin va yozuvchi Vadim Vadimovich obrazlarida ularning zamonaviy dunyodagi odam axloqining ideali – Xemingueyda «grace under pressure» va Nabokovda hattoki eng noqulay sharoitlarda ham yaratishdan to'xtamagan, ijodkor inson obrazlari Sinsinnat S., Pnin va yozuvchi Vadim Vadimovichda mujassamlashtirilganini ko'ramiz. Nabokov va Xeminguey qahramonlari – jamiyatdan chetlashib qolgan kishilar (orqada qolganlar), daydilar, biroq muhim boshpanaga, oilaviy baxtga ega bo'lishga muttasil intilish ular uchun xos xususiyat sanaladi.

Rus adabiyoti har ikki yozuvchi ijodi uchun, garchi turlicha darajada bo'lsa ham, muhim omil bo'ldi. Kembrijda bo'lgan paytlarda Nabokov bexosdan yo'qotilgan Rossiyanı xotirasida tiklashga harakat qiladi va go'yoki o'z vatanini rus adabiyoti orqali qayta tiklaydi.

«Begona qirg'oqda» asarida: «Pushkin va Tolstoy, Tyutchev va Gogol mening olamimni to'rt burchagi bo'ylab turdilar»³⁹ – uch yilda «qunt bilan» tiklangan, balki sun'iy,

³⁸ «E'tibordan chetda qolgan avlod» – V.Varshavskiy tomonidan madaniyatshunoslikka oid bir qator ishlari va badiiy asarlardicha «muhojir farzandlari»ning dunyoni idrok qilishdagi fojiaviy ikkilanishlara nisbatan qo'llanilgan atama.

³⁹ Набоков В. Собр. соч.: в 4 т. – М., 1990. Т.4. – С.277.

lekin mening g'oyat go'zal Rossiyam yakunlandi», – deb yozadi u. Yozuvchi butun vujudi bilan rus adabiyotiga beriladi, u Nabokov uchun haqiqiy panohga, uning uyiga, yo'qotilgan vataniga aylanadi. Ayni shu paytlarda, 1920-yillarning boshlarida, Parijda bo'lgan E.Xeminguey Silviya Bichning «Shekspir va Kompaniya» kitob do'koniga bora-di, u bu yerda XIX asr rus yozuvchilarining asarlari bilan tanishadi va Dostoyevskiy, Tolstoy, Turgenev, Chexovning u uchun ochilgan dunyosiga maftun bo'lib, g'oyat zavqlanib o'quvchilik davri haqida: «Dastavval ruslar bo'ldilar, keyin boshqa barchalari paydo bo'ldilar. Lekin juda uzoq vaqt faqat ruslar edi»⁴⁰, – deb yozadi.

Bir-biriga o'xshamagan yozuvchilarini yaqinlashtirgan boshqa, yanada ahamiyatli poetik tamoyil ikki planli hikoya qilish tamoyili hisoblanadi: ular ijodida badiiy vositalar va tasvir usullarining birikmalari: o'quvchiga muallifning sodir bo'layotgan voqelikka munosabatini aniqlash imkonini beruvchi... takroriy so'zlar, turli-tuman motivlar, asardan asarga o'tuvchi ramziy obrazlar, vaziyatlar, kalit so'zlar yordamida tuzilgan hikoya qilishning ikkinchi ramziy (metaforik) darajadagi tagma'nosiga alohida e'tibor qaratiladi. <...>

<...> E.Xeminguey o'zining obraz yaratish prinsipini «aysberg prinsipi» deb atadi, bunda juda muhim, muallifning «eng o'tkir, nozik» fikrlari, sodir bo'layotgan voqealar-ga bergan xulosasi hamda estetik ideali mujassamlashtirilgan bo'lib, ular asarlarining tagma'nosida teran yashiringan, chunki asar matnining aynan mazmuni unda yashiringan asl ma'noga mos emas, sakkizdan yettisi o'quvchi nigohidan so'z to'qimalari ortida yashiringan bo'ladi.

Xeminguey yozadi: «O'quvchi tez-tez tasavvuriga murojaat qilib turishi kerak bo'ladi, aks holda, mening eng o'tkir,

⁴⁰ Hemingway E. A Moveable Feast. Penguin Books Ltd. – Hatmondsworth, Middlesex. England, 1966. – P.97.

nozik fikrlarimni tushuna olmaydi»⁴¹. Bu prinsip ma'lum darajada V.Nabokov asarlariga ham xos bo'lib, u o'zining eng asosiy fikrlarini va voqealarga bo'lgan munosabatini matnda shifrlab qo'yadi va o'quvchi bilan nozik o'yin olib bora-di. Bu holda o'quvchi nafaqat yuz berayotgan voqealarning shohidi bo'ladi, balki qisman yozuvchining hammuallifiga, uning rebuslarini yechuvchi kishiga aylanadi. Buni, xususan, Xemingueyning odatdagidan boshqacha tuzilishga ega bo'lgan «Bizning zamonda» (1925) ilk hikoyalar to'plamida aniq ko'rsatish mumkin: har bir hikoya oldidan mavzusi u bilan hech qanday bog'liq bo'lмаган lavha-miniatyura beriladi: undagi voqeа-hodisalar tinchlik davrida idillik-romantik sharoit fonida (tabiat quchog'ida, Michigan ko'li qirg'oqlaridagi qo'l urilmagan yovvoyi o'rmon) yoki chet ellarda (Italiya, Fransiya, Shveysariyada) sodir bo'ladi. <...>

Har ikki yozuvchi o'zlarining ko'plab asarlari – roman va hikoyalarida «oxiriga yetkazmaslik» prinsipiiga rioya qiladilar, shu munosabat bilan ularning personajlari bir asardan boshqasiga «ko'chib o'tadi». Masalan, Nabokovda o'quvchi «Mashenka» hikoyasining qahramoni Mashenka va uning eri Alfyorovni «Lujin himoyasi» romanida ham uchratadi. Pnin shu nomdagi romanidan tashqari «Xira tortgan olov»-da, keyinroq esa «Arlekinlarga qara!» romanida ham paydo bo'ladi, Xemingueyning Nik Adami ham bir hikoyadan boshqalariga «ko'chib yuradi».

Nabokov va Xeminguey hikoyalari badiiy niyati va us-lubning umumiyligi bilan ajralib turadi, bu esa har ikki muallifda romanga oid novellistik boshlanmaning sin-tezi mavjudligi haqida gapirish imkonini beradi. Masalan, Nabokovning «Chorbning qaytishi», «Ayg'oqchi», «Fialtda bahor» hikoyalar to'plamlarida asosiy mavzu quvg'in, be-vatanlik, Vatanni, onani, yorni yo'qotish mavzulari bo'lib, hikoyachi-qahramon esa ko'p hollarda Xeminguey qahra-

⁴¹ Hemingway E. Notes in: A Farewell to Arms. – Lincoln, Nebraska, 1964. – P.12.

monlari kabi muallifning *alter egosidir*. Bu badiiy an'ana 1920 – 1930-yillarda amerikalik yozuvchilar: Sh.Anderson («Uaynsburg. Ogayo»), E.Xeminguey («Bizning zamonda», «Erkaklar ayollarsiz»), E.Kolduel («Jorjiyalik bola») va b.ga katta ta'sir ko'rsatgan Turgenevning «Ovchi xotiralari» va boshqa asarlariga borib taqaladi.

V.Nabokov kabi Xeminguey asarlarining teran mazmuni ularning o'zaro munosabati, belgilar majmuyi, o'zaro alo-qalarida namoyon bo'ladi, bu, o'z navbatida, kitobxонни yozuvchining hammuallifi sifatida asarlarining tagma'nosida yashirgan «eng nozik, o'tkir fikrlari»ni anglay oluvchi zukko o'quvchi sifatidagi alohida rolini belgilaydi.

Nabokov va Xeminguey asarlarini kinoya, har ikki muallifda mujassamlashtirilgan kinoyadagi vaziyat, kinoyadagi kontrastlar, yakuniy jumla va sarlavhadagi kinoya kabi asosiy uslub yasovchi tamoyillar bir-biriga yaqinlashtiradi. Amerikacha meshchanlik mavzusi rivojlantirilganda ko'pincha kinoya satiraga aylanadi, amerikacha hayot tarzi tanqid ostiga olinadi (E.Xemingueyening «Sovg'a uchun kanareyka», «Ellik ming» hikoyalari va V.Nabokovning «Lolita» romani). <...>

Shunday qilib, V.Nabokov va Xeminguey asarlarini badiiy obraz va asarlar arxitektonikasini yaratishga bo'lgan yondashuvdag'i o'xshash tamoyillarning majmuasi, muallif nuqtayi nazarini ifodalash usullari, rus va jahon adabiyotining badiiy an'analariga bo'lgan munosabatlari, shuningdek, ular ijodida aks etgan dunyoni his etishning o'ziga xos xususiyatlari yaqinlashtiradi.<...>

F.Sulaymonova

IBN SINO VA DANTE

<...>1955-yili Yerevanda A.O.Shaxsuvaryan tomonidan «Ibn Sino va jahon adabiyoti» mavzuyida nomzodlik ishi himoya etiladi. Unda Ibn Sinoning «Hayy ibn Yaqzon» deb nomlangan falsafiy, allegorik qissasi mazmuni Dantening «Ilohiy komediya»si bilan muqoyosa qilinib, Hayy – Vergiliy, haqiqatni anglashga intilgan qahramon – intellekt Dante o'rtaida o'xshashliklar aniqlanadi. Avvalambor har ikkala qahramon haqiqatni anglab yetishga intiladilar, Hayy ham, Vergiliy ham qahramonlarni yerdagi gunohlaridan xoli qilmaydilar, balki ko'plab sinovlardan o'tkazadilar. Dante do'zaxning yettinchi qavatida ajdahoni yo'liqtiradi, xuddi shunday epizod Ibn Sino qissasida ham bor, ikki shoxlik shayton «Hayy»da berilgan, bu Dante do'zaxining sakkizinch qavatida ham bor. Ibn Sinoda faqat taqvodorlar kechib o'tishi mumkin bo'lgan dengiz bor, Danteda A'rof tog'i atrofidagi dengiz, «Hayy»da baland Qof tog'i, Danteda A'rof tog'i... shunday qilib, haqiqatan, o'xshashliklar oz emas. <...>

Savol tug'iladiki, «Dante Hayy mavzuyida yaratilgan asarlar bilan tanish bo'lganmi?» Bunga aniq javob berish qiyin. Rabbi ben Ezra (Azro) tomonidan 1174-yili yahudiy tilida yaratilgan «Hayy ibn Yaqzon» lotin tiliga o'girilgan. Ammo uni Dante o'qigan-o'qimagani noma'lum. Yuqorida tilga olganimiz ispan arabi, faylasuf, yozuvchi Ibn Tufayl yaratgan falsafiy roman «Hayy ibn Yaqzon» Ibn Sino asari nomini takrorlasa-da, mazmuni boshqa. Ibn Tufayl asarida dashti biyobonda qolib, madaniyatli muhitdan uzilib qolgan insonning qanday qilib aqliy yetuklikka erishushi haqida gap boradi.

Ibn Sino asari muallif (intellekt) va ajoyib, go'zal, donishmand nuroni yeksa Hayy ibn Yaqzon o'rtaсидаги суҳ-

bat shaklida yozilgan. Majoz uslubida yaratilgan bu asar Sharq faylasuflari orasida katta qiziqish uyg'otgan. Falsafiy, axloqiy kategoriyalarni jonli obrazlar sifatida gavdalantirish o'rta asr Sharq adabiyotida keng tarqalgan edi. «Hayy ibn Yaqzon» haqidagi risola ijebiy va salbiy xususiyatlar o'rtasida insonda ro'y beruvchi ichki kurash haqidagi oqilona yozilgan hikoyadir. Bu o'rinda Ibn Sino har bir odamda yaxshi xususiyatlar bilan bir qatorda salbiylari ham bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Faqat sog'lom aqlgina odamni adashuvlardan saqlaydi. Bir vaqtlar Y.E.Bertels «Hayy ibn Yaqzon» Dantening «Ilohiy komediya»si asosiy mavzusining timsoli bo'lishi mumkin degan edi. Ibn Sino qissasidagi Hayy tarixi umuminsoniy intellekt, ya'ni aqli kulliy evolyutsiyasining tarixidir. Har ikkala asardagi asosiy o'xshashlik abstrakt tushunchalar, ong, ishq kabilarni jonli personajlar sifatida gavdalantirmoq va asrlar davomida qahramonlar turli sinovlardan o'tib poklanishlaridir, har ikkala muallif ong kuchiga, inson poklanishiga ishonadilar.

Sharq va G'arb o'rta asrlarining ikki buyuk namoyandasibni Ibn Sino va Dante yaratgan asarlarning g'oyaviy o'xshashligi borliqni anglab yetishga behad intilish va insoniyat kelajagiga optimistik munosabatda bo'lishdadir. Fikrimcha, o'rta asr, X va XIV asr Sharq va Ovrupo jamiyatidagi bir-biriga yaqin bo'lgan asarlarni keltirib chiqardi. Bu o'rinda ta'sir haqida so'z bo'lishi mumkin emas.

Dante ilm-fan, falsafaning asosiy poydevori Sharq olimlari tomonidan yaratilgan va ularning asarlari lotin va ba'zilari milliy tillarga ag'darilgan. Ovrupo mamlakatlarining ziyolilari bu asarlar bilan tanishibgina qolmay, Sharq olimlari ta'limotlarini o'zlashtirib, o'z hayotlariga tatbiq etib, o'zlarining ijtimoiy-siyosiy sharoitlaridan kelib chiqib o'sha ruhda asarlar yarata boshlagan davrda yashadi va ijod etdi, bu jarayondan chetda qolmadidi. Xuddi Dante davrida Italiya lotin averoizmining markazi, umuman, Provans, Sitsiliyadagi Sharq madaniyati muxlislari, ilg'or

fikrlovchi olimlar, milliy tilda, dunyoviy, ayniqsa, ilmiy mazmunda she'rlar yaratuvchi shoirlar vataniga aylangan edi. Ikkinchisi tomondan, ilg'or fikrlashga qarshi qaratilgan papa, umuman, din arboblarining kurashi, papaning Ovrupo mamlakatlari siyosiy hayotini boshqarishi masalasi atrofidagi keskin kurashlar ham xuddi shu davrda bo'lib o'tgan. Mafkura masalasida asosiy problema inson masalasi, ruh, uning barhayotligi va Allohga munosabati Dante davri jamoatchiligining diqqat markazida turgan. Albatta, zamonaning o'ziga xos xususiyatlari buyuk shoir dunyoqarashi va ijodida o'z ifodasini topadi. Mutafakkir shoir Dante keyingi davr Ovrupo adiblari va faylasuflari ijodiy yo'naliishini aniqlab berdi. Uning asosiy kashfiyoti, isaviya dini ta'limotiga zid o'laroq, insonning qadr-qimmati, borliqdagi mohiyatini aniqlash bo'ldi.

U davrdagi rasmiy tushunchaga binoan inson, shaxs masalasi din, ijtimoiy tabaqalanish va tabiat nuqtayi nazardin kelib chiqib hal qilingan. Din insonni Alloh bilan bog'lagan, lekin uni xudoning quli deb, tuproq zarrachasi bilan tenglashtirgan, jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishi va insonning huquqi hamda mas'uliyatini aniqlagan. Dante «Ilohiy komediya»da ana shu uch omilni yangi gumanistik dunyoqarash nuqtayi nazaridan yoritgan.

O'rta asrlar feodalizm jamiyatining mafkurasi isaviya dini bo'lib, unda insonlar huquqi tengligi rasmiy ravishda e'lon qilingan bo'lsa-da, amalda bu tenglik faqat Alloh oldida, narigi dunyodagi tenglik bo'lgan. Ammo, shunga qaramay, insonlarning Alloh oldidagi tenghuquqliligi quidorlik jamiyatni mafkurasiga nisbatan ijobjiy holat edi. «Inson gardning zarrachasi» tushunchasiga zid o'laroq, Dante «Ziyofat»da «Alloh donoligining eng ulug' mo'jizasi Insondir» deb insonni diqqat markaziga qo'ydi. Shoir gumanizmi keng, kosmik doirada qo'yilgan, u insonning farsafiy, axloqiy va siyosiy doiralarini aniqlab berishga urin-gan. Insonga bunday munosabat Ovrupo, umuman, isavi-

ya diniga e'tiqod qo'ygan xalqlar yashagan mamlakatlar uchun mutlaq yangilik bo'lib, tarixiy mohiyati isaviya ta'limotidagi teosentrizm o'rniqa antroposentrizmni tasiqlash va shu nuqtayi nazardan inson ulug'ligi, qadr-qimmatini ko'rsatish bo'ldi.

Yuqorida aytigelanidek, Sharqda islom dini buyuk faylasuf olimlar ta'limotida gumanizm, inson ulug'ligi g'oyasi har taraflama ishlab chiqilgan va bu ta'limot isaviya Ovruposiga ham ta'sir o'tkazgan edi. Sharqda ishlab chiqilgan Inson g'oyasi Ovrupoda ham «tabiatda insonni va insonda tabiatni kashf etishga olib keladi». Ammo, afsuski, Sharqdagi «Inson g'oyasi» shaxs g'oyasining shakllanishiga olib kelmadi. Bu jarayon G'arb adabiyotlaridagi Shekspir, Servantes kabi buyuk gumanistlar ijodida yakunlandi.

XII – XIII asrlarda ilg'or Ovrupo mamlakatlarida avjga chiqqan mafkuralar, g'oyalari kurashiga Dante «Yangi hayot», ayniqsa, «Illohiy komediya» asarlari bilan yakun yasadi, «gumanizm» tushunchasiga yangi mazmun berdi va «inson shaxsi» mohiyatiga aniqlik kiritdi. Dante shaxsning qadr-qimmati, fazilatlari, shu bilan birga, turli sharoitda insonga xos bo'lgan ijobiy va salbiy xususiyatlar ham namoyon bo'lishi mumkinligini ko'rsatib berdi. Uning fikricha, insonni Alloh yaratgan, yer yuzidagi hamma narsa inson uchun yaratilgan, Alloh unga tafakkur ato qilgan. Shu bois Allohga suyangan holda yovuzlikdan uzoqlashib, yaxshilik qilmog'i lozim. Halol yashash gunoh emas, mehnat, ijod hayotning asosini tashkil qiladi. Alloh insonni farishtalaridan past qilib yaratmagan. Inson hayotda erkin, ma'lum axloqiy doiradan chetga chiqmagan holda faoliyat ko'rsatishi mumkin va u Allohning yerdagi vakili. Dante bu fikrlarni Sharq mutafakkirlari Ibn Sino va Ibn Rushd ta'limotlaridan topgan. Dante tomonidan Limbga joylashtirilgan o'tmishning buyuk shoirlari, mutafakkirlari, ayniqsa, rim shoiri Vergiliyning yo'lboshchilik qilishi uning maslakdoshlari kimlar ekani masalasiga aniqlik kiritgan.

Dante «Illohiy komediya»da narigi dunyon tasvirlagani bilan, do'zax, a'rof va jannatga joylashtirilgan personajlar tarixiy shaxslar bo'lib, ko'pchiligi shoirning zamondoshlaridir. Asarda u dunyo bu dunyoning davomi sifatida tasvirlangan. Dante ko'plab personajlar bilan suhbatlashadi, ularning axloq qoidalari va odamiylikka mos kelmagan qilmishlarini qoralaydi, ba'zilariga achinadi. Asarni o'qib Dante davridagi Italiya ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida yaxshigina tasavvurga ega bo'lish mumkin. Lekin adib tarixni ham esdan chiqarmaydi. Bunga A'rofga joylashtirilgan To'maris yaqqol misol bo'lishi mumkin. Ibn Sino: «Zaruriy vujud hech narsaga bog'liq bo'lman bir butunlikni tashkil etib, u eng irodali, qudratli, dono va biluvchi Tangridir. Qolgan hamma narsalar imkon tarzida mavjud bo'lib, undan, zaruriy vujuddan kelib chiqadi. Boshqacha aytganda, Tangri va qolgan narsalar sabab va oqibat munosabatidir. Bu kelib chiqish emanatsiya tarzida, ya'ni quyoshdan chiqayotgan nur shaklida asta-sekin amalga oshadi», – degan. Dante esa shunday deydi:

Men tushundim, qandaydir kuch oqimi
 Meni ko'tarib osmonga olib chiqmoqda;
 U mening ko'zimga yangi nur berib yoritdi,
 Shunday nurki, qanchalik yorug' alanga bo'lmasin,
 Ko'z unga chiday oladi.
 Nur menga oqim qiyofasida ko'rindi,
 Sehrgar bahordagi sohillarda keng yoritilgan
 Taralib oqayotgandek
 (Jannat, XXX).

Dastavval shoirning nigohi oldida Arshi A'lo sohillarida olovafsaf gullar o'sayotgan, la'lga o'xshash cheksiz uchqunlar chaqnayotgandek ko'rindi. Lekin ko'z yorug'likka o'rgangach, shoir dastlabki g'oyalarni tashuvchi, kosmosni harakatga keltiruvchi falak ruhlarini ko'radi. Gullar

taqvodor odamlar ruhiga aylanadi va h.k. Dantening fikri-cha, faylasuflarning oltin zanjiri yerni osmon bilan biriktirib turadi. Bu fikr ham Ibn Sinoda bor: uzun bir butun zanjirning bir chekkasida Yaratuvchi Tangri – zaruriy vujud, ikkinchi chekkasida tabiat vujudi yotadi.

Nihoyat, Ibn Sino «Risola fi-l-ishq» asarida «borliq, hayot ishq tufayli davom etadi» degan g‘oyani olg‘a sursa, Dante «Ilohiy komediya»sini «Ishq quyosh va yoritqichlarni harakatga keltiradi» so‘zлari bilan tugallaydi.

Dante dunyoqarashi, ijodi, yuqorida ko‘rganimizdek, Sharq falsafasi, adabiyoti ta’siri ostida shakllangani aksioma, rad etib bo‘lmas haqiqat deb bilaman. Shoir ijobi Ovrupo adabiyotining keyingi davr rivoji, yo‘nalishini aniqlab bergani fanda allaqachonlar tan olingan. Demak, Sharqda yaratilgan falsafa, ximiya, matematika, meditsina, astronomiya, geologiya, tabiat fanlari keyingi davrlar ilmi uchun poydevor bo‘lgan ekan, badiiy ijoddha ham Sharq adabiyotining ta’sirini aslo inkor etib bo‘lmaydi.

(«Sharq va G‘arb» kitobidan)
1997

N.Karimov

TARJIMA SAN'ATI VA JAHON ADABIYOTI

Odamzod qayerda, yer kurrasining qaysi bir go'shasida yashagan bo'lmasin, yangi hayot manzillarini kashf etish, daryolar, dengizlar, hatto ummonlarning narigi sohilidagi hayot bilan oshno bo'lishga, o'sha yerdagi hayot manbalariidan bahramand bo'lishga intilgan. U shu maqsadda suzishni o'rgangan, qayiqlar yasagan, ko'priklar qurban. Insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichiga ko'tarilganidan so'ng boshqa mamlakatlar va qit'alarda yashagan xalqlar badiiy madaniyatidan, nafis adabiyot olamida erishgan yutuqlaridan bahramand bo'lishga katta ehtiyoj sezgan. Odamzodning ana shu ehtiyoj taqozosi bilan adabiyotlar aro qurban «ko'prigi» hozirgi kunda «badiiy tarjima» deb ataladi.

Jahondagi qaysi bir rivojlangan mamlakatning adabiy hayotiga nazar tashlamaylik, boshqa xalqlar adabiyotining mumtoz namunalari tarjima qilinganini ko'ramiz. O'zbekiston ham bu masalada istisno emas.

Jahon ikki ulkan qismidan – G'arb va Sharqdan iborat. O'zbekiston jahoning arab, fors, hind va turkiy tillar ustuvorlik qilgan sharqiy qismida joylashgan. VII asrdan O'rta Osiyoda, jumladan, hozirgi O'zbekiston hududlarida arab tili ma'lum sabablarga ko'ra ikkinchi ona tili maqomida faoliyat ko'rsatgan. O'zbek olimlari ilmiy asarlarini arab tilida yoza boshlaganlar. Shu davrdan e'tiboran arab tilidagi asarlar forsiy va turkiy tillarga tarjima qilina boshlagan. Ayni paytda, arab olamida ham forsiy va turkiy tillardagi asarlarga qiziqish uyg'ongan.

Shu narsa hayratlanarligi, Sharqda arab tili hukmronlik qilayotgan bir davrda, 1340-yilda, turkiy (o'zbek) tilga ilk bor tarjima qilingan asar arab muallifining emas, balki forsiz zabon Nizomiy Ganjaviyning «Xusrav va Shirin»

dostonidir. Tarix Qutb Xorazmiy tashabbusidan ilhomlanib 1390-yilda forsiyzabon Sa'diyning «Guliston» asarini turkiyga o'girgan Sayfi Saroyiga xorazmlik ustozi bilan birga mumtoz o'zbek tarjima maktabining asoschilari bo'lish sharafini berdi. Shu davrdan boshlab hozirgi O'zbekistonda badiiy tarjima o'zbek madaniyatining tarkibiy qismi sifatida yashab, davrdan davrga kamol topib keldi.

XIX asr oxiri – XX asr avvalida rus-tuzem, shuningdek, jadid maktablari uchun Saidrasul Aziziy, Asqar ibn Bayramali, Abdulla Avloniy darslik va majmularining yaratilishi she'riy va nasriy tarjimaning izchil tus olishi va rivojlanishida muhim omil bo'ldi. 1917-yildan keyin esa rus adabiyoti namunalarining o'zbek tiliga tarjima qilinishiga katta e'tibor berildi va shu davrda badiiy tarjima sohasiga qator iste'dodli jurnalist, shoir va yozuvchilar kirib keldilar. 1922-yildan M.Y.Lermontov, N.V.Gogol, I.S.Turgenev, L.N.Tolstoy, A.P. Chexov, M.Gorkiy, A.Blok asarlari tarjima qilina boshladi. 1917-yildan avval Saidahmad Siddiqiy tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan, ammo chor oxrankasi chig'irig'idan o'tolmagan Gogolning «Shinel» qissasi, nihoyat, 1926-yilda kitobxonlar qo'liga borib tegdi. Ammo, bizning baxtimizga, xalqimiz va adabiyotimiz baxtiga, Shekspir va Shiller singari jahon adabiyotining buyuk namoyandalari asarlarini yuskak badiiy saviyada tarjima qilishga chog'langan ijodkorlar oz bo'lмаган. Ular tufayli 20 – 30-yillardayoq Pushkin, Lermontov, Gogol, Tolstoy, Chexov singari buyuk rus; Servantes, Shekspir, Shiller, Mopassan, O'Genri, Tven, Tagor, Rollan singari mashhur jahon yozuvchilarining ham asarlari o'zbek tiliga tarjima etila boshlagan.

Shunday murakkab tug'ilish va shakllanish yo'lini bosib o'tgan o'zbek tarjimachiligi 1935-yilda «Hamlet» tragediyasini buyuk mahorat bilan tarjima qilgan Cho'lpon tufayli muhtasham badiiy mакtab maqomini olishga muvaffaq bo'ldi. Shekspir «Hamlet»ining o'zbek sahnasida ilk bor sahnalashtirilishi madaniy hayotimizda qanday katta

madaniy voqeа bo'lgan bo'lsa, Cho'lponning oltin qalamidan chiqqan «Hamlet» tarjimasи ham o'zbek tarjima adabiyoti tarixida shunday ulug' va unutilmas adabiy voqeadir.

Agar asr boshlaridagi jadid adabiyoti asarlari u yoqda tursin, hatto 20-yillar о'rtalarida yaratilgan o'zbek adabiyoti asarlarining tili bilan qiyos qilsangiz ham «Hamlet»ni tarjima qilish jarayonida Cho'lponning A.Qodiriy bilan birgalikda yangi o'zbek adabiy tiliga poydevor qo'yaniga ishonch hosil qilasiz. Holbuki, Cho'lpon va Qodiriygacha bo'lgan o'zbek adabiy tili XVI asrning ikkinchi yarmi – XVII asr boshlarida yashagan Shekspir va boshqa G'arb mumentoz shoir va yozuvchilari asarlarini tarjima qilishga tayyor emas edi. Shekspir tilida shunday g'aroyib xalq maqollari va mutoyibalari, muallifning o'zi to'qigan hikmatli so'z va iboralar, tarixiy shaxs, joy, libos, taom nomlari bisyor ediki, ularni o'zbek tilida ifodalash va XX asrning 30-yillaridagi o'zbek kitobxonlariga yetkazish uchun Cho'lpon arab, fors va turkiy tillar olamida yashagan o'zbek tili xazinasini «titkilab», eskirgan yoki begona hisoblangan so'z va ifodalarga yangi hayat bag'ishladi, o'z badiiy tafakkurining lisoniy imkoniyatlarini ishga solib yangi so'zlar va ifodalarni ijod qildi, ularni yangi o'zbek tili taronalarida yangratib yubordi.

Aslida, buyuk asarlarni tarjima qilishning muhim va ahamiyatli tomonlaridan biri ham xuddi shudir.

1937-yil – sovet mamlakatida nafaqat «Katta qirg'in» boshlanib, minglab davlat, fan va madaniyat arboblari qamoqqa olingan, balki Pushkin otilgan kunning 100 yilligi nishonlangan sana ham. Shu so'nggi voqeа munosabati bilan 1936-yilda O'zbekiston hukumatining qaroriga muvofiq Pushkin asarlarini tarjima etishga kirishildi. Shayxzoda va Mirtemir Pushkin lirkasini, Hamid Olimjon «Kavkaz asiri»ni, Abdulla Qahhor «Kapitan qizi»ni, Temur Fattoh «Lo'lilar»ni, Usmon Nosir «Boqchasarov fontani»ni, Oybek esa «Yevgeniy Onegin» she'riy romanini o'zbek tiliga tarjima qildilar. (Bundan avval Cho'lpon «Dubrovskiy» qis-

sasi va «Boris Godunov» tragediyasini o'zbek tiliga o'girib, kitobxonlarga hadya qilgan edi.) Cho'lponning «Hamlet» ustida olib borgan ijodiy tajribasini o'rgangan Oybek va Usmon Nosir Pushkin asarlarini shunday ilhom bilan tarjima qildilarki, bu tarjimalar o'sha davrning madaniy hayoti-da ulkan voqeal bo'ldi.

Oybek oldida turgan vazifaning mashaqqatli tomoni shunda ediki, fransuzcha joy, kishi, asar, taom nomlari bilan to'lib-toshgan, ayniqsa, shu asar uchun Pushkin tomonidan maxsus ishlab chiqilgan 9 yamb (9 hijo)li, abab, aabb, abba, aa tartibidagi qofiya tizimiga asoslangan 14 satrli «Onegin bandi» bilan yozilgan she'riy romanning barcha badiiy xususiyatlarini saqlab qolish amrimahol edi.

Bevosita tarjima masalalariga kelsak, erkin tarjima qilish kerakmi yoki aynan tarjima yo'lidan borish ma'qulmi de-gan savol tug'iladi. Shubhasiz, badiiy asar tarjimasida eng to'g'ri yo'l erkin tarjima yo'lidir. Lekin erkin tarjima meto-dini ham har qanday asar va har qanday shoirga nisbatan qo'llash mumkin emas... Lekin «Yevgeniy Onegin»dek o'zi-da butun bir davrni ifodalagan 5 ming yo'llik romanni erkin tarjima qilish qiyin. U kichik she'r emaski, tarjimon uning ichki xususiyatlarini anglab, uni yangidan, o'zicha she'r tarzida bera bilsa...

Asardagi har bir detal ma'lum bir ma'noga egadir. Har bir detal, har bir chiziq davrning keng va har tomonlama obrazini yaratishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham bironta chiziqnini, bironta detalni tushirib qoldirish yoki ularni boshqacha berish tarjimada o'sha davr obrazini haqqoniy ifodalashga putur yetkazadi. Masalan, romandagi «fagot, fleyta» so'zlarini «karnay» deb tarjima qilish to'g'ri bo'lmaydi. Romanning bir epizodida esa Lenskiy *klavikord*-da o'ynaydi. Bu so'zni ham tarjimada boshqa bir tushuncha bilan almashtirish maholdir. Roman qahramonlari ballarda *mazurka*, *vals* kabi raqslarga o'yin tushadilar. Bu raqs kuy-larini *segoh*, *chorgoh* singari o'zbek milliy kuylari bilan al-

mashtirish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Shuning uchun ham bu o‘rinda, menimcha, erkin tarjima yo‘lidan bormay, imkon qadar original ruhini saqlab qolishga intilib, adekvat tarjima qilish kerak bo‘ladi. Bunday tarjima metodi Pushkin romanining ruhi va ma’nosini buzmaslik imkonini beradi.

Pushkin asarini tarjima qilishning boshqa murakkab tomonlari ham oz bo‘lмаган. Shulardan biri romanda fransuzcha so‘zlarning, fransuzcha kishi, asar, taom nomlaridir. «Yevgeniy Onegin»da shunday joylar ham borki, – degan Oybek, – ularda fransuzcha so‘zlar fransuz tilining imlo qoidalari asosida yozilgan. Bunday so‘zlar yozilishiga nisbatan boshqacha o‘qiladi. Bunday so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etish, umuman, asarni to‘g‘ri tushunish uchun kitobxon ma’lum darajada tayyorlangan bo‘lishi kerak. Kitobxon asarda tasvirlangan davrdan tashqari Yevropa madaniyati bilan ham tanishgan bo‘lishi lozim. Masalan, Lenskiyning tabiatini tushunish uchun Kantning kimligini yoxud One-ginning nima uchun Adam Smitni o‘qishini bilish kerak bo‘ladi. Pushkin asardagi bir-ikki chiziqlar orqali ularning, shuningdek, boshqa yozuvchi va olimlar ijodining mohiyatini ochib beradi».

Tarjimon oldida turgan shunday jumboqlar Oybekka «Yevgeniy Onegin»ni erkin tarjima etish imkonini beradi. Ayniqsa, «Onegin bandi»ning shakliy belgi va talablariga tarjima davomida to‘la rioya qilish, ayni paytda, Pushkin she‘rining badiiy jozibasini saqlab qolish masalasi Oybek oldiga hisobsiz to‘siqlarni qo‘ydi. U shu vaqtga qadar poetik asarlar tarjimasida katta tajriba orttirmaganiga qaramay, Pushkin asarini yuksak saviyada tarjima qilishga erishdi. «Yevgeniy Onegin», «Boqchasarov fontani» hamda «Demon»ning Oybek va Usmon Nosir qalamiga mansub tarjimalari zamонави о‘zbek tarjima maktabi 30-yillarda erishgan eng katta yutuqlardan biri bo‘ldi.

Oybek Pushkin asarini tarjima qilish jarayonida ko‘p narsani o‘rgandi. Hattoki 1946-yil oktyabrida «Qizlar» dos-

tonini yozishga kirishganida o'zi ham abab, abab, aa tarribida qofiyalangan 10 satrlik yangi band tizimini yaratdi. Afsuski, Oybek bu band tizimi poetik tafakkurning erkin va ravon oqimiga xalal berishi mumkinligini sezgach undan voz kechdi.

Cho'lpon va Oybekning tarjima maktabida shakllangan Mirtemir butun hayoti davomida qozoq, qirg'iz, turkman va ozarbayjon adabiyotlari namunalaridan tashqari rus va jahon shoirlarining asarlarini ham o'zbek tiliga qoyilmaqom qilib tarjima qildi. Lekin Mirtemirning 50-yillarda N.Nekrasov ijodiga murojaat etib, «Rusiyada kim yaxshi yashaydi» dostonini tarjima qilishi o'zbek tarjima maktabi uchun fav-qulodda katta voqeа bo'ldi. Ayniqsa, juldur rus qishloqlarining nomlari-yu mujiklar og'zidan chiqqan xalqona so'z va iboralarning o'zbekona nusxalarini topgani tarjimani asliyat turgan yuksak pog'onaga ko'tarib yubordi.

O'tgan asrning 40 – 50-yillarida urush, tiklanish, yangi mafkuraviy siquvlar va shaxsga sig'inish oqibatlarining fosh etilishi kabi siyosiy kampaniyalardan so'ng 60-yillarda sovet mamlakatida erkinlik shabadasi esa boshladi. Davrning shu hayotbaxsh to'lqinida o'zbek adabiyotiga ikki o'ta iste'dodli shoir – Erkin Vohidov bilan Abdulla Oripov dalil kirib keldi. Tarix ulardan birining zimmasiga buyuk Gyotening «Faust», ikkinchisining yelkasiga esa buyuk Dantening «Ilohiy komediya» asari «Do'zax» qismini tarjima qilish mas'uliyatini yuklagan edi. Ular jahon adabiyotining shu ikki durdonasini katta ilhom, mahorat va sabr bilan tarjima qildilar. Bu tarjimalarning maydonga kelishi o'zbek tarjima maktabi va o'zbek she'riyatining yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishiga turtki berdi.

«Yevgeniy Onegin»ning «Onegin bandi» bilan yozilganligi Oybek oldida qanday qiyinchilikni tug'dirgan bo'lsa, «Do'zax»ning tarset bilan yozilganligi ham A.Oripovga yayrab tarjima qilish imkonini bermagan ko'rindi. Shu sababli u «Ilohiy komediya»ning qolgan qismini tarjima

qilishga jur'at etmadi. Lekin u umrining so'nggi yillarida Dantening uch satrlik band tizimidan istifoda etgan holda bir necha go'zal va purhikmat she'rlar yaratdi. Bu Dante bilan g'oyibona muloqot A.Oripovning ruhiy olamida chuqur iz qoldirganidan darak beradi. Gyote asarini tarjima qilish tarjimondan qanchalik katta energiyani talab qilganiga qaramay, E.Vohidov «Faust» tarjimasini muvaffaqiyat bilan tugatdi. U shu jarayonda turli-tuman sirlar, jumboqlar bilan to'la «Faust»ning mag'zini chaqib, ulug' nemisning ijodiy laboratoriyasiga dadil kira oldi.

Bu ikki genial asarning o'zbek tiliga tarjima qilinishi har ikki shoir uchun katta maktab bo'ldi.

Badiiy tarjima maktabi shakllanmagan milliy adabiyotning kelajagi bo'lmaydi. Har bir milliy adabiyotning rivojlanganlik darajasi milliy adabiy an'analarning barqarorgligi va o'ziga xosligi bilangina emas, balki shu an'analarning boshqa milliy adabiyotlar bilan ijodiy aloqada boyib, shu adabiyotlardagi eng yaxshi adabiy-badiiy tamoyillardan, ijodiy yutuqlardan bahramand bo'lib borganligi bilan ham belgilanadi.

A.Sabirdinov

OYBEK VA UOLT UITMEN

Amerika adabiyotining peshqadam ijodkori Uolt Utmen (1819 – 1892) she’riyatda o’zining yangi so’zini aytaliga olgan hassis shoirdir. Asarlari qat’iy she’riy qoliplardan xoliligi bilan ajralib turuvchi bu ijodkor, ayni chog’da, o’z davrining dolzarb ijtimoiy masalalariga ham faol munosabat bildiradi. Tabiatning go’zal, betakror manzara va ohanglariiga uyg‘un holda Amerikaning shimoli va janubi o’tasida 1861-yili boshlangan urush voqeligini o’ziga xos tarzda aks ettiradi.

XX asrning 20-yillarida ana shu ulug’ iste’dod sohibi asarlari bilan chuqur tanishgan atoqli o’zbek adibi Oybek Utmenning betakror obrazlari va tasvir uslubidan qattiq ta’sirlanadi. Darhaqiqat, Uolt Utmen she’rlarida biri ikkinchisiga o’xshamagan obrazlar: qullikdan qochgan ta’qibdagi habash, go’zal hindu qiz, nyu-yorklik xonavayron bo’lgan aravakash, hunarmand va temirchilar, mulkdor fermerlar, jasur dengizchilar boshqalarga o’xshamagan qiyofada aks etadi. Shoир lirik qahramoni oddiy xalq vakillari nomidan so’zlaydi, ularning kechinmalarini izhor qiladi. Uning «May manzarasi» she’ridagi:

*Olma bog’lar borliqni gullariga burkagan;
Bug’doyzorlar – poyonsiz, jonli zumrad gilamlar;
Abadiy va tiganmas musaffodir har tonglar;
Kechki iliq quyoshning sariq, oltin tumani;
Qizil yo oq gullarin ko’kka tutgan sirenlar, –*

satrlaridagi borliqning abadiyligi, go’zalligi, tonglarining musaffo va tiganmasligi haqidagi peyzaj tasviri Oybekning quyidagi satrlaridagi:

*Charchab qolgan kun yotoqqa yo'l soldi,
 Bog'chalardan uzoqlashdi qush sozi.
 Bo'shliqlarga titrab, sekin tarqaldi
 Allaqaydan so'flarning ovozi, –*

ya'ni to'xtovsiz harakatdagi borliq, uning ohanglari, ranglaridagi evrilishlar, spiralsimon harakatdagi mangulik tasviriga mushtarak. Shuningdek, she'rning so'nggi:

*Aravani liqillatib dehqon chol
 Yonginamdan o'tib ketdi jimgina.
 Yo'llar qora... tikilardi yosh xayol
 Oltin ko'zli ko'k qizlari husniga... –*

satrlaridagi hayotiy ifodalar, nozik chizgilarda ham ushbu ta'sirni ko'rish mumkin. Yoki Oybekning 1936-yilda Chimyon tog'lari bag'rida olgan taassurotlari asosida yozilgan «Na'matak» she'ridagi ulug'vorlik va fidoyilik olqishlangan satrlar ham Uolt Uitmen ijodiga uyqashdir. Na'matak borliqqa go'zallik, ezhulik hadya etmoq uchun «yuksakda, shamol belanchagi»da nafis chayqaladi. She'rda vahshiy toshlar ijodi bo'lgan, ularga fusun bergan kumush qorlarни yum-yum yig'latgan na'matakdagи matonat, ma'sumlik ulug'lanadi. Chimyon tog'lari bag'rida uchratgan go'zal, betakror manzara ta'sirida yaratilgan ushbu she'rda Na'matak timsolida minglab begunohlar qoni to'kilayotgan jamiyatda o'zgalarga ezhulik ulashayotgan ziyorilar qiyofasini ham aks ettirayotgandek bo'ladi shoir.

So'nggi:

*Tog'lar havosining feruzasidan
 Mayin tovlanadi butun ijodi.
 Vahshiy qoyalarning ajib ijodi:
 Yuksakda raqs etar bir tup na'matak,
 Quyoshga bir savat gul tutib xursand! –*

satrlarida bu hol oydinlashayotgandek bo'ladi. Ushbu she'r beixtiyor Uolt Uitmenning «Ilk momaqaymoq» asaridagi obrazni ham yodga soladi.

She'rnинг:

*Qish qafasidan ozod, oddiy, barra va nafis,
Bu olamda odatlar ham, siyosatbozliklar ham,
pul ishlari ham
bo'lmanan kabi,
Qishning iliq maysa puchmoqlaridan
Oltin shafaqdek sokin, beozor
Bahorgi ilk momaqaymoq
Farishtadek ma'sum yuzin ko'rsatdi, -*

misralarida qish qafasini yorib, ma'sumligi bilan boylig-u siyosatbozlikka asoslangan jamiyatga qarama-qarshi tur-gan momaqaymoqdagi kurashchanlik, nafosat ulug'lanadi.

Uolt Uitmen va Oybek ijodidagi mushtarak jihatlarni aniqlashda Jamol Kamolning quyidagi so'zlari muhim o'rinn tutadi: «Bizningcha, Oybek she'riyatining yagona pafosi, uning individual poetik uslubida bir-biriga bog'liq bo'lgan ikki muhim moment belgilovchi rol o'ynaydi: 1) hamisha hamma yerda nafosatni ko'rishga va uni tasdiqlashga qaratilgan, ma'lum darajada shoirning «she'r – axloqiy go'zalilikdir» degan o'ziga xos aqidasidan kelib chiquvchi tamoyil; 2) lirik janr doirasida epik nazarga ega bo'lish, lirik holat, lirik lavhalarni epik nazar bilan ko'rish, yoritish tamoyili». Yuqoridagi jihatlarni Uolt Uitmen asarlarida ham ko'rish mumkin.

*Qani kim hozir mo'jizaga ishonar?
Men esa har narsada mo'jizani ko'raman:
Manxetten ko'chalaridan o'tganim damlar,
Tubsiz osmon toqiga nazar solgan choq,
To'lqinli sohilda yalangayoq kezib,*

Yo o'rmonda qaysidir daraxt ostida,
 Yo yaqinlar bilan kunduz, yor bilan tunlari suhbatlashganda,
 Do'stlar bilan davrada bazm qurgan onlarim,
 Yoki o'tloqzor ichra podadek kezganimda,
 Yoki ajoyib ninachi, qushlarga boqqanimda,
 Yoki mo'jizalar shafaq yo chaqnasa sokin, tiniq yulduzlar,
 Bahordagi hilolning ajib, sokin holati
 Va ularning barchasi mening uchun mo'jiza.
 Mushtarak va ayro holda – bari-bari mo'jiza.
 Har bir kun va tunning soniyalari mo'jiza,
 Kengliklar har bir kub dyumi mo'jiza,
 Har bir fazoviy borliq kvadrat yardi mo'jiza,
 Har bir fut va uning qa'rida yashirindir mo'jiza,
 Men uchun dengiz barcha mo'jizasini ochadi;
 Baliqlar – qoyalar – to'lqinlar harakati –
 Kemalar – undagi odamlarning barchasi.
 Yana sizga qanday mo'jiza kerak?! –

tarzida tilsimotlarga to'la borliqdan olgan hayratini oshkor etadi. Muttasil harakatdagi olam, poyonsiz koinot,insonning murakkab olami, tabiatining rangin jilolaridan hayrat tuyg'usi Oybek she'rlarining ham asosini tashkil etadi. Uning «Tabiat to'rtliklari» she'rida tabiat hodisalari, uning fasllaridagi ranglar tovlanishidan hayratga tushgan lirik qahramon kechinmalari mo'jizaga to'liq borliq tasviri jarayonida ochila boradi.

Ko'rkiga to'yaymen – ufqda quyosh
 Bulutlar yuziga qirmizi bo'yoq
 Surkab o'tganidan qoladirman mast,
 Izida xayolga tolurmen uzoq...

Tabiatning ulug'verligi inkor qilinib, uning har qanday mo'jizalari rad etilayotgan davrlarda Oybek inson borliqning zarrasi va u bilan mushtarak ekanligini baralla

kuyladi, borliqning inson tafakkuri anglashga ojiz ko'plab sir-u sinoatlari borligiga iqror bo'ldi.

Uolt Uitmen va Oybek ijodidagi uyg'un jihatlardan yana biri har ikki shoirning nekbinligidir. Ularning hayot yo'llarida ham bu o'xshashlik ko'zga tashlanadi. Darhaqiqat, umrining so'nggi yillarida Uitmen ham, Oybek ham falaj holatda to'shakka mixlanganlariga qaramay, yorug'tuyg'ular singgan asarlar yaratishda davom etdilar.

Xullas, Uolt Uitmen va Oybek ijodidagi mushtaraklik, ijodiy ta'sir tilsimot va mo'jizalarga to'la borliq tasviri-yu talqinlarida ulardan tug'ilgan hayrat tuyg'usining o'ziga xos ifodalarida, ijtimoiy-siyosiy masalalarni nozik kechinmalar fonida aks ettirish uslublarida, lirik janr doirasida epik ko'lamdorlikka erishish va syujetli she'rлar orqali liro-epik tasvir imkoniyatlarini namoyon qila bilishlarida, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy masalalar hamda tabiat hodisalari aks etgan she'rлarda nekbinlikning ustuvorlik kasb etishida ko'zga tashlanadi.

Suvon Meli

DANTE VA NAVOIY: YUKSAK FAZOLARDA UCHRASHUV

Daho san'atkorlar ijodida mushtaraklik bo'lishi muqarrar va tabiiy.

Ikki hodisani yuzlashtirish har ikki hodisaning avval ko'rilmagan qirralarini ko'rishga, ilgari uncha namoyon bo'lмаган jihatlarini yoritishga imkon beradi. Ya'ni ular bir-biriga shu'la tashlab, biri ikkinchisida, ikkinchisi birinchisida aks etadi.<...>

Dante va Alisher Navoiy zamondosh bo'lishmagan. Ularni ikki asrcha vaqt, o'n minglab chaqirim masofa va butkul o'zga diniy-madaniy qatlama ajratib turadi. Ammo ular uchrashadigan umumiyy maydon bor. Bu maydon, akademiklar N.I.Konrad va Jirmunskiyning fikricha, Sharq-u G'arb uchun mushtarak hodisa bo'lgan Renessans, ya'ni Uyg'onishdir. Uyg'onish umumjahoniy hodisa sifatida Dante va Navoiyni yuksak nuqtalarda birlashtirib turadi.

Dante va Alisher Navoiyning o'z ona tillari taqdirida o'ynagan buyuk tarixiy roli ma'lum. «Ona tiliga tuganmas ishq, uning taqdiri-yu kamoloti uchun mas'ullik va g'amxo'rlik – mana so'z daholarini birlashtiruvchi birinchi fazilat. Dante italyan tilini xalqaro yo'qlamada nechog'lik barqaror etgan bo'lsa, Navoiy ham shunday vazifani – jahonshumul vatanparvarlik ishini ado etdi. Etnik jihatdan bag'oyat xilma-xil, qanchadan qancha shevallarda gaplashuvchi kishilar tiliga xos so'zlarni adabiy til doirasiga olib kirdi. Navoiyning jur'ati va jasorati, mahorati tufayli o'zbek adabiy tili mukammal shakllanishga erishdi».⁴²<...>

⁴² Орипов А. Адабий қайдлар // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1991 йил 21 март.

Umumiylid xususiylikda yuz ko'rsatadi. Shunday xususiy jihatlardan ikki dahoning asosiy asarlari – «Ilohiy komediya» va «Xamsa»ning bosh qahramoni masalasi va bundan kelib chiqadigan ba'zi holatlarga diqqat qilaylik.<...>

«Xamsa» dostonlarida bayon etilgan voqealar o'z-o'zicha emas, balki shoirning Alisher Navoiyning ularga xos munosabati bilan qimmatlidir.

Voqealarning oddiy bayoni emas, balki shoirning voqeelikka shaxsiy munosabati birinchi o'ringa chiqishi jihatidan «Ilohiy komediya» va «Xamsa» qondosh chizgilarga ega.

Mushtaraklik zamirida doim tafovut bor. Dante «Ilohiy komediya»ning muallifligidan tashqari bosh qahramoni, asar voqeasining asosiy ishtirokchisi. «Xamsa»da bosh-qacharoq. Navoiy asarning muallifi, yaratuvchisi, ammo u «Ilohiy komediya»dagidek voqealarda bevosita ishtirok etmaydi, aytaylik, Farhod bilan uchrashib, uning taqdiriga sherik (masalan, Shopur singari) bo'lmaydi. Uning asardagi ishtiroki bo'lakcha. Navoiy voqeani faqat bayon etmaydi, uni ham tahlil, ham tadqiq qiladi. U kechayotgan va tasvir-lanayotgan voqealarga ustama ma'no beruvchi oliy hakam.

Syujet (voqeasining tizimi) o'rtamiyona shoirni boshqaradi, buyuk shoir esa an'anaviy syujetga jon ato etib, yangicha talqinga erishadi. Navoiy avvaldan ishlatilgan voqeasining («afsona») taniga ruh kirdizib, uni asos qilgan holda yangi badiiyat olamini yaratadi.

*Yozmoqta bu ishqijovidona
Maqsudim emas edi fasona.
Mazmuniga bo'ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli.
(«Layli va Majnun»)*

Bu to'rt misra butun «Xamsa»ni tushunish va tadqiq etishda muhim ochqich vazifasini o'taydi. Asarni daho Navoiyning «ruh mayli» boshqaradi. Bu shunchaki shoir-

na ko'tarinki gap bo'lmay, «Xamsa»da muallif, ya'ni Alisher Navoiyning o'ta muhim, mutlaqo obraz sifatidagi o'rnnini belgilovchi ilmiy qayddir.

Demak, muallifning ruhoniy quvvati asar jarayonida hukmronlik qiladi, afsona (tasvirlangan voqeа-hodisalar) ushbu yetakchi kuchga qaram, bo'ysungan holda mavjud bo'lib, o'z navbatida, ruh maylining muayyan jihatini namoyon etadi. Ruh ushbu voqealar bayonida tovlanadi, jilonanadi.

«Xamsa»ni jahon adabiyotidagi mustaqil va buyuk badiiy obidaga aylantirgan bosh omil – daho Navoiyning ruh mayli deyish ayni haqiqatdir.

Afsona va ruh mayli orasidagi ikki taraflama munosabat asarga butkul o'zgacha tarovat baxsh etadi. Shuning uchun deyarli bir xil voqeа tizimidan Nizomiy, Xusrav Dehlaviy va Navoiy butkul mustaqil asarlar yaratishadi. Har bir shoir «ruh mayli» mustaqil badiiy olamni vujudga keltiradi.

Dante «Bazm» asarida san'at asarini tushunish va sharhlashda to'rt xil ma'noni ko'rsatadi: dastlabki ma'no, allegorik ma'no, saboqli ma'no va anogogik, ya'ni oliy ma'no yoki asarni ruhiy-ma'naviy jihatdan anglash.

«Xamsa»da bayon etilgan voqealarning dastlabki ma'no-si bilan cheklanmay, beshlikni yaxlit holda namoyon etuvchi oliy ma'noni anglashga harakat qilmoq lozim. Dante nigohi bilan «Xamsa»ga nazar tashlash, bir daho ko'zgusida ikkinchi dahoni ko'rishga intilish adabiyot ilmi hamda ma'naviyatimizni boyitadi.

Aristotel – buyuk Arastu o'zining «Paydo bo'lish va yo'-qolish haqida» asarida yozadi: «Muhabbat doim birikuv, adovat, nifoq sababchisidir».

Dante insonlar orasida nizo va nifoq urug'ini sochganlarga do'zaxning sakkizinchи halqasidan joy ajratadi. «Ularning jazosi o'ziga xosdir: mahkum bir doira bo'y lab timay aylanadi, bir nuqtaga yetganda iblis uni shamshir bilan yorib tashlaydi. Mahkum doirani yana aylanib kel-

gunga qadar jarohat bitadi, o'sha jazo esa yana takrorlanadi».⁴³

Nifoq solish, Dante nazarida, juda katta gunoh bo'lib, faqat sotqinlik va xoinlik undan ustun. Sotqinlar va xoinlar do'zaxning to'qqizinch doirasi tubida metindek mustah-kam muzlik – Kotsit iskanjasida jazo topadilar.

Sotqin odam tariqasida yana bir nifoqqa – nifoq ustiga nifoqqa duchor bo'ladi. Uning vujudi ruhidan ayriladi.

*Bilib qo'y, sotqinlik ro'y bergan zamon
Ruh ketib, vujudga iblis kirgaydir.
Vujud avvalgiday yurgaydir yashab,
To muddat bitguncha kechirgay umr.
Ruh esa tubanga yumalagay zab...⁴⁴<...>*

Dantega ko'ra, bitta odamning borlig'i ikkiga ajralib, vujudi odamlar orasida-yu ruhi do'zaxda qyinoqdaligi, A.Navoiyga ko'ra esa ikki oshiq qalbning ruhlari birlashib, bir badanga jo bo'lishi qiziq xulosalarga undaydi.

Muhabbat yo'q joyda tubanlikka yo'l ochiq, sotqinlik sevgi daraxtida emas, adovat butog'ida yetishadi. Adovat odam borlig'ini parchalab tashlaydi. Muhabbat oxir-oqibat hatto xunxor kuchlarni birlashtiradi. Bir-birlarini ko'rarga ko'zi yo'q Layli va Majnun qabiladoshlari ikki oshiq qalb sa-doqati qarshisida lol qolib, nizoni unutadilar.

Yana Arastu so'zлari esga tushadi: «Muhabbat birikuv, adovat nifoq sababchisidir».

Dante sotqin odam tirikligida ikkiga bo'linib, ruhini do'zaxda, iblisiy vujudini tiriklar orasida qoldirishga urg'u berar ekan, go'yo vujudga aldanmang, ba'zan unda odam emas, iblis makon etgan bo'lishi mumkin deydi. U yana sotqin o'zi sotgan odamni yoki haqiqatni emas, avvalo, o'zini jazolaydi, yomonlik o'zini o'zi ixtiyoriy jazolashdir deb ta'kidlaydi.

⁴³ Данте Алигьери. Илохий комедия. Дўзах. – Тошкент, 1975. – Б.186.

⁴⁴ Данте Алигьери. Илохий комедия. Дўзах. – Тошкент, 1975. – Б.226.

Alisher Navoiy haqiqatning boshqa muhim tomonini ochadi. Agar inson oshiq bo'lsa, uning ruhi pok bo'lib, o'zi kabi pok ruhlar bilan topishadi, birlikda (vahdatda) yashaydi. Nopok vujud esa hatto o'z ruhini tutib turolmaydi.<...>

Odamni harakatga keltiruvchi, uni tom ma'nodagi In-songa aylantiruvchi kuch, hazrat Navoiy nazdida, Ishqdir. Ul zot «Layli va Majnun» dostonida ishqqa qarata deydi: «Falak senga shunday kuch berganki, misni ham oltin qilasan. Inson gavdasining loyi tuproqdan boshqa narsa emas. Sen insonga yaqinlashgach, unga oshnolik qilgach, u qiyomga aylanadi» (nasriy bayondan).

Odam zotiga shunday ulug'vorlik baxsh etuvchi Ishq Dantening Amuri kabi butun koinotni yurgizib tursa ne ajab!<...>

1998

D.Quronov

JAHON ADABIYOTIGA YO'L

<...> XX asr boshidagi Turkiston ijtimoiy-tarixiy sharoitining o'ziga xosligi, ma'lumki, ikki asosiy omil: 1) kapitalistik ijtimoy munosabatlarning qaror topa boshlagani; 2) Turkistonning mustamlaka o'lka bo'lganligi bilan belgilanganadir. Ya'ni yurtimizda yangicha ijtimoiy munosabatlarning qaror topa boshlashi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning tabiiy hosilasi emas, ko'proq tashqi omillar ta'siri bilan bog'liq edi. Ijtimoiy taraqqiyot bobida Yevropa mamlakatlaridan ancha ortda qolgan Rossiya ta'sirida hali anchagini mustahkam feodal asoslarga kapitalistik munosabatlar payvandlana boshladi. Albatta, bu narsa ijtimoiy taraqqiyot sur'atini tezlatdi, biroq yurtimizda eskilik va yangilikning ajib quramasi vujudga keldiki, har ikkisining orasidagi farq yaqqol ko'zga tashlanib qoldi. Bu esa, tabiiyki, eskilikni tugatish, jamiyat hayotini isloh etish-u millatni taraqqiy ettirish zaruratini kun tartibiga qo'ydi. Ayni shu zaruratni teran idrok qilgan fidoyi ziyorolarimizni yagona MAQSAD atrofida birlashtirgan ma'rifiy-islohiy harakat milliy tariximizga jadidchilik nomi bilan kirdi. Ma'lumki, jadidchilik harakati atroflicha va ilmiy xolis o'rganila boshlaganiga hali ko'p bo'lganicha yo'q, u haqdagi yirik fundamental tadqiqotlarning paydo bo'lishi yaqin kelajakda kutiladi. Tabiiyki, biz bu o'rinda jadidchilik harakatining mavzuyimizni yoritish uchun zarur o'rinlarigagina to'xtalamiz.

Asrimiz boshidagi Turkiston ijtimoiy-tarixiy sharoitining milliy adabiyotimiz taraqqiyotiga ta'sirini yorqinroq tasavvur qilish uchun, fikrimizcha, uni Yevropa adabiyoti tarixi bilan muqoyasa qilish foydalidir. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, jadidchilik harakati o'zining ko'p jihatlari bilan XVIII asrda Yevropada keng quloch yoygan ma'rifatchilik harakati-

ga o'xshashdir. Har ikki harakatga xos mushtarak nuqtalariga bir qur nazar solinsayoq, bizningcha, bu fikrimizda jon borligi anglashiladi. Avvalo shuki, har ikki harakat ham feodal asoslar yemirilib, ularning o'rnida kapitalistik munosabatlar qaror topa boshlagan paytda maydonga kelgan. Ya'ni har ikki harakatning yuzaga kelishini zaruratga aylantirgan ijtimoiy-tarixiy sharoitning o'xshashligi ulardagi o'xshashlikni keltirib chiqargan. Feodal ijtimoiy munosabatlardan farq qilaroq, kapitalistik munosabatlar jamiyatning har bir a'zosi uchun teng boshlang'ich (start) imkoniyatlar ochishi bilan xarakterlanadi. Yangi sharoitda insonning taqdiri va jamiyatdagi o'rnini ilgarigidek ijtimoiy kelib chiqishi emas, aql-u zakovati, tadbirkorligi-yu omilkorligi belgilaydi. Ko'rinadiki, yangicha ijtimoiy munosabatlar shaxsning ijtimoiy maqomini o'zgartirdi, u endi o'zini ijtimoiy shaxs sifatida – jamiyatning va o'zining hayotiga faol ta'sir ko'rsata oладиган unsur sifatida anglay boshlaydi. Shaxs maqomining o'zgarishi bilan feodal-monarxik tartiblarning eskirgani, jamiyat hayotini isloh etish zarurati tobora ravshan ko'zga tashlana boradi. Yevropaning qator mamlakatlarida ayni shu xil sharoit yuzaga kelganida maydonga chiqqan harakat ma'rifatchilik harakatidir. Ma'rifatchilik harakatining ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan uzviy bog'liqligini shundan ham ko'rsa bo'ladiki, uning g'oyalari Yevropa mamlakatlarining hammasiga bir paytda emas, konkret mamlakatda buning uchun mos ijtimoiy sharoit yuzaga kelgandagina yoyilgan: avval Angliyada, keyinroq Fransiyada, so'ng Germaniyada (ma'lumki, jadidchilik g'oyalaringin Qrim, Tatariston, Ozarbayjon, Turkiston hududlariga yoyilishida ham shunga o'xshash holni kuzatish mumkin: ularning har birida g'oynan o'zlashishi va ommalashuv darajasi turlichcha bo'lgan). Jadidchilikka o'xshab Yevropa ma'rifatchiligining ham yagona harakat dasturi bo'lgan emas, har ikki harakat ichida ham qarashlar turlichaligi (biroz konservativroq qarashlardan to radikal qarashlargacha) mavjud edi. Ma'rifatchilar eskirgan

ijtimoiy asoslarni tamomila inkor kilib, yangi – inson tabiatiga mos, «aql»ga muvofiq jamiyat qurish g'oyasi bilan chiqqanlar. Jadidchilarga o'xshab ular ham ijtimoiy islohnini amalga oshirishda ma'rifat yoyishni asosiy vositalardan biri deb bilganlar. O'z g'oyalarining imkon qadar keng doirada yoyilishini istagan ma'rifatchilar nashriyot-matbaa ishlariiga katta ahamiyat bergenlar, kichik hajmli va arzon risolalar chop etib tarqatganlar. Ma'lumingizki, jadidchilik harakatining ko'zga ko'ringan namoyandalari (Behbudiy, Munavvar qori, Ibrat va boshq.) ham noshirlik bilan shug'ullanganlar. Boz ustiga, jadidchilarning yuqoridaqicha maqsad yo'lidiagi sa'y-harakatlari o'zbek milliy matbuotining shakllanishiga olib kelgani ham ma'lum.

Mutaxassislar Yevropa ma'rifatchiliginin «falsafiy, ijtimoiy, axloqiy konsepsiya», yangicha dunyoqarashga asos bo'lgan MAFKURA deb hisoblaydilar. Yangi mafkuraning o'zagini «inson aql-u zakovatigina dunyoni o'zgartirishi mumkin» degan qarash tashkil etadi. Darhaqiqat, ma'rifatchilik g'oyalari ijtimoiy ongning keyingi taraqqiysiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi: XVIII asrdan boshlab moddiyunchilik qarashlari tobora ko'proq kishilarning ongini zabit eta bora-di. Muayyan ijtimoiy sharoit mahsuli sifatida dunyoga kelgan bu mafkura jamiyat hayotining barcha sohalarida, ayniqsa, adabiyot va san'atda tub burilishlar yasadi. Yevropada ma'rifatchilik g'oyalari ta'sirida yangicha estetik prinsiplarga tayangan adabiyot shakllandiki, uning asosida «dunyoni va insonni o'zgartirishga qodir g'oyaviy adabiyot kerak» degan aqida yotadi. Ya'ni, boshqacha aytak, ma'rifatchilarning ijtimoiy ideali – «inson tabiatini va «aql»ga muvofiq jamiyat qurish» ma'rifatchilik adabiyotining estetik idealiga aylandi. Bu esa adabiyotning-da shunga muvofiq holda o'zgarishini taqozo qildi. Mazkur o'zgarishlar orasida eng muhimi idealning «yerga tushgani»dirki, buning natijasi o'laroq badiiyat, go'zallik tushunchalariga ham jiddiy tahrirlar kiritildi.

Jadidchilar kabi ma'rifatchilar ham adabiyotda, avvalo, o'quvchilarni tarbiyalash asosida ijtimoiy hayotni isloh qiliш vositasini ko'rganlar. Shu bois ham ma'rifatchilik adabiyotidagi qator jihatlar jadid adabiyotidagi tamoyillarni esga soladi. Badiiy adabiyotga konkret maqsadga erishish vositalaridan biri sifatida qaraganlari uchun ham ma'rifatchilarning asarlarida ko'pincha qahramonlar orasida ochiq g'oyaviy kurash kechadi, qahramonlar tilidan muayyan g'oyalar aytildi, qisqasi, g'oya asarning birlamchi unsuriga, uni ifodalash muallifning birlamchi maqsadiga aylanadi. Shu jihatdan, ayrim adabiyotshunoslarning «ma'rifatchilik realizmi» atamasidan ko'ra «didaktik realizm» atamasini ma'qul ko'rishlari beziz emas, albatta. Zero, ma'rifatchilik adabiyoti, bir tomon dan, adabiyotni hayotga yaqinlashtirdi, ikkinchi tomon dan, uni tarbiya vositasi deb bildi. Ma'lummingizki, ayni shu ikki tamoyil jadid adabiyotining ham mohiyatini belgilovchi xos xususiyatlar sifatida ko'rsatilishi mumkin.

Ma'rifatchilar o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun qulay imkoniyatlar beruvchi san'at turlari va janrlarga ayri-chacha ahamiyat bergenlar. Xususan, ular teatrni o'z g'oyalarini targ'ib etish minbari deb bilganlar, shu bois ham dramatik janrlar rivojlantirilgan, sahnada o'ynalayotgan voqealar hayotiylik kasb etib borgan. Didro, Lessing kabi yirik ma'rifatchilar teatr san'atiga, dramaturgiyaga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar yaratishganki, bu ham yuqoridagi fikrimiz daliliga xizmat qiladi. Shuni ham aytish kerakki, ma'rifatchilik adabiyotida badiiy proza, ayniqsa, faol rivojlantirildi: «epistolyar roman», «sayohatnoma roman», «tarbiya romani», «falsafiy qissa» kabi qator yangi janrlar ishlab chiqildi; inson xarakterini yaratishning yangi-yangi imkoniyatlari kashf etildi, yangi usul-u vositalar joriy qilindi.⁴⁵ Ma'rifat-

⁴⁵ Bu haqda mufassal ma'lumot olish uchun qarang: История всемирной литературы: В 9 т. Т.5. – М., 1988. – С.19 – 32.

chilik adabiyotida, ayniqsa, hayotni atroficha badiiy tahlil etish-u yaxlit badiiy konsepsiyanı ifodalash imkonini beruvchi roman janri gurkirab rivoj topdi. Shu o'rinda jadid-chilarning milliy teatrimizni shakllantirish yo'lidagi jonbozliklarini, jadid nashrlarida bot-bot uchrab turgan «bizga ti-yotr va ro'mon kitoblari kerak» qabilidagi xitoblarni eslasak, mushtaraklik yana ham bo'rtib ko'zga tashlanadi.

E'tiborli jihat shundaki, Yevropadagi ma'rifatchilik adabiyoti bilan jadid adabiyotining o'xhashlik jihatlari badiiy shakl bobidagi izlanishlarda ham ko'zga tashlanadi. Masalan, fransuz adibi Monteskyening «Fors xatlari», ingлиз yozuvchisi Goldsmitning «Dunyo fuqarosi yoki xitoylik kishi xatlari» nomli asarlarida Yevropa voqeligi chet ellik kishilar – birida fors, ikkinchisida xitoylik kishi nigohi orqali beriladi. Bu xil badiiy-kompozitsion usulga murojaat qilinishining sabablarini qo'ya turaylik-da, Fitratning «Munozara», «Hind sayyohi» asarlarida ham shu yo'ldan borilganini eslaylik. Yoki «Munozara»ning dialog shaklida qurilganini olaylik. Qadimgi yunon faylasuflari foydalangan bu shakl XVIII asrda ma'rifatchilar tomonidan tiriltirilgan, Didro, Lessing, Gerderning falsafiy-publisistik asarlari (hatto Didroning «Ramo jiyan» romani)dan ayrimlari ayni shu shaklda yozilgan edi. O'ylashimizcha, mazkur masala maxsus o'rganilsa, bulardan boshqa ham mushtarak o'rinalar topilishi ehtimol.

Yuqorida mulohazalarimizdan ko'rindaniki, Yevropa ma'rifatchilik adabiyoti bilan jadid adabiyoti orasida qator o'xhashliklar mavjud. Buning sababi esa, bizningcha, ko'proq har ikki adabiyotni yuzaga keltirgan ijtimoiy-tarixiy omillar, har ikki harakat ko'zlagan maqsadlardagi o'xhashlik bilan izohlanishi mumkin. Albatta, har ikki adabiyotda ham konkret ijtimoiy-tarixiy sharoitning o'ziga xosligi, adabiy-madaniy an'ana bilan bog'liq spetsifik xususiyatlar ham yo'q emas. Biroq masalaning bu jihatiga to'xtalish bizning maqsadimizga kirmaydi. Shu bois ham

yuqoridagi mulohazalarning o'zigayoq tayangan holda ilk xulosalarini chiqarishga jur'at qilamiz.

Bizningcha, Turkistondagi jadidchilik harakati ham xuddi Yevropa ma'rifatchiligi kabi MAFKURA edi. Konkret ijtimoiy-tarixiy sharoitda – yurt mustamlaka zulmi ostida ezilgan, jahon taraqqiyotidan uzilib, qoloqlik domiga tushib qolgan bir paytda bu xilda yashab bo'lmasligini teran idrok etgan ziylolar ijtimoiy hayotni isloh qilish, millatni taraqqiy ettirish taraddudiga tushgan edilar. Ularning islohotchilik g'oyalari milliy turmushning barcha sohalariiga – maorif, madaniyat, din, iqtisodiyot va ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlarga – birdek taalluqli edi. Aytish kerakki, xuddi Yevropa ma'rifatchiligi kabi jadidchilik ham yagona harakat dasturiga ega emas edi. Ya'ni jadidchilik harakatiga qo'shilgan kishilarning qarashlarida muayyan farqlar bo'lgani holda, ularni umumiy maqsad – millatni ma'rifatli qilish orqali yurtni taraqqiy ettirish (botiniy maqsad sifatida milliy ozodlikni ham aytish joiz, chunki amalga oshirilajak ishlar pirovard natijada istiqlolga olib kelishi lozim edi) G'OYAlari birlashtirar edi. Jadidchilik g'oyalarini ommalashtirishda adabiyotning roli benihoya katta edi, biroq, ayni paytda, bu ulkan tarixiy missiyani uddalash uchun adabiyotning o'zidan ham shunga mos holda o'zgarish, yangilanish talab qilinardi. Ayni shu ijtimoiy-adabiy zaruratni teran anglagan ijodkorlarning izlanishlari natijasi o'laroq milliy adabiyotimiz sifat jihatidan yangilandi. Ya'ni asrimiz boshida maydonga kelgan jadidchilik harakati milliy adabiyotimiz tarixida sifat jihatidan **yangi – jadid** adabiyotini maydonga chiqardi. Bu adabiyotning mazmun-mohiyatini belgilagan asosiy estetik tamoyillar sifatida tubandagilarni ko'rsatish mumkin: a) estetik idealning «yerga tushgan»i, ya'ni jadidchilik harakatining ijtimoiy ideali uning estetik idealiga aylangani; b) ijtimoiy yo'naltirilganlik, muayyan g'oyani singdirishga safarbar etilganlik; d) tematik jihatdan real hayotga yaqinlik; e) mazmun va shaklning xalqchil-

lashuvi. Bularning bari milliy adabiyotimizda realistik tamojillarning intensiv ravishda egallanib borishiga asos bo‘lib xizmat qildi. Mazkur yangiliklar milliy adabiyotimiz o‘z taraqqiyotida jahon adabiyoti tomon yuzlanganidan, jahon adabiyotining ilg‘ori borayotgan magistral yo‘lga tushib olganidan dalolat edi. <...>

(Чўлпон насли поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004.
– Б.8 – 13)

Adabiyotlar:

1. Литературный энциклопедический словарь. – М., 1987.
2. Дима А. Принципы сравнительного литературоведения. – М.: Прогресс, 1977.
3. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. Восток и Запад. Избр. труды. – М., 1979.
4. Жирмунский В.М. Средневековые литературы как предмет сравнительного литературоведения. Известия АН СССР. Отделение литературы и языка. Т. XXX. Вып. 3. – М., 1971. – С.185 – 197.
5. Авестисян А. Гёте и Данте. Вопросы литературы. – М., 1990.
6. Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литератур. – М.: Прогресс, 1979.
7. Минералов Ю.И. Сравнительное литературоведение (компаративистика): Учебник для бакалавриата и магистратуры. – М.: Юрайт, 2017. – 388 с.
8. Конрад Н.И. Запад и Восток. – М., 1972.
9. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Farrell. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.
10. Эшонбоев А. Қиёсий-тариҳий метод ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008. №4. – Б.38 – 46.
11. Основы сравнительного и сопоставительного литературоведения. – Казань: Казан. гос. ун-т, 2007.
12. Қосимов А. Адабиётда типологик ўхшашликлар ва ўзаро таъсир. – Тошкент: Фан, 2004.
13. Қурбонов П. Байрон ижодида Шарқ мавзуи // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008. №4. – Б.46 – 53.
14. Сувон Мели. Навоий ва Данте: Юксак фазоларда учрашув // Жаҳон адабиёти. 1998. №2. – Б.6 – 12.
15. Просветительство в литературах Востока. – М.: Наука, 1973.

16. Типология и взаимосвязи средневековых литератур Востока и Запада. – М.: Наука, 1974.
17. Перков Т.М. Проблемы исторического развития литературы. – Л., 1984.
18. Чехов и Германия / Под ред. В.Б.Катаева, Р.-Д. Клуге. – М., 1996.
19. Мұхаммаджонова Г. Қиёсий адабиётшунослик. – Фарғона, 2011.
20. Адабий алоқалар ва таъсирлар // Адабиёт назарияси. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.69 – 70.
21. Комилов Н. Ибн Сино ва Данте. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989.
22. Особые межлитературные общности. 5. Дюришин Д. и коллектив. (Отв. ред. Мирза-Ахмедова П.). – Ташкент: Фан, 1993.
23. Ҳамдамов У., Қосимов А. Жаҳон адабиёти: Ўқув қўлланма. – Тошкент: Баркамол файз медиа, 2017.

MUNDARIJA

Kirish	3
Komparativistikaning taraqqiyot bosqichlari	10
Adabiyotshunoslikda «Jahon adabiyoti» konsyepsiyasi.....	38
Adabiy aloqa turlari. Kontakt aloqa tipologiyasi.	
Kontakt aloqa shakllari.....	50
Tashqi aloqalar	60
Ichki aloqalar.....	63
Tarjima – kontakt aloqa shakli	67
San'at turlarining vositachilik funksiyasi	78
Tipologik o'xshashliklar	83
Qiyosiy tahlil masalalari	92

Ilmiy-tanqidiy manbalar

A.N.Veselovskiy. Poeziyaning ta'rifi.....	100
A. N.Veselovskiy. «Tarixiy poetika» muqaddimasidan. Savollar va javoblar	104
V.M.Jirmunskiy. Sharq va G'arbning adabiy munosabatlari qiyosiy adabiyotshunoslikning muammosi sifatida	108
V.M.Jirmunskiy. Adabiy oqimlar xalqaro hodisa sifatida.....	111
V.M.Jirmunskiy. Algomish haqidagi epik doston va Gomerning «Odisseya»si.....	113

T.Belova. V.Nabokov va E.Xeminguey (poetika va dunyoni his etish xususiyatlari)	117
F.Sulaymonova. Ibn Sino va Dante	122
N.Karimov. Tarjima san'ati va jahon adabiyoti	128
A.Sabirdinov. Oybek va Uolt Uitmen	135
Suvon Meli. Dante va Navoiy: Yuksak fazolarda uchrashuv	140
D.Quronov. Jahon adabiyotiga yo'l.....	145
Adabiyotlar	152

Izoh va qaydlar uchun

Izoh va qaydlar uchun

Izoh va qaydlar uchun

Ilmiy-ommabop nashr

Abdug‘opir Qosimov,
A’zamjon Hamraulov,
Sidiqjon Xo‘jayev

**QIYOSIY
ADABIYOTSHUNOSLIK**

Muharrir: Abdulla SHAROPOV
Badiiy muharrir: Bahiddin BOZOROV
Texnik muharrir: Dilshod NAZAROV
Sahifalovchi: Inomjon O’SAROV
Musahhih: Otabek BOQIYEV

Nashriyot litsenziyasi: AI №284, 12.02.2016
Terishga berildi: 12.04.2019-y.
Bosishga ruxsat etildi: 20.05.2019-y.
Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 84x108 $\frac{1}{32}$.
PT Serif garniturasi. Ofset bosma.
Hisob-nashriyot t.: 6,52. Shartli b.t.: 8,4.
Adadi: 500 nusxa.
Buyurtma № 88

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi.
100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20^A-mavze 42-uy.

Tel.: (+99871) 217-16-77
e-mail: info@akademnashr.uz
web: www.akademnashr.uz

«Javoxir Nashr» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani Ziyolilar ko'chasi 6-uy.

ISBN 978-9943-5650-8-1

9 789943 565081